

R. IKROMOVA, X. G'ULOMOVA,
SH. YO'LDOSHEVA, D. SHODMONQULOVA

ONA TILI

4- SINIF

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
darslik sifatida tasdiqlagan*



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2005

81.2 У38-922 УЗБЕК ТИЛИ

Mas'ul muharrir: **Siddiq Fuzailov** — O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, professor.

Taqrizchilar: **R. Yunusov** — TDPU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;
N. Ahmedova — RTM boshlang'ich ta'lim bo'limi boshlig'i;
R. Anorboyeva — Angren shahar 43-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

SHARTLI BELGILAR



— Bilimingizni tekshiring.



— Shu so'zlarning ma'nosini bilasizmi?



— Uyga vazifa.



— Topishmoqlar.



— O'ylang!

103176 P
391


4306020200 - 148

Buyurtma varag'i — 2005

353(04) - 2005

© „O'qituvchi“ NMIU, 2005

ISBN 5-645-04496-7



1- sentabr — O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni va umumxalq bayrami



She'ni ifodali o'qing va yod oling.



BAYROG‘IM

Hilpira, bayrog‘im,
hilpira mag‘rur,
Ozod, hur xalqimga
baxsh etib surur.

Birlashgan Millatlar
koshonasida —

Hilpira, bizlarga
baxsh etib g‘urur.

Orif Usmon



She'ni ifodali o'qing.

ONA TILIM

Alla bo'lib jaranglagan,
Ona tilim — jon-u dilim.
Jahon bo'ylab buyuk Temur
Dovrug'ini solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan,
Meros bo'lib qolgan tilim.
Bobur Mirzo she'rlaridan,
Rang va qiyos olgan tilim.
Shunday tildan tonar bo'lsam,
Qiyma-qiyma bo'lsin tilim.

Tursunboy Adashboyev

O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili **dir**. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

„O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi“dan.

TAKRORLASH

GAP

1- mashq. O‘qing. Matn nima haqida ekanini ayting.

O‘zbekiston taraqqiyot yo‘liga chiqdi. U o‘z bayrog‘iga ega bo‘ldi. O‘z tug‘rosini tasdiqladi. Birinchi bosh Qonunini yaratdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti peshtoqida Mustaqil davlatlar qatori uning bayrog‘i hilpiradi. Osmon darvozalaridan, temir yo‘l qopqalaridan yetti iqlim elchilari kirib kelmoqda.

O‘zbekiston — qadim mehnatkash va fozillar diyori.

Oydin Hojiyeva

Matnda nechta gap bor? Gaplar bir-biridan qanday ajratilgan?

Gaplar qanday mazmun bildiriyapti?

Oxirgi gapni ko‘chiring. Yozganingizni tekshiring.



tug‘ro — gerb

qopqa — darvoza

fozil — bilimlarni yaxshi egallab
olgan kishi

2- mashq. She’rni ifodali o‘qing. She’rga sarlavha toping va husnixat bilan ko‘chiring.

Sahrolar gul ochar senda.
Samolar nur sochar senda.
Yulduzlaring so‘nmasin hech.
Bag‘ringga g‘am qo‘nmasin hech.
Mening uchun aziz bo‘ston,
O‘zbekiston, O‘zbekiston!

Mirpo‘lat Mirzo

Tinish belgilarining qo‘llanishiga e‘tibor bering.

She’rda nechta gap borligini ayting.

Samo so‘ziga ma‘nodosh so‘zlar toping.

3- **mashq.** Matnni o'qing va gaplarning chegarasini aniqlang.

Kuz erta tushdi qovun palagi qurimasdan havoda mezon uchdi kechalari osmonda turnalarning horg'in nolasi eshitildi bu yil qish qattiq keladiganga o'xshaydi teraklar bargini erta to'kdi

O'tkir Hoshimov



Gaplarning oxiriga qaysi tinish belgisini qo'yasiz?
Gapni qanday harf bilan boshlaysiz?

Yozing. Yozganingizni matnga qarab tekshiring.

Gaplar qanday mazmun bildiriyapti?

Horg'in so'ziga ma'nodosh so'z topib ayting.



mezon — kuz faslida havoda uchib yuradigan to'rsimon ip



4- **mashq.** She'rni ifodali o'qing va ko'chiring. Ajratilgan gapning ma'nosini ayting.

TINCHLIK

Tinchlik bo'lsin doimo.
Osmon bo'lsin musaffo.
Quyoshdek kulsin dunyo.
Urush bo'lmasin aslo.



Kulsin so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?

Tinish belgilariga e'tibor bering. Nechta gap borligini ayting.
Gaplar nimalardan tuzilgan?

5- **mashq.** „Kimning xati chiroyli?“ she'ridan olingan parchani ifodali o'qing. U qaysi shoirning she'ri ekanini eslang.

*Köring hamma harfimni,
Qiziqtirar har kimni.*

*Harfim aniq, gōzal-xush,
Qiyinalmay mumkin oqish.*

She'rni husnixat bilan ko'chiring. Yozuvingizdagi kamchiliklarni aniqlang.

6- mashq. „Alpomish“ dostonidan olingan matnni o'qing.

Boybo'ri o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi. Hakimbek olti yoshga to'ldi. U Alpinbiy bobosidan qolgan yoyni ko'tarib tortdi. Yoy Asqar tog'ning katta cho'qqisini yulib ketdi.

Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi. Alplarning boshlig'i Rustam doston edi. Oxiri Alpomish alp bo'ldi.

Matn qanday mazmundagi gaplardan tuzilgan?

Gaplarni so'roq gaplarga aylantirib yozing.

N a m u n a: *Boybo'ri kimning otini Hakimbek qo'ydi?*

Siz qanday mazmundagi gap tuzdingiz?



alp — bahodir, pahlavon

7- mashq. O'qing. Matnda nechta gap bor? Har bir gap qanday mazmun bildiriyapti? Matnga sarlavha qo'ying.

Siz kim kimga salom berishi kerakligini bilasizmi? Kim oldin salom berishi lozim?

Ko'pchilikka yolg'iz kishi salom beradi. Otliq yoki mashinadagi kishi piyodaga salom berishi kerak. Yurgan kishi o'tirganga, o'tirgan yotgan kishiga salom beradi. O'zingizdan kattaga salom berishni unutmang!

Mahmud Sattor



**Gaplarning oxiriga qaysi tinish belgilari qo'yilgan?
Nima uchun?**

Piyoda so'zini qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?



8-mashq. Topishmoqni o'qing. Javobini toping. Har bir misra oxiriga qo'yilgan tinish belgisiga e'tibor bering.



To'ni silliq, tuki yo'q.
 Hammasi to'q, po'ki yo'q.
 Ichi qizil, ko'ki yo'q.
 Uni cho'qolmas chumchuq.
 — Bu nima, qizim Qunduz?
 — Bumi, dadajon, !

G'afur G'ulom

Ko'chiring. She'riy topishmoqda nechta gap borligini ayting.

9- mashq. O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang, zarur tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

Qadim zamonda bir g'or bo'lgan ekan g'orda dunyoning turli bilimlari yashiringan ekan g'orning og'zi bir yilda bir marta ochilib, yana bekilarkan ilmga tashna odamlar g'or ochilishi bilan kirib, ulgurganlaricha bilim olib chiqishar ekan buni eshitgan ibn Sino g'orga kelibdi g'or ochilishi bilan ichkariga kiribdi u bilan kirganlar g'or yopilmay chiqib ketishibdi ibn Sino g'orda bir yil qolibdi va jamiki ilmlarni egallab olibdi

Abusaid Ko'chimov

Matndagi *og'zi* so'zi qaysi ma'noda qo'llangan?



So'zlar qanday ma'nolarda qo'llanar ekan?

10- mashq. Berilgan so'zlardan uchta gap tuzib yozing. Gapni ajratib ko'rsatilgan so'z bilan boshlang.

baxt

keltiradi

mehnat

yo'q

aqldan

boylik

ortiq

tashqi

aqlning

odob

suratidir

Tuzgan gaplaringizni yozing.

Har bir gapning ma'nosini tushuntiring. Tuzgan gaplaringiz ifoda maqsadiga ko'ra qanday gaplar?

Aql, baxt, mehnat so'zlarining yozilishini yodingizda tuting.



11- mashq. Rasmni kuzating. Rasm mazmunini to'rt-beshta gap bilan ifoda eting.



Tuzgan gaplaringiz qanday mazmun bildiryapti?

12- mashq. O'qing. Gapni davom ettirib, tugallangan shaklga keltiring va yozing.

Bilagi kuchli birni yiqar, ...

Bulbul chamanni sevar, ...

Suvsiz hayot bo'lmas, ...

Tuzgan gaplaringiz ifoda maqsadiga ko'ra qanday gap?

Bulbul, hayot so'zlarining yozilishini yodingizda tuting.

13- mashq. O'qing. Matn maqsadga ko'ra qanday gaplardan tuzilgan?

Oqtovdagi yashil pista va bodomzorlarni nimalar yaratganini bilasizmi?

Sayroqi qushlar daraxt ostiga to‘kilgan danaklarni olib, xarsang qoyaga qo‘nishadi. Tumshuqlaridagi pista va bodomlarni kovaklarga qo‘yishadi. Ancha vaqt danak tashish musobaqasi shu tarzda davom etadi.

Bir kun kelib, qoyaning yon bag‘rida pista va bodom nihollari unadi. (*G‘ulomjon Qodirovdan*)


Matnni ko‘chiring. Har bir gapdan so‘ng qavs ichida gaplarning maqsadga ko‘ra turini yozing.

Yozganingizni tekshiring. Xato yozishingiz mumkin bo‘lgan so‘zlarning tagiga chizing.



xarsang — katta tabiiy tosh

14- mashq. Rasm diktant.



O‘zbekistonda qovunning necha xil turi bor? Javobingizni yozing.



15- mashq. Matnni o‘qing. Matn maqsadga ko‘ra qanday gaplardan tuzilgan?

Bir daraxtning ikki xil meva berganini eshitganmisiz?

Braziliya o‘rmonlarida ajoyib daraxt o‘sadi. Unda bir vaqtning o‘zida ham olma, ham yong‘oq hosili pishib yetiladi. Mahalliy aholi uning bargi bilan tishlarini tozalaydi.

(*„Gulxan“ dan*)

Ko‘chiring. Gaplarning maqsadga ko‘ra turini qavs ichida yozing.



mahalliy aholi — o‘sha joyda
yashaydigan xalq

16- mashq. O‘qing.

1. Biz barcha fanlarni qunt bilan o‘rganmoqdamiz.
2. Siz qanday badiiy adabiyotlarni o‘qiyapsiz?
3. Gulla, yashna, hur O‘zbekiston!
4. Bepoyon paxta dalalarimiz qanday go‘zal!

Gaplarning oxiriga nuqta, so‘roq va undov belgilarining qo‘yilish sababini tushuntiring. Oxiriga undov belgisi qo‘yilgan gaplarni ko‘chiring va his-hayajon bilan qayta o‘qing.

17- mashq. Matnni o‘qing. Darak gap, so‘roq gap va buyruq gaplarni toping.

Sulton ismli bola o‘z o‘rtog‘i Yusufjonga dedi:

— Yusufjon, Ali akamning yong‘oqlarini ko‘rdingmi? Qanday yaxshi, shirin yong‘oqlar! Yur, shu yong‘oqlardan cho‘ntagimizni to‘ldirib olaylik. Men daraxtga chiqib, yong‘oq qoqaman. Sen yong‘oqlarni terib olasan. Bizni hech kim ko‘rmaydi.

— Hech kim ko‘rmasa ko‘rmasin, lekin vijdonimiz ko‘rib turadi-ku! — dedi Yusufjon.

Siz Yusufjonning o‘rnida bo‘lganingisda nima qilardingiz? Fikringizni uch-to‘rt gap bilan ifodalang va yozing.



18- mashq. O‘qing. Matn nima haqida va nechta gapdan iborat? Matn maqsadga ko‘ra qanday gaplardan tuzilgan?

**Siz it bilan ilonning do‘st bo‘lishiga ishonasizmi?
Men ham ishonmasdim. Cho‘ponning hikoyasi meni hayron qoldirdi.**

Aliboboning iti har kuni bir vaqtda g‘oyib bo‘lib qolarkan.

Kunlarning birida bobo itini kuzatibdi. U g'alati voqeaning ustidan chiqibdi.

It yo'g'onligi bilakdek keladigan ilon bilan o'ynashib turgan emish. It oyoqlari bilan ilonni goh yerga bosar, goh ko'tarar emish. Ilon ham itga erkalanib suykalarmish. Itning bo'ynidan quchoqlab olarmish.

Abusaid Ko'chimov

Ajratilgan gaplarni ko'chiring.

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turini qavs ichida yozing.

GAP BO'LAKLARI

19- mashq. She'ni ifodali o'qing. Uning qaysi diyor haqida ekanini ayting. She'ni yoddan yozing.

Bunda **bulbul** kitob **o'qiydi**,
Bunda **qurtlar** ipak **to'qiydi**.
Bunda **ari** **keltiradi** bol,
Bunda **qushlar** **topadi** iqbol.
Bunda qorlar taglarida **qish**
Bahor uchun **so'ylaydi** olqish.

Hamid Olimjon

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering. Ularning qaysi gap bo'lagi ekanini aniqlang.

O'qiydi, keltiradi, topadi, so'ylaydi so'zlari qanday ma'noda qo'llangan?



Taqqoslang: *o'quvchi o'qiydi* — *bulbul o'qiydi*.
So'zlar gapda qanday ma'nolarda qo'llanadi?



iqbol — baxtli taqdir, baxt, omad
olqish — yaxshilik tilash so'zlari

20- mashq. Matnni o'qing.

Bog'da chiroyli kapalak guldan gulga qo'nardi. Karimjon do'ppisini uning ustiga otib tutib oldi. Kapalak Karimjonning barmoqlari orasida tinmay pitirlardi.

Karimjon to'g'ri ish qildimi?

Gapning bosh bo'laklarini aniqlang. Bosh bo'laklar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? Matnni ko'chirib, bosh bo'laklarning tagiga chizing. Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini tushirib o'qing.



Bosh bo'laklar gap hosil qiladimi?

Gapning bosh bo'laklarini tushirib o'qing. Qolgan bo'laklar gap hosil qiladimi? Xulosa chiqaring. Gapning asosini qaysi bo'laklar tashkil qiladi? Matnni ko'chirib, bosh bo'laklarning tagiga chizing.

Ega va kesim gapning asosini tashkil etadi.

21- mashq. She'rni ifodali o'qing. Gaplarning maqsadga ko'ra turini ayting. Oxiriga undov belgisi qo'yilgan gaplar qanday ohang bilan o'qiladi?

YAXSHI NIYAT

— Sening jajji yuragingda
Olam orzu ovozi.
Yaxshi niyat o'lmaydi hech,
Yuksak bo'lur parvozi.
O'g'lim xursand. So'zlar shodon:
— Yaxshi **niyat o'lmaydi!**
Yashasin-ay,
Yashasin-ay,
Endi **urush bo'lmaydi!**

Habib Rahmat

Ajratib ko'rsatilgan gaplarni ko'chiring. Bosh bo'laklarning tagiga chizing.



22- mashq. She'rni qiroat bilan o'qing. Bolalar paxtani nimalarga o'xshatishgan?

INSHOLARDAN KO'CHIRMALAR

Barno debdi: „Paxtamiz
Momiq parga o'xshaydi“.
Ra'no debdi: „Paxtamiz
Xuddi zarga o'xshaydi“.
Uni oppoq bulutga
Qiyos qilibdi Davron,
Muzqaymoqning o'zi u,
Debdi hazilkash Omon.
Kimdir „Paxta — non“ debdi,
Kim yozibdi „kunduz“ deb.
„Tunda Oy terimchi-yu,
Lo'ppi paxta — yulduz“ deb.
Inshosini shundayin
Tugatibdi Shouzoq:
„Asli paxta qordekmas,
Dadamning sochidek oq“.

Abdurahmon Akbar



Barnoning gapini ko'chiring. So'roqlar yordamida gapning bosh bo'laklarini aniqlang. Tagiga tegishlicha chizing.

Siz paxtani nimaga o'xshatgingiz keladi?

Bitta gap bilan yozing. Yozgan gapingizdagi bosh bo'laklarni aniqlang.

23- mashq. Hikmatlarni o'qing. Gaplar qanday mazmun bildiriyapti?

Siz ilmi kishilarni ulug'lang.

Siz rostgo'y bo'ling va noma'qul so'zni so'zlamang.

Husayn Hofiziy

Gaplarni ko'chiring. So'roqlar yordamida gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlab, tagiga tegishlicha chizing.

24- mashq. Shartli belgilarga mos keladigan gaplarni o‘rniga qo‘yib o‘qing.

_____ ~~~~~ ~~~~~ ===== ?
_____ ~~~~~ ~~~~~ ===== .
~~~~~ ~~~~~ \_\_\_\_\_ , \_\_\_\_\_ ===== .

Qo‘yish uchun gaplar:

*Konstitutsiyamiz 26 bobdan iborat.  
Unda davlatning buguni, ertasi ifodalangan.  
Konstitutsiyamiz necha bobdan iborat?*

Gaplar qanday bo‘laklardan tuzilgan?

Gapdagi ikkinchi darajali bo‘laklarni so‘roqlar yordamida aniqlang va tagiga chizing.



**Konstitutsiya** — Davlatimizning asosiy qonunlari majmuyi, to‘plami

**25- mashq.** O‘qing. Matndagi gaplar qanday mazmun bildiriyapti? So‘roqlar yordamida gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini aniqlang.

**GULLAR KECHASI UXLAYDIMI?**

Gullar kun bo‘yi quyoshning nurlaridan oziqlanadi. Gullar kechasi **ko‘zlarini** yummaydi. Gullar quyoshsiz o‘smaydi. Ular ham tunda **ishlamaydi**.

Ayting-chi, gullar tunda uxlaydimi yoki yo‘qmi?

(„Mo‘jiza kitobi“dan)

Matni ko‘chiring. Gaplardagi ikkinchi darajali bo‘laklarni tushirib, matnni qayta o‘qing. Gapning mazmunida qanday o‘zgarish yuz berdi?



**Qaysi gapda mazmun to‘liq ifodalangan?**  
**Ajratilgan so‘zlar qanday ma‘noda qo‘llangan?**



**26- mashq.** Ega va kesimdan tuzilgan gapda ikkinchi darajali bo‘lak qo‘shib yozing. Bunda berilgan so‘zlardan foydalaning.

\_\_\_\_\_ kuz \_\_\_\_\_ yoydi.  
 \_\_\_\_\_ shudring tushdi.  
 \_\_\_\_\_ mevasi qizardi.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *na‘matalarning; maysalarning bargiga; oltin, o‘zining sepini.*



Qaysi gapning mazmuni to‘liq ifodalangan?

## GAPDA SO‘ZLARNING BOG‘LANISHI

**27- mashq.** Matnni o‘qing. Mashq qanday gaplardan tuzilgan? Gaplar nimalardan tuzilgan?

Tog‘lar yozda **garmselning** yo‘lini to‘sadi. Ular sovuq shamolni o‘tkazmaydi. Bunday joylarda o‘simliklar **yaxshi** o‘sadi.

So‘roqlar yordamida ajratilgan so‘zlarning qaysi gap bo‘lagi ekanini ayting. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.


So‘zlar o‘zaro nimalar vositasida bog‘lanadi?



**garmsel** — o‘simliklar uchun zararli, issiq shamol

Gapda so‘zlar o‘zaro so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar yordamida bog‘lanadi.

**28- mashq.** Chizmani kuzating. Gapda ikkinchi darajali bo‘laklar qaysi bo‘laklarga bog‘langan?






O'qing. So'roqlar yordamida gapdagi so'zlarning bog'lanishini aniqlang va chizmada tasvirlang.

Ra'no kichkinagina niholning unganini ko'ribdi.

*Aziz Abdurazzoq*

Chizmani kuzating. So'roqlarga mos so'z topib, gap tuzing.



Gapda so'zlar o'zaro bog'lanadi.

- Kesim egaga bog'lanadi.
- Ikkinchi darajali bo'laklar: egaga yoki kesimga bog'lanadi.



**29- mashq.** O'qing. So'roqlar yordamida gap bo'laklarini aniqlang. Ularning bog'lanishini chizmada tasvirlang.

Men elimning yuragida yashayman.

*Hamid Olimjon*

Biz qovunlarni, tarvuzlarni mashinalarga ortdik.

*Shukur Sa'dulla*

Har bir so'zning qaysi gap bo'lagi bo'lib kelganini ayting.

**30- mashq.** Obid Rasul she'rlaridan berilgan parchalarni o'qing.

1. Osmon chamanida Yig'lardi quyosh.
2. Ishyoqmasni sevmayman, Elga undan yo'q foyda.

She'rda ma'no jihatdan noo'rin qo'llangan so'zlarni aniqlang va boshqa so'z bilan almashtirib yozing.



**Gapda so'zlar qanday bog'lanadi?**

Gapda soʻzlar oʻzaro maʼno jihatdan bogʻlanadi.

**31- mashq.** Oʻqing. Matndagi maʼno jihatdan bogʻlanmagan soʻzlarni aniqlang. Ularni tushirib qoldirib yoki boshqa soʻz bilan almashtirib, matnni koʻchiring.

Iqtisodiy bilimga ega boʻlmagan odam hamyonidan ayrilmaydi. Har kim iqtisodni koʻchadan, oʻz xonadonidan boshlamogʻi kerak. Elektr quvvatidan, suvdan, gazdan tejab va tejasdan foydalanishni odat qiling. Doʻkondan ortiqcha non sotib oling. Ortiqchasi isrof boʻladi. Shularga amal qilmagan bolakaydan yaxshigina iqtisodchi chiqadi.



**Fikr ifodalashda nimalarga eʼtibor berishingiz kerak?**



**32- mashq.** „Olmaxon va boʻri“ ertagidan keltirilgan parchani oʻqing va koʻchiring. Rasmni kuzating.

... — Yeyman seni.  
Uyqumni buzding, shoshma!  
— Yon qoʻshningman — Olmaxonman,  
Qoʻyib yubor, adashma.  
— **Sen, jajjivoy, koʻp quvnoqsan,  
Sirni bilmoq orzuyim.**  
Savolimga bersang javob,  
Qoʻyvoraman soʻz tayin.  
Olmaxon der: ...

*Obid Rasul*





## Olmaxon nima deb javob qaytaradi?

Ajratilgan gaplarning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini belgilang.

**33- mashq.** Rasm asosida va berilgan so'zlardan foydalanib, matn tuzing.



### QOVUN SAYLI

Tog'a, Hasan, Husan, Munisa, katta dala, yetilgan qovunlar, olachipor tarvuzlar, chayla, umbrboqi, ko'kalapish, doniyor, qo'zivoy uzilgan, shirinak, dumalab yotardi, shirin.

Hikoyangizni o'qing. U qaysi yozuvchining hikoyasini eslatdi?

### *Bilimingizni tekshiring!*



- Gap nima ifodalaydi?
- Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- Gap oxiriga nuqta, so'roq va undov belgilarining qo'yilish sababini bilasizmi?

- Quyidagi topishmoqlar qaysi tinish belgilari haqida ekanini toping.

Shakli o'xshar o'roqqa,  
Doim tutar so'roqqa.

Tariqday, kichkina xol,  
Gapni tugatar darhol.

Chinor bilan terakdek,  
Faqatgina turar tik.

- Xabar mazmunidagi gapni so'roq mazmunidagi gapga aylantirish mumkinmi? Fikringizni misol bilan asoslang.
- Xabar mazmunidagi gapni buyruq mazmunidagi gapga aylantirish mumkinmi? Fikringizni misol bilan asoslang.
- Gap qanday bo'laklardan tuziladi?
- Gapda so'zlar qanday bog'lanadi?

## UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR

**34- mashq.** Gaplarni o'qing va ko'chirib yozing. So'roqlar yordamida gap bo'laklarini aniqlang, tagiga chizing.

1. Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur. ( „Hadis“dan)
2. Ish boshlanar dalada, bog'da. (Hamid Olimjon)



! Qaysi gapda bir xil so'roqqa javob bo'lgan bo'laklar bir so'zga bog'lanib kelgan?

**35- mashq.** Bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

Dunyoda dunyosi  
Bordir bu yurtning.  
Humosi, tug'rosi  
Bordir bu yurtning.

Bayrog'in ko'ksida  
Bosib jon bergan  
Najmiddin Kubrosi  
Bordir bu yurtning.

*Muhammad Yusuf*



! Bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlar qaysi bo'laklarga bog'lanib kelyapti?

Gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘lgan, bir so‘zga bog‘lanib kelgan bo‘laklar uyushiq bo‘laklardir. Ular sanash ohangi bilan o‘qiladi.

**36- mashq.** Gaplardagi uyushiq bo‘laklarni sanash ohangi bilan o‘qing.

1. Papka ichra uchrashib  
Ruchka, qalam, o‘chirg‘ich  
Rosa suhbat qilishdi.

*Narimon Orifjonov*

2. Bog‘da anor,  
Olma, behi, nok  
Pishgan bisyor.

*Obid Rasul*

Ko‘chiring. Uyushiq bo‘laklarning tagiga bitta to‘g‘ri chiziq chizing.



**37- mashq.** She‘rni o‘qing va ko‘chiring.

Bu olam sathida ko‘pdir elatlar,  
Yurtlar, mamlakatlar, turfa millatlar.  
Yetti iqlim aro ular bo‘lmish jo,  
Ularning barchasin ayladim insho!  
Har birin o‘ziga xosdir savlati  
Tili, e‘tiqodi, ilm-u san‘ati.

*Jumaniyoz Jabborov*

Qaysi misralarda uyushiq bo‘laklar qatnashgan?

**38- mashq.** O‘qing. So‘roqlar yordamida gapning uyushiq bo‘laklarini toping.

Bulbul, mayna, qumri  
Xush ohangda sayrashar.  
Erkin, Gulnoz, Umri  
Bog‘dan jilmay yayrashar.

*Ilyos Muslim*



Qaysi bo‘lak uyushib kelgan? Ular qaysi so‘zga bog‘langan?

Gapda egalar uyushib keladi.

**39- mashq.** Matnni o'qing. Uyushiq egalarni aniqlab, tagiga chizing.

Keng dalalar, o'rmon, dengizlar,  
Go'zal bog'lar —bari bizniki.  
Daryo, ko'llar, serhosil yerlar,  
Oltin tog'lar hur elimniki.

*Shukur Sa'dulla*



**40- mashq.** Chizmani kuzating. Unga mos gaplar tuzing.

1. \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.
2. \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

**41- mashq.** O'qing. Har ikki ustunda berilgan gaplarni taqqoslang.

Men she'rni o'qidim. | Men she'rni o'qidim, yodladim.  
Men she'rni yodladim. |

Bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlarni toping. Ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

Qaysi ustunda berilgan gaplarda fikr ixcham ifodalangan?

Gapda kesimlar uyushib keladi.

**42- mashq.** Matnni o'qing va ko'chiring. Uyushiq kesimlarni topib, tagiga chizing.

### OVQATNI ARALASH YEGAN KISHI

Tabib bir kishining ikki xil quyuq ovqat yeb o'tirganini ko'rdi va unga dedi:

— Ikki xil ovqatni aralash tirib yema. Ular qorning ichida kelisholmaydi va o'zaro janjallashadi.

U kishi quloq solmay yeyaverdi. Ammo ertasiga kasallandi. So'ng o'sha tabibga odam yubordi. Tabib kelib unga:

— Aytmaganmidim, bu ikki ovqatni yema. Ular kelisholmaydi deb! — deya ta'na qildi.

— Yo'q, gaping noto'g'ri, — dedi bemor. Aksincha, ular kelishishdi va meni qulatishdi.

(Muhammad ibn Shayxmuhammad al Jomiy)

*Tabib, bemor* so'ziga yaqin ma'noli so'zlar toping.

**43- mashq.** O'qing. Chiziqlar o'rniga mos so'zlar qo'yib, gap tuzing va yozing.

1. \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

2. \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_.

Uyushiq bo'laklarni ohangiga rioya qilib talaffuz qiling.



**44- mashq.** O'qing. Gap mazmuniga mos so'zlar topib, ko'chirib yozing.

1. Biz o'z vaqtida \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_. 2. Quyosh \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ . 3. Tikuvchi ko'ylakni \_\_\_\_\_ , \_\_\_\_\_. 4. Biz tovushlarni \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ .

Chiziqchalar o'rniga qo'yilgan so'zlar qaysi gap bo'lagi vazifasida kelgan?

**45- mashq.** Matnni o'qing. Bir xil so'roqqa javob bo'lgan so'zlarni aniqlang.

Bulbulcha inidan uchib chiqibdi. Atrofda oq, sariq, qizil gullar ochilib yotganini ko'ribdi. Mayin, yoqimli ovoz bilan sayray boshlabdi.

(Rauf Tolihdan)



Gapning qaysi bo'laklari uyushib kelgan?

Gapda ikkinchi darajali bo'laklar uyushib keladi.

**46- mashq.** She'riy parchani o'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang. Gapning qaysi bo'laklari uyushgan?

Men maktabdan kelaman,  
Bir-bir salom beraman.  
Avval buvamga,  
Keyin buvimga,  
Keyin dadamga,  
Keyin oyimga.

*Habib Rahmat*

Berilgan she'riy parchani bitta gap bilan ifodalang. Gapni yozing.



**47- mashq.** O'qing. Hikmatlarning ma'nosini tushuntiring.

1. Ota-onalarning izzatini va hurmatini o'rniga qo'yimoq har bir o'g'il va qizning insoniy burchidir. 2. Mard to'g'ri va haq gapni gapiradi.

*Rahimjon Usmonov*

Uyushgan bo'laklarni toping. Ularning tagiga tegishlicha chizing. Qaysi bo'laklar uyushib kelgan?

**48- mashq.** Berilgan gaplardagi takrorlanib kelgan so'zlarni tushirib qoldirib, gapni qayta tuzing. Qaysi bo'laklar uyushib kelganini ayting.

1. Kuzda qaldirg'ochlar issiq tomonlarga uchib ketadi. Kuzda bulbullar issiq tomonlarga uchib ketadi. 2. Bu qushlar Kavkazga uchib ketadilar. Bu qushlar Hindistonga uchib ketadilar. 3. Chumchuqlar esa o'lkamizda qishlaydilar. Musichalar esa o'lkamizda qishlaydilar.

Uyushib kelgan bo'laklarni ko'chrib yozing.



Berilgan gaplar bilan o'zingiz tuzib yozgan gap-laringizni qiyoslang. Qay birida fikr ravon ifodalangan?



**49- mashq.** Matnni o'qing. Matnda nechta gap bor? Sizga gaplarning tuzilishi yoqdimi?

## CHUMOLILAR

Chumolilarning turi juda ko'p. Ular pastliklarda yashaydi. Dalalarda yashaydi. O'rmonlarda yashaydi. Qirlarda yashaydi. Yer yuzida och sariq chumolilar uchraydi, jigarrang chumolilar uchraydi. Qora chumolilar uchraydi. Sariq chumolilar uchraydi. Ular mevali bog'larda zararli hasharotlarga qiron keltiradi. Ular paxtazorlarda zararli hasharotlarga qiron keltiradi.

Gaplarni qayta tuzib, matnni yozing. Uyushiq bo'laklarning tagiga chizing. Qaysi bo'laklar uyushib kelganini ayting.



**50- mashq.** Matnni o'qing va ko'chiring. Gapda qaysi bo'laklar uyushib kelganini aniqlab, tagiga chizing.

1. Bog'imizga olma, olcha, behi kabi mevali daraxtlar o'tqazdik. 2. Quyosh, havo, tiniq suv bizning yaqin do'stimiz. 3. Quyosh yoritadi va isitadi. 4. Bulbullarning va sa'valarning yoqimli sayrashi kishiga zavq beradi.

**51- mashq.** Topishmoqlarni o'qib, ularning javobini toping.



1. Tog'da, bog'da yashaydi,  
Qishda, yozda yashnaydi.
2. U bahorda unadi,  
Yozda kuchga to'ladi.  
Kuzda pishib yetilib,  
Tog'-tog' xirmon bo'ladi.

**52- mashq.** She'rni o'qing, ko'chirib yozing.

Vatanim bog'larini,  
Ko'k o'par tog'larini,  
So'nmas chiroqlarini,  
Ko'zim bilan asrayman.

*Obid Rasul*

Uyushiq bo'laklarni aniqlab, tagiga chizing.



**53- mashq.** Chizmaga mos gaplar tuzing.

1. \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ .
2. \_\_\_\_\_ , \_\_\_\_\_ .
3. ~~~~~ va ~~~~~ .

## UYUSHIQ BO'LAKLARNING BOG'LANISHI

**54- mashq.** Gaplarni o'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang.

1. So'zni aniq, to'g'ri yozish,  
Bilag'onga emas tashvish. (*Obid Rasul*)
2. Uyda va ko'chada odobli bo'ling. 3. Men Yo'ldoshni ko'rdim, lekin so'zlasha olmadim. 4. Oy yoritadi, biroq isitmaydi. (*Maqol*)

Har bir uyushiq bo'laklarning qanday bog'langanini ayting. Uyushiq bo'laklarda qanday tinish belgilar qo'yilgan?

Uyushiq bo'laklar ohang yordamida hamda *va*, *ammo*, *lekin* so'zlari bilan ham bog'lanadi.

Uyushiq bo'laklar *va* yordamida bog'langanda vergul qo'yilmaydi. Ohang yoki *hamda*, *ammo*, *lekin* so'zlari yordamida bog'lansa, vergul qo'yiladi.

**55- mashq.** She'riy parchalarni o'qing va ko'chiring. Uyushiq bo'laklarning bog'lanishiga diqqat qiling.

1. Oq terakmi, ko'k terak,  
Har bir ishga qunt kerak.  
O'qishda va turmushda  
Mehnatsevar, bo'l ziyrak,  
Bizdan elga shu kerak.

*Tolib Yo'ldosh*

Maktabimiz bog'ida  
Mehnat qildik hammamiz.

Naq oltin kuz chog'ida  
Pishdi behi, olmamiz.

*Qambar O'tayev*

**56- mashq.** Matnni o'qing. Unga sarlavha toping.

Sahroda turli hayvonlar poda bo'lib yurishgan edi. Ular suv topolmay, tashnalikdan juda qiynalishdi. Quduq qazimoqchi bo'lishdi. Eng avval she'r ish boshladi. U tezda charchadi. Ikkinchi bo'lib fil ishga kirishdi. U ham tezda charchab qoldi. Navbat jirafaga, bo'riga va tulkiga keldi. Ko'p o'tmay ular ham holdan toyishdi. Oxiri ishga mitti ohu kirishdi. U ingichka oyoqlari bilan qaziy-qaziy oxiri suv chiqardi. Barcha hayvonlar xursand bo'ldi.

( „O'zbek xalq ertagi“dan)

Uyushiq bo'lakli gaplarni ko'chiring. Gapda qaysi bo'lak uyushib kelganini aniqlab, tagiga chizing.

Tinish belgilarining qo'llanishiga diqqat qiling.



**57- mashq.** Chizmani kuzating, unga mos gaplar tuzing.

1. ~~~~~, ~~~~~ = = = = = .
2. \_\_\_\_\_ ~~~~~ ba ~~~~~ = = = = = .
3. \_\_\_\_\_ ~~~~~ = = = = = , ammo = = = = = .

**58- mashq.** Matnni o'qing. Uyushiq bo'laklarni topib, tagiga chizing. Ular o'zaro qanday bog'langanini ayting.

1. Sog'lom, quvnoq bolaman,  
Mehnatdan zavq olaman.

*Qambar O'tayev*

2. Erkin, To'lqin kasb tanlar,  
Kasblar ma'nosin anglar.

*Quddus Muhammadiy*

**59- mashq.** Har bir qatordagi soʻzlardan foydalangan holda uyushiq boʻlakli gaplar tuzib yozing.

1. Oʻquvchi, ammo, tez, yozadi, Rahim, sekin.
2. Olma, gulladi, va, olcha, gilos, bogʻda.
3. Raʼnoxon, aytmaydi, ashula, chaladi, dutorni, yaxshi, biroq.

Uyushiq boʻlaklar qaysi soʻzlar bilan bogʻlangan?

**60- mashq.** Katakchalarga mos soʻzlar qoʻyib, gap tuzing va yozing.

1.      va     boʻling.

2.     va     Vatan bizniki.

Qoʻyish uchun soʻzlar: *bardam, kuchli, obod, ozod.*



**61- mashq.** Sheʼriy parchani oʻqing va koʻchirib yozing. Qaysi boʻlak uyushib kelganini aniqlab, tagiga chizing.

Bir bugʻdoy boshogʻi  
Hovuch-hovuch don.  
U menga va senga  
Shirin, totli non.

*Doʻstjon Matjon*

Uyushiq boʻlaklar oʻzaro qanday bogʻlangan?

**62- mashq.** Sheʼriy parchani oʻqing, yoddan yozing. Uyushiq boʻlaklarni toping. Qaysi boʻlak uyushib kelganini aniqlab, tagiga chizing.



Yashna, yuksal, diyorim,  
Sensan baxtim, bahorim.  
Madhing joʻshib kuylamoq  
Koʻnglimdagi shiorim.

*Mahmudjon Dadaboyev*

**63- mashq.** O‘qing. Qaysi bo‘laklar uyushib kelganini ayting.

1. Otabek og‘ir tabiatli, ko‘rkam va oq ko‘ngil yigit edi. (*Abdulla Qodiriy*) 2. Quyvon va sichqonlar bir kunda yigirma martagacha uxlaydilar. 3. Nozikkina, chiroyli bir kapalak bor ekan. U kun bo‘yi guldan-gulga qo‘narkan va sharbatlar yig‘arkan. („*G‘uncha*“dan) O‘zbekistonimiz o‘z ramzlariga: bayrog‘iga, gerbiga, madhiyasiga ega.

**64- mashq.** Chizmani kuzating, unga mos gap tuzib yozing.

Kompyuter ; Bug‘doy 



**65- mashq.** Matnni o‘qing. Uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga chizing.

Bo‘ron bulutga maqtandi:

— Sal dag‘dag‘a qilgandim, to‘zib ketding.

Bulut dedi:

— Qirlarda va adirlarda o‘sgan maysalarning chanqovini qondirmoqchi edim. Afsus, yaxshi ish qilmading. Sendan kuchsiz bo‘lsa ham beozor, mayin yel afzal.

### ***Bilimingizni tekshiring!***



- Uyushiq bo‘lak nima?
- Gapning qanday bo‘lagi uyushib keladi?
- Uyushiq bo‘laklar qaysi so‘zlar yordamida bog‘lanadi?
- Qay vaqtda uyushiq bo‘laklar orasiga vergul qo‘yiladi?

## **UNDALMA**

**66- mashq.** Ajratilgan so‘zlarni tushirib, gaplarni o‘qing. Ularning mazmunidagi farqni ayting.

**Bolajon,** sen doim suyuksan.

Bilib qo‘y: iqboli buyuksan!

*Abdulla Oripov*

**Bolam**, bobong yaratgan bog‘lar, bobong ekan tut hozir ham yashnab turibdi.

**Bobojon**, laylaklar qishlog‘imizga yana qaytib kelarmikan?



**Berilgan gaplarda fikr kimlarga qaratilgan? Murojaatni bildirgan so‘z qaysi turkumga kiradi?**

Undalma fikrning kimga qarata aytilganini bildiradi.  
Undalma ot bilan ifodalanadi.

Og‘zaki nutqda undalma undash ohangi bilan aytiladi.  
Yozuvda vergul yoki undov belgisi bilan ajratiladi.

**67- mashq.** O‘qing. Matn qanday gaplardan tuzilgan?

Bir kampirning shaharda yashaydigan o‘g‘li uyiga keldi.  
Shunda onasi sevinib:

— O‘g‘lim, senga ajoyib ovqatlar tayyorladim. Semizgina g‘oz go‘shim bor. Shirin, yog‘li quymog‘im bor. Yana quyuq qaymog‘im bor. Ko‘ngling qaysi birini xohlasa, shuni oldin beraman, — debdi.

O‘g‘li onasiga:

— Onajon, men g‘oz go‘shini quymoqqa o‘rab, uni qaymoqqa botirib yeyishga odatlanganman, — debdi.

*(Qayum Nosiriydan)*

Undalma ishtirok etgan gaplarni topib ko‘chiring.

Undalma gapning qaysi o‘rnida kelgan?



**Undalma fikrning qaysi shaxsga qaratilganini bildiradi?**



**68- mashq.** She‘rni o‘qing. She‘rda maqsadga ko‘ra qanday gaplar ishtirok etgan?

— Uyga kirgin, Baxtiyor,  
Kech bo‘ldi-ku, jon bolam!

— Hozir, aya, men bilan  
O‘ynayapti Hikmat ham.

Kuzatmasam bo‘lmaydi,  
Qo‘rqar uyga borgani.  
— Sen-chi, sen qo‘rqmaysanmi,  
Yolg‘iz o‘zing yurgani?...

*Orif To‘xtashev*

Undalma ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Undalmalar gapning qaysi o‘rnida kelgan?



Undalmalar gapning qaysi o‘rnida keladi?

**69- mashq.** Matnni o‘qing.

- Zaynab opaning uylari shumi? — so‘radi Tolibjon.
- Shu, keling, tog‘a.
- Kim bilan gaplashyapsan, bolam?

Bu ovoz Tolibjonga tanish edi. Tolibjon yugurib borib, kampirning bo‘ynidan quchdi.

— Kimsan, bolam? Hiding dimog‘imga tanish. Tolibjon-ginamning hidiga o‘xshayapti.

Kampirning ko‘zi ojiz edi.

Tolibjon o‘pkasi to‘lib, yig‘lab yubordi.

Kampir uning boshini silab:

- Qayoqlarda yurgan eding, bolaginam?

*(Said Ahmaddan)*

Undalmali gaplarni ko‘chiring. Tinish belgilarining qo‘yilishiga e‘tibor bering.

*Ojiz* so‘zi qanday ma‘noda qo‘llangan.

**70- mashq.** She‘riy parchalarni ifodali o‘qing.

1. Navbahor, ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar.

Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtoqlar.

*Muqimiy*

2. Lekin, yurtim, kezoimas g'anim  
O'zbekiston atalgan bog'da.  
Sen-ku nomus va sha'nim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

*Abdulla Oripov*

3. Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar ona-yurt, mangu bo'l obod!

Ko'chiring. Undalmalarni topib, tagiga chizing.  
Ustiga so'z turkumini yozing.



**71- mashq.** Gaplarni o'qing. Ularga undalmalar qo'shib yozing.  
Yozganingizni tekshiring. Undalmali gaplar maqsadga ko'ra qanday gap ekanini ayting?

- \_\_\_\_\_, Farhod juda qo'rqqoq ekan, — dedi Rustam.  
— Nega, nima qildi, jonim? — so'radi onasi.  
— Qishlog'imiz bog'idagi olmadan olmoqchi edik.  
Farhod qorovul ko'rib qoladi deb, uyiga ketdi.  
— \_\_\_\_\_, Farhod hammangizdan zo'r ekan, — dedi oyisi.

*Muhabbat Hamidova*

Rustamning oyisi nima uchun bunday dedi?

**72- mashq.** O'quvchilar, ustoz, aka, buvi so'zlarini undalma vazifasida qo'llab, gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringiz maqsadga ko'ra qanday gap?



Undalmalar qaysi gaplar bilan qo'llangan?

**73- mashq.** Matnni o'qing. Matnga sarlavha toping.

- Bobojon, men kaklikni Toshkentga olib ketsam maylimi? U Toshkentda zerikmaydi.  
— Bilmadim, bolam. Kaklik salqin tog' havosiga o'rgangan.  
Akram kaklikni uyiga olib keldi va dadasidan so'radi:  
— Dadajon, kaklik nega sayramayapti?



— Akram, unga tabiat va toza havo kerak. Qushlar qafasda sayramay qo‘yadi, — dedi dadasi.

Akram qafas og‘zini ochdi. Kaklik „qiyq“ deb qafasdan chiqdi va uchib ketdi. („*Gulxan*“dan)

Undalmali gaplarni ko‘chirib, undalmaning tagiga chizing.

Undalmalarni tushirib o‘qing. Qanday o‘zgarish bo‘ldi?

Undalmalar ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gaplar bilan kelgan?

*Toza* so‘zini qaysi so‘z bilan almashtirish mumkin?



**74- mashq.** She‘rni yoddan yozing.

Kuzimizning go‘zalligin,  
Og‘aynilar, ko‘rganmisiz?  
Tokdan husayni, yerdan qirqma,  
Shoxdan behi uzganmisiz?

*Quddus Muhammadiy*

Undalmani topib, tagiga chizing. Qavsda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turini ko‘rsating.

**75- mashq.** She‘rni ifodali o‘qing.

|                             |                                 |
|-----------------------------|---------------------------------|
| — Dada, quyosh dumalab,     | Oq bulut, oppoq bulut,          |
| Tog‘ boshiga yotibdi,       | <b>Tog‘ bag‘riga oq, bulut.</b> |
| <b>Yiqilibdi, shekilli,</b> | Oq oltinni terguncha            |
| <b>Burni qonab ketibdi.</b> | Endi kamroq yog‘, bulut.        |

*Tursunboy Adashboyev*

She‘rni ko‘chiring. Undalmani topib, tagiga chizing. Fikr kim yoki nimaga qaratilganini ayting.



Fikr shaxsdan tashqari yana nimalarga qaratilishi mumkin?

Ajratilgan gapning ma‘nosini tushuntiring.

She‘rda qaysi so‘zlar ko‘chma ma‘noda qo‘llangan?

**76- mashq.** Matnni o‘qing. Undalmali gaplarni ko‘chiring, undalmalarning tagiga chizib, kim yoki nimaga qaratilganini qavsda ko‘rsating.

Yoz bo‘yi qishloqda dam oldim. Qishloqda yangi hayotni ko‘rdim, o‘rgandim. Odamlar u yerda katta boylik yaratar ekanlar. Mehnat, mehnatning tagi rohat deganlari bejiz emas ekan.

— Dada, qishloqni jonimdan yaxshi ko‘rib qoldim.

— O‘g‘lim, qishloqning tabiati, oqko‘ngil odamlari seni rom etgan.

Biz mashinaga chiqdik.

— Xayr, aziz qishlog‘im, — dedim derazadan qo‘l silkib.

*(Shukur Sa‘dulladan)*

O‘zingiz ham qishlog‘ingiz yoki shahringiz tabiati va odamlariga qaratilgan undalmali gaplar tuzib yozing.



**77- mashq.** Matnni o‘qing. Matn nima haqida ekan?

— Bolalar, siz Mustaqillik binosining hayotbaxsh kuchlari, ustunlarisiz. Ustunlar **baquvvat** bo‘lishi kerak. Ayting-chi, ustunchalar, yaxshi bilan yomonni ajratish uchun nima qilish kerak?

— Bobojon, ko‘p kitob o‘qish kerak.

— Bolajonlarim, eng yaxshi kitobxon kim?

— Ko‘p kitob o‘qigan bola.

— Yo‘q, nabiralarim. Kitoblardagi fikr — ma‘noni yaxshi uqib, o‘z boyliklariga aylantirgan **odam**. *(Hakim Nazirdan)*

Undalmali gaplarni ko‘chiring. Vergulning qo‘yilishini tushuntiring.

*O‘qish va uqish* so‘zlarining ma‘nosini bilib oldingizmi?

Ajratilgan so‘zlarga ma‘nodosh so‘zlar toping.

**78- mashq.** Chiziqchalar o‘rniga gap mazmuniga mos undalma qo‘yib yozing. Undalmadan so‘ng zarur tinish belgisini qo‘yishni unutmang.

1 \_\_\_\_\_ inson bir umr ilmini oshira borishi lozim. 2. \_\_\_\_\_ kitob siz uchun butun umr yagona sadoqatli do‘st bo‘lib

qoladi. 3. \_\_\_\_\_ o‘qing, o‘rganing, fikr qiling va hammasidan o‘zingizga foydali tomonlarini tanlab oling. 4. \_\_\_\_\_ siz sport, mehnat bilan o‘rtoq bo‘ling va kun tartibiga rioya qiling.

Undalmalar kimlarga qaratilgan?

Ular maqsadga ko‘ra qanday gaplar tarkibida keldi?

**79- mashq.** She‘rni ifodali o‘qing.

Paxtaoy, hoy paxtaoy!  
Dalalarning oq qizi.  
Tolalari to‘lin oy,  
**Har chanog‘i yulduzi.**

*Nazarmat*

Ko‘chiring. Undalmani topib, tagiga chizing.



**Bir gapda undalma takror qo‘llanishi mumkinmi?**



**80- mashq.** O‘qing. Husnixat bilan ko‘chiring. Gaplarning maqsadga ko‘ra turini ayting.

Quyosh baland-baland daraxtlar ortiga berkindi. Atrofni qorong‘ulik qopladi. Onasining qanoti ostidagi Chumchuqcha so‘radi:

— Ayajon, Oftoboy yaxshimi?

— Bolajonim, Oftoboy saxiy. U erta tongda tog‘larning orqasidan mo‘ralaydi. „Kim uyg‘ondi, kim uyg‘onmadi?“ — deb so‘raydi Oftoboy.

— Hamma uyg‘ondi, — deb qushlar sayrashadi.

Bundan Oftoboyning mehri ortadi. U yerdan haroratini ayamaydi.


*(Softiya Fayziyevadan)*

Gap bo‘laklarini aniqlab, tagiga chizing.

Undalmalarning kim yoki nimaga qaratilganini ayting.

**Saxiy** so‘ziga ma‘nodosh so‘z toping.

## *Bilimingizni tekshiring!*



- Fikr kim yoki nimalarga qaratiladi?
- Fikrning kimga qaratilganini bildirgan so‘z qanday nomlanadi?
- Undalmalar gapdan qaysi tinish belgisi bilan ajratiladi.
- Undalmalar gapning qaysi o‘rinlarida keladi?

**81- mashq.** „Kuzda“ mavzusida insho yozish uchun tayyorlaning.

Insho uchun material to‘plashda quyidagilarga e’tibor bering.

1. Ob-havodagi o‘zgarishlar.
2. Tabiatdagi o‘zgarishlar.
3. Kuzda dehqon va bog‘bonlarning yumushlari.

## **NUTQ. MATN**

**82- mashq.** Rasmni kuzating.



Rasm asosida uch-to‘rtta gapli hikoya tuzing. Hikoyangizga sarlavha qo‘ying.



Rasm asosida tuzgan hikoyangiz nima deyiladi?

**83- mashq.** She'riy matnni o'qing. U nima haqida?

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,  
Bu nihol nomini „Yaxshilik“ ata.  
Niholning yoniga bir gul ekib qo'y,  
Bu gulning nomini „Go'zallik“ deb qo'y.  
Gul-u niholingga baxsh etib hayot,  
Suv ber va bu suvga „Mehr“ deb ot qo'y.

*Erkin Vohidov*

Siz kelgusida Vataningiz ravnaqiga qanday hissa qo'shmoqchisiz?  
Fikringizni uch-to'rtta gap bilan ifoda qiling va yozing.



**Nutq necha xil shaklda ifodalanadi?**

**Nutq** gap orqali ifodalanadi. U bir yoki o'zaro mazmunan bog'langan bir necha gaplardan tuziladi.  
**Nutq** og'zaki va yozma shaklda bo'ladi.

**84- mashq.** O'qing. Nutq nechta gapdan iboratligini ayting.

### KENJA BOTIR

Afandining ikkita o'g'li bor edi. Boy ulardan birining uyida ishlab berishini talab qildi.

— Qaysi biring borasan? — deb so'radi ota o'g'illaridan.

Kenja o'g'il shunday deb javob berdi:

— Agar akam borsa, men uyda qolaman. Mabodo, men uyda qolsam, akam borar.

*Abdumalik Isomiddin*



**Boynikiga ishlashga kim bordi? Javobingizni yozing.**



**85- mashq.** „Bizning oilamiz“ mavzusida hikoya tuzing va yozing.  
Hikoyangiz nimalardan tuzildi? Siz fikringizni qay shaklda bayon qildingiz? Hikoyada gapning maqsadga ko'ra qaysi turlari qatnashdi?

## 86- mashq. O'qing.

1. Isiriq Sharq va O'rta Osiyoda ishonchli dori-darmon bo'lib kelgan. (*M. Nabiyev*)
2. Savolni o'z vaqtida, o'z o'rnida berishni o'rganing.
3. Ko'm-ko'k bo'lib turgan yaproqlar kuzda nega sarg'ayib qoladi? (*„Gulxan“dan*)

Samarqanddagi Registon ansambli uchta salobatli binodan tashkil topgan. Bular: Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalaridir.

Ulug'bek madrasasi 1471-yili barpo etilgan. Madrasada diniy ilmdan tashqari, turli dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Bu yer Ulug'bek davrida ilm-fanning markazi bo'lgan. Madrasada Ulug'bekning o'zi ham dars bergan. (*„Gulxan“dan*)

Chap va o'ng tomondagi fikrlarni taqqoslang. Qaysi ustunda matn berilgan? Nima uchun uni matn deb hisoblaysiz?



## Matn nutqning qanday shakli?

**87- mashq.** Matnni o'qing. U o'zaro qanday bog'langan gaplardan tuzilgan?

## FUTBOL O'YINI TARIXIDAN

18- asrlarda futbol o'yini keng tus oldi. Ba'zan o'yinda har bir tomondan besh yuz kishi maydonga tushardi. To'pni shahar bo'ylab ma'lum bir joyga birinchi eltgan komanda g'olib sanalardi. Qo'y terisidan tikilib, ichiga latta-puttalar to'ldirilgan to'p tepilardi.

Futbolni ingliz qirollari ko'p marta taqiqlaganlar, lekin o'yin davom etaverardi.

19- asrda futbol sport turiga kiritildi va o'n uchta o'yin qoidasi ishlab chiqildi.

Matnni nechta qismga ajratish mumkin? Matnga reja tuzing. Rejangiz asosida matnni qayta hikoyalang.

**Matn** nutqning yozma shaklidir.

**Matn** mazmunan o'zaro bog'langan gaplardan tuziladi.

**Matnni** qismlarga bo'lish, unga sarlavha qo'yish, reja tuzish mumkin.

**88- mashq.** O'qing. Gaplarni o'z o'rniga qo'yib, matn tuzing va sarlavha qo'yib yozing.

Yoz fasli bo'lganligidan har yerda suvlar quribdi. Bechora Qarg'a suv yo'qligidan nihoyatda qiynalibdi. Tillari osilib, har tarafdin suv axtaribdi. Nogoh ko'zani ko'rib qoldi. Yoniga kelib boqsa, ichida suvi bor. Oz vaqt ichida ko'zaning ostidagi suv ustiga chiqib, tosha boshladi. Aqlli qarg'a suvdan ichib, uchib ketdi. Lekin bo'ynini suqib, ichay desa, bo'yi yetmaydi. Biroz o'yladi-da, tumshug'i bilan toshlarni yig'ib, ko'zanchaning ichiga tashlay boshladi...

(Abdulla Avloniydan)

Yozganingizni tekshiring.



**Matnda** gaplar qanday joylashadi?



**89- mashq.** O'qing. Ertak mazmuniga bog'lanmagan gaplarni aniqlang. Ularni tushirib qoldirib, qayta o'qing va yozing. Ertakka „Usta Teshaboy“, „Teshaboy va uning uch o'g'li“ sarlavhalaridan mosini qo'ying.

Qadim zamonda Teshaboy degan usta o'tgan ekan. Usta yog'ochlardan chiroyli buyumlar yasas ekan.

Teshaboyning uch o'g'li voyaga yetibdi. Bir kuni u o'g'illariga biror buyum yasashga yaramaydigan yog'och keltirishlarini buyuribdi. Biz kitob o'qish uchun kutubxonaga bordik.

Katta o'g'li bug'uning tumshug'iga o'xshash qurigan shox keltiribdi. Teshaboy undan omoch yasabdi.

O‘rtanCHA o‘g‘li yo‘g‘onligi bilakdek keladigan yog‘och keltiribdi. Teshaboy undan otiga bo‘yinturuq yasabdi. Futbol o‘yini qiziqarli o‘tdi.

Kenja o‘g‘li butun terakzorni kezib, keraksiz yog‘och topolmabdi. Uyga quruq qaytibdi. Shunda Teshaboy kenja o‘g‘lidan haqiqiy usta chiqishini aytibdi.

(„O‘zbek xalq ertagi“dan)



**omoch** — hayvonga qo‘shib, yer haydaydigan asbob

90- mashq. Matnni o‘qing. Rasmni kuzating.



## KUZ

G‘ir-g‘ir shamol yeladi,  
Buni hamma biladi.  
O‘giradi yelga yuz:  
— Marhamat! Kel, oltin kuz!

Maktab borar qiz-o‘g‘il,  
Qo‘lda kitob hamda gul.  
Oltin oqar daladan,  
Tong yorishgan palladan.



Quyosh tushar taftidan,  
Qo‘rqib qishning aftidan.  
Sarg‘ayadi ko‘katlar,

Barg to‘kadi daraxtlar.  
Hosil yig‘ib olinar,  
Qishga zamin solinar.

*Shukur Sa‘dulla*

O‘zingiz yashab turgan shahar, qishlog‘ingizdagi kuz ko‘rinishini tasvirlab, „Kuzda“ sarlavhali insho yozing.

Mavzuni yoritishda „Kuz“ she‘ridan, rasmdan, kuzatishlaringiz asosida to‘plagan materiallaringizdan foydalaning. Reja asosida fikringizni bayon qiling.

Reja

1. Kuzda ob-havo.
2. Kuzda tabiat ko‘rinishi.
3. Kuzgi ishlar.

***Bilimingizni tekshiring!***



- Nutq nima? Nutqning qanday shakllari bor?
- Nutqning yozma shakli nima deb nomlanadi?
- Matn qanday gaplardan tuziladi?
- Matnni nimalarga bo‘lish mumkin?
- Matnga nima qo‘yiladi?

## TOVUSHLAR VA HARFLAR

**91- mashq.** She‘mi ifodali o‘qing. Shoir she‘mi nima haqida yozgan?

**Vatanni** sev, tuprog‘ini o‘p:  
Har **qarichi muqaddas** bizga.  
Cho‘lidagi hatto quruq cho‘p  
Jondan aziz yuragimizga.

*Oybek*

Ajratilgan so‘zlarda nechta tovush bor?  
Ular nechta harf bilan yozilgan?



O‘zbek tilida nechta tovush bor?  
Tovushlarni yozuvda nima bilan ifodalaysiz?  
Tildagi tovushlar nechta harf bilan ifodalanadi?

**92- mashq.** O‘qing. Ko‘chiring. So‘z ma’nolarini farqlayotgan tovushlarning tagiga chizing. So‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

1. Mard—mart, yod—yot, sop—sof.
2. Shoh—shox, xush—hush, uxladi—uhladi.
3. Asr—asir, asl—asil.

So‘zlarning aytilishi va yozilishini taqqoslang. Qaysi tovushlarning aytilishi yozilishiga mos kelmaydi? Nima uchun? O‘ylab ko‘ring.

**93- mashq.** O‘qing. So‘zlarning aytilishi va yozilishini taqqoslang.

1. Havo, baho, Kamol, Shavkat, bahor, shavla, davlat.
2. Kitob, oftob, choyshab, maktub, ozod, avlod, ajdod.
3. Chumchuq, supurgi, tutun, tuxum, kumush, qulupnay.

Ko‘chiring. Tekshiring. So‘zlarning yozilishini esda tuting.



**Bu so‘zlarni qanday talaffuz qilish kerak?**



**94- mashq.** So‘zlarni o‘qing. Ularda nechta tovush va harf borligini ayting.

Oila, radio, teatr, manfaat, kakao, mutolaa, sharbat, harf, tong, shisha, chavandoz, manfaat.

Ko‘chiring. So‘zlarning yozilishini yodingizda tuting.

So‘zlarning aytilishi va yozilishida farq bormi?

**Manfaat** so‘ziga ma’nodosh so‘zlar toping.

**95- mashq.** Topishmoqni o‘qing, javobini toping. Unli va undosh tovushlarni aniqlang.



Bir narsa bor ko‘p asl,  
Seni etar mustaqil.  
U ilmingni boyitar,  
Kamroq bo‘lsa koyitar,

O'zingda ham bordir bil,  
Boshingdagi bu    .

Ko'chiring. Unli tovushlarning tagiga chizing. Unli va undosh tovushlarning farqini ayting.

**96- mashq.** O'qing. Ko'chiring. Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni aniqlang. Ularning talaffuzini qiyoslang, farqini ayting.

Bir kuni oltin baliq va bulbul bahslashishibdi:

Bulbul debdi: — Qani endi, senga o'xshab baliq bo'lib qolsam. Xursand bo'lib, katta suvda suzardim.

Baliq debdi: Nodon ekansan, sening joying osmonda, bog'lar va gullar orasida. Sen ozod bo'lishing kerak.

Qani endi men ham senga o'xshab ucha olsam, sayrasam...



**97- mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib ko'chiring.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Dunyoda juda quvno. bir bola bor ekan. Bobosini xom.sh ko'rgan bola:

— Tinchlikmi, bobojon? — deb so'rabdi.

— To'g'onni suv urib ket.i. Endi bog'-rog'lar quriydi. Qishlo. ilon va chayonlar makoniga aylanadi, — debdi chol kuyini. .

Ota va bola daryo bo'yiga o'tiri. ko'p o'yla.di. Keyin kerak-siz arava g'ildiragiga ko'zachalar bog'la., char.palak yasabdi. Chol xursan. bo'libdi.

„Harakatda baraka., undan qochar .alokat“, — debdi bobo.

*Akbar Yunusov*

Jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni aniqlang. Ularning aytilishi bilan yozilishini qiyoslang.



**Matndagi qaysi so'zlarni yozishda xatoga yo'l qo'yishingiz mumkin? Nima uchun?**

**98- mashq.** Maqollarni o'qing, ma'nosini izohlang. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning aytilishi va yozilishini taqqoslang.

1. Yolg'onchining **rost** so'zi ham yolg'on.
2. Odobli **farzand** — oila ko'rki.
3. **Do'st** so'zini tashlama,  
Tashlab boshing qashlama.
4. Hunari va odobi bo'lmagan kishidan **baxt** va davlat ketadi.

Ko'chiring. *Rost, farzand* so'zlariga yaqin ma'noli so'zlar toping.



**So'z oxiridagi qaysi undosh tovushlar talaffuzda tushib qoladi?**

**99- mashq.** Rasmni kuzating. Berilgan so'zlar ishtirokida hikoyacha tuzing.



Munavvar, Qahhor, do'ppi, trolleybus, hasa, minnatdorchilik bildirdi, Izzat bobo.

Yonma-yon kelgan bir xil tovushli so'zlarning talaffuzi va yozilishini taqqoslang. Tuzgan hikoyangizni yozing. Yonma-yon kelgan bir xil tovushli so'zlarning tagiga chizing. Yozilishini yodingizda tuting.

**100- mashq.** Yonma-yon kelgan tovushlardan birini tushirib o‘qing. So‘z ma’nolaridagi o‘zgarishni tushuntiring.

Qattiq—qatiq, tilla—tila, cho‘qqi—cho‘qi, mashshoq—mashoq, silla—sila.

So‘zlarning yozilishini yodingizda tuting.



**101- mashq.** O‘qing. Ko‘chiring. So‘zlarning yozilishini yodda tuting.

Novvot, hassa, hissa, izzat, lo‘ppi, jarroh, labbay, achchiq, sakkiz, gramm, jajji, naqqosh, pilla, muattar.

Shu so‘zlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzib yozing. Yonma-yon kelgan bir xil undoshlarning jarangli yoki jarangsiz ekanini ayting.

**102- mashq.** O‘qing. Yoddan yozishga tayyorlaning.

Assalom, Quyosh bobo,  
Uyqungiz tinch o‘tdimi?  
Ko‘rinmaydi Oymomo,  
Uxlagani ketdimi?

*Hamza Imonberdiyev*

Bog‘imiz do‘stlik bog‘i,  
Oftob kabi quchog‘i.  
Tongdan yashnab ketadi,  
Hamma yayrab ketadi.

*Abdulgay Nosirov*


She’rni yoddan yozing. Matndagi harflar birikmalarini aniqlab, tagiga chizing. Ularning jarangli yoki jarangsiz tovush ekanini ayting.

**103- mashq.** O‘qing. Ikki xil tovushni ifodalash uchun qo‘llangan harfni ayting.

Jadval, jahon, jeton, jayron, jirafa, jurnal, ijizat, tarjimon, jajji.

So‘zlarni talaffuziga ko‘ra ikki ustunga ajratib yozing.

104- mashq. Rasm diktant. Qushlarning nomini yozing.



Yozgan so‘zlaringizni lug‘atdan tekshiring.

Qaysi so‘zlar faqat jarangli undoshlardan, qaysi so‘zlar faqat jarangsiz undoshlardan tuzilgan? *Qaldirg‘och* so‘zini tahlil qiling.

*Tovush-harf tahlili tartibi:*

1. *Zag‘cha* — 5 ta tovush, 4 ta harf, 1 ta harf birikmasi.

Unli tovushlar: **a, a**

Undosh tovushlar: **z, g‘, ch**

Jarangli undoshlar: **z, g‘**

Jarangsiz undoshlar: **ch**



105- mashq. Hikoyani o‘qing. Unga sarlavha toping. Matnda nechta gap bor? Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turini ayting.

Ushoq polvon (chumoli)lar quyoshni juda yaxshi ko‘rishadi. Ular qor, yomg‘ir, sovuqni yomon ko‘rishadi.

Bugun ertalab uyalari eshigi **quyosh** nuridan yorishdi. Ular shod-u xurramlik bilan **jamo**a yig'ilishini o'tkazishyapti. Yig'ilishda qishga oziq-ovqat jamg'arish masalasi ko'rildi. Ota-onalar ishchilarga hozirgi **serne'mat** kunlarni boy bermaslikni uqtirishdi. Shundan keyin hamma ish-ishiga tarqalib ketdi.

*Rahim Bekniyoz*

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni tovush-harf tomondan tahlil qiling. Chumolilar hayoti kimlarning hayotiga o'xshaydi? Nima uchun?



**boy bermaslik** — yutqazmaslik

***Bilimingizni tekshiring!***



- O'zbek tilida nechta tovush bor?
- Tovushlar yozuvda nechta harf bilan ifodalanadi?
- Tovushlarni nima uchun ikki turga bo'lamiz?
- Unlilar yakka o'zi so'z hosil qiladimi? Undoshlar-chi?
- Jarangli va jarangsiz undoshlarni qanday farqlaysiz?
- So'zda unli tovush ko'p qo'llanadimi yoki undosh tovush?
- Undoshdan unlisi ko'p bo'lgan so'zlarni bilasizmi?

## **BO'G'IN**

**106- mashq.** Hikmatni o'qing. Hikmat nechta gapdan tuzilgan?

Farzand guldir. Ona bir bo'ston,  
Ona bilan olam guliston.

Yaxshining so'zi qaymoq,  
Yomonning so'zi to'qmoq.

Gaplardagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib yozing. Har bir bo'g'inning nechta tovushdan tuzilganini ayting.



So'z nimalardan tuziladi?

Qaysi tovush bo'g'in hosil qiladi?

So'zning necha bo'g'inli ekanini qanday aniqlaysiz?

**107- mashq.** Hikmatli gapni o‘qing, ma’nosini izohlang.

Til shirinligi ko‘ngilga yoqimlidir.

Muloyimligi esa foydalidir.

*Alisher Navoiy*

Har bir so‘zni bo‘g‘inlab ko‘chirishga ko‘ra bo‘lib yozing.

Qaysi so‘zlar bo‘g‘inlab ko‘chirishga ko‘ra bo‘linmaydi?

*Ko‘ngilga* so‘zining bo‘g‘in ko‘chirishga ko‘ra bo‘linishini tushuntirib bering.

**108- mashq.** Matnni o‘qing.

Bir **podshoning ikkita** shoiri bor ekan. Bir kuni ikkala shoir she‘r aytishibdi. Birinchi shoir yaxshilik qilgan **yaxshilikka** yetadi, debdi. Ikkinchi shoir esa yomonlik qilma, yomon bo‘lib qolasan, deb she‘r **o‘qibdi**.

Shunda podsho birinchi shoirga 1000 **tanga**, ikkinchi shoirga 500 tanga **in‘om** qilibdi.

Vazirlar **hayron** bo‘lishibdi:

— Shohim, ikkala shoir ham bir xil mavzuda she‘r aytdi. Nechun ularni ikki xil baholadingiz?

*Nazira Jo‘rayeva*

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inlab ko‘chirish qoidasiga mos holda bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing.



**in‘om** — sovg‘a, hadya

**tanga** — 15, 20 tiyinga teng kumush pul

**Shoh shoirlarni nima uchun ikki xil baholadi?**



**109- mashq.** Topishmoqni ifodali o‘qing va javobini toping. Har bir so‘z necha bo‘g‘indan tuzilganini ayting.



Bir jonivor bor dunyoda

**Yashar** dengiz, daryoda.

**Ochiq** havoda birpas

**Ololmaydi** hech nafas.



Qush emas, bor qanoti,

Judayam **oson oti.**

Ayting, **bilsangiz aniq**

— Uning nomi-chi       .

*Po'lat Mo'min*

Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni bo'g'in ko'chirishga ko'ra bo'laklarga bo'lib yozing.

**110- mashq.** So'zlarni o'qing. Yozilishini yodingizda tuting.

ko'ngil

ko'nglim

singil

singlim

tong

tongi, tonggi

So'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'laklarga bo'lib yozing.

*Tongi — tonggi* so'zlarining ma'nosini tushuntiring. (*Mustaqillik tongi, tonggi shabada.*)

**111- mashq.** Matnni o'qing. Matnda nima haqida hikoya qilinadi? Matn nechta gapdan tuzilgan?

### ISTIROHAT BOG'I

Qadimgi davrda odamlar o'z turar joylari yaqinida sabzavotlar yetishtirishgan. Mevali **daraxtlar** o'stirishgan. Dorivor **o'simliklar ekishgan.**

Davr **o'tishi** bilan **gullar** eka boshlashgan. Bu istirohat bog'ining eng qadimgi ko'rinishi edi.

Dastlabki istirohat bog'lari **hukmdorlar, ularning** yaqinlari uchun barpo etilgan.

Bobilda **ayol** podsho Semiramidaning **samoviy** bog'i bo'lgan. U dunyoning **yetti** mo'jizasidan biridir.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chirish qoidasiga mos holda bo'laklarga bo'lib yozing. Qaysi so'zlar jarangli va jarangsiz undosh tovushlardan tuzilgan?

*Istirohat, barpo etilgan, samoviy* so'zlarining ma'nosini tushuntiring.

*Samo* so'ziga ma'nodosh so'zlar toping.

112- mashq. Rasm diktant.



O'zbekiston gul-chaman,  
Men gullarni quchaman.



Gul nomlarini bo'g'in ko'chirish qoidasiga mos holda bo'g'inlarga ajratib yozing.



113- mashq. „Charxpalak“ she'rini ifodali o'qing.

Azim daryo, soy bo'ylari  
Manzilgohing, **charxpalak**.  
Suv **taratib** qir, adirga  
Yoyding yashil gul — palak.

El-u yurtim **boyligiga**  
Boylik qo'shgan charxpalak.  
Daryo, anhor, **soylarga**  
Chiroy qo'shgan, charxpalak.

*Tohir Mullaboyev*

She'rni ko'chiring. Ajratilgan so'zlarni ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'g'inlarga ajratib yozing.

*Yoyding* so'zi qanday ma'noda qo'llangan?



**azim** — katta, ulkan

**114- mashq.** She'rni ifodali o'qing. She'r kimlar haqida ekanini ayting.

Qiyos etgim keladi ustozlarni quyoshga,  
O'z **mehring** nurini baxsh **etadi** har yoshga.  
Ustoz yo'li porloqdir, ustoz yo'li yorug'dir,  
Ustoz **ko'ngli** xazina, **saxovatga** to'liqdir.

*Po'lat Mo'min*

Ajratilgan so'zlarni ko'chirish qoidasiga ko'ra bo'g'inlarga bo'lib yozing. Ustozlar haqida yod bilgan she'rlaringizdan ayting.

**115- mashq.** So'zlarni to'g'ri talaffuz qilib, she'rni o'qing. Tutuq belgisiga ko'ra farqlanayotgan so'zlarni toping.

Sa'va desa, savalama,  
Ma'nosi boshqa-boshqa.  
Da'vo dardga davo bo'lmas,  
Ta'na tana emas, oshna.

*S. Hojiboyev*

Ko'chiring. Shoir she'r orqali nima demoqchiligini ayting.



**Tutuq belgisi so'zda qanday vazifa bajargan?**

Ba'zi so'zlarda tutuq belgisi so'z ma'nosini farqlaydi.

**116- mashq.** O'qing. So'zlarni to'g'ri talaffuz qiling va ko'chiring.

1. Ra'no, ma'no, a'lo, she'r, ta'na, sa'va, e'lon, ta'til, ta'm, ta'zim, na'matak.
2. Sur'at, san'at, qal'a, mash'al, qit'a, in'om.

So'zlarning yozilishini yodda tuting.

So'zlarda tutuq belgisi qaysi tovushlardan so'ng kelayotganini ayting.

So'zlarning to'g'ri talaffuzini tushuntiring.

Qaysi so'zlarda tutuq belgisini tushirib qoldirsak, ma'no o'zgaradi?



**117- mashq.** She'ni ifodali o'qing.

Mir Alisher na'rasiga  
Aks sado berdi jahon.  
She'riyat mulkida bo'ldi  
Shoh-u sulton, o'zbekim.

*Erkin Vohidov*

She'rning mazmunini tushuntiring.  
Ko'chiring. Tutuq belgisi so'zlarni ko'chirish qoidasiga mos holda bo'g'inlarga bo'lib yozing.



**na'ra** — vahimali, qattiq ovoz

**118- mashq.** O'qing. Bu parcha shoirning qaysi she'ridan olinganini ayting.

O'g'il bola pahlavon,  
Kuchga to'la, zo'r bo'lsin,  
Marddek tursin maydonda,  
Yuragida qo'r bo'lsin.

*Miraziz A'zam*

She'rni yoddan yozing.  
Faqat jarangli undoshlardan tuzilgan so'zlarni bo'g'inlarga bo'ling.

**119- mashq.** Boshqotirmanini yeching. Berilgan so'zlarni katakchalarga tartib bilan joylang. Har bir so'zning ta'rifini ayting.



tovush  
unli  
undosh  
jarangli  
jarangsiz

120- **mashq.** Ertakni o‘qing.

### XO‘ROZBEK VA OFTOBOYIM

**Xo‘rozbek** Oftoboyim mening **ovozimni** eshitib uyg‘onadi, deb o‘ylardi. Bir kuni xo‘roz soyga yiqilib tushibdi.

O‘rdak va uning bolalari xo‘rozni qutqarishibdi. Bechora xo‘roz shamollab qolibdi. Bir necha kun ko‘rpa-to‘shak qilib yotibdi. Bir kuni ertalab uyqudan turib derazadan qarabdi. Oftoboyim nurlari bilan **olamni** charog‘on qilib turganini ko‘ribdi. Xo‘roz hayron bo‘lib qolibdi...

( „Ertak“dan)

Ko‘chiring.

Ajratilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘g‘inlarga bo‘lib yozing.

Jarangli va jarangsiz undoshlarni ayting.

Xo‘roz nega hayron qolibdi? Fikringizni ayting.



121- **mashq.** She‘rni ifodali o‘qing.

Temur bobom otlarin minib,  
Nigoh tashlab turar quyoshga.  
Bag‘rin ochib saxiy quyosh ham,  
Nurlarini sochar bobomga.

Ardoqlashib bir-birlarini  
Qo‘l ushlab, kulib qarashar.  
Ikki quyosh topishgan joyning  
Odamlari baxtiyor yashar.

*Yo‘ldosh Sulaymon*

She‘rni ko‘chiring.

Faqat jarangli va jarangsiz undoshlar qatnashgan so‘zlarni ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘g‘inlarga ajratib yozing.

*Nigoh tashlab, kulib qarashar* iboralarining ma‘nosini tushuntiring.

Amir Temur haykali qayerlarga o‘rnatilgan?

## ALIFBO

**122- mashq.** O'qing. Berilgan so'zlardan lug'atcha tuzib yozing.

Asbob, maqsad, haykal, sahifa, iqtisod, va'da, foyda, xulq.

Lug'atcha tuzishda nimaga e'tibor berdingiz?

So'zlarning yozilishini yodda tuting.

*Sahifa, iqtisod* so'zlariga ma'nodosh so'zlar toping.

**123- mashq.** Sinfingizdagi o'g'il va qiz bolalarning ismidan lug'atcha tuzib yozing.

Ismlar qanday harf bilan yoziladi?

Ismingizning ma'nosini bilasizmi?

**124- mashq.** She'rni ifodali o'qing.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.  
Tun-kuningga aylagali nurposh,  
Birisin oy ayla, birisin quyosh.  
So'zlaridan chekma qalam tashqari,  
Xatlaridan qo'yma qadam tashqari.

*Alisher Navoiy*

Hikmatdagi ma'nosi tushunarsiz so'zlarning lug'atini tuzing.  
So'zlarning ma'nosini o'qituvchingizdan bilib oling.



**125- mashq.** O'qing. Matnda nechta gap borligini aniqlang.

### TIPRATIKAN

Men tikanlarim bilan uyimga olma, qo'ziqorinlarni tashiyman. Ignam bilan yaproqlarni sanchib to'playman. Uning orasida tinchgina uxlayman. Bo'rini, ayyor tulkini ignalarim bilan qo'rqitaman. Ignalarim zaharli ilonlarni yengishda yordam beradi.

*Turg'unboy G'oyipov*

Matndagi va o'zingiz bilgan hayvon nomlarini alifbo tartibida yozing.  
Matndagi oxirgi gapni ko'chiring. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing.

## SO'Z TARKIBI

**126- mashq.** Hikmatlarni o'qing. Ma'nosini ayting.

Kishi ko'ngli **tartibli** narsalarga moyil bo'ladi. **Tartibsiz** narsalardan nafratlanadi. (*Beruniy*)

So'zni ko'p so'zlama, biroz ozroq **so'zla**,  
Tuman so'z ma'nosini bir so'zda **ko'zla**.

*Yusuf Xos Hojib*

Do'stga agar qo'shilsa do'st-yor,  
Orzu og'ochi bo'lur **hosildor**.

*Jomiy*

Ajratilgan so'zlarning o'zak va qo'shimchalarini tegishlicha belgilang.  
*Tartibli, tartibsiz* so'zlari qanday nomlanadi?



**tuman** — o'n ming  
**og'och** — daraxt



*Orzu og'ochi* iborasi qanday ma'noda qo'llangan?  
*Tuman, og'och* so'zlari tilda hozir ishlatiladimi?

**127- mashq.** O'qing.

## KITOB — DO'STIMIZ


Kitobni seving. Kitob yaxshi maslahatchi va o'qituvchi. Kitobsiz bilimli, madaniyatli kishi bo'lib yetishish mumkin emas. Kitobni o'qib, bilimingizni boyiting. Eng yaxshi kitobxon bo'lishga tirishing.

O'zakedosh so'zlarni aniqlang va ko'chiring.  
O'zak va qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.  
Hozir siz qaysi badiiy asarni o'qiyapsiz?



**-li, -siz, -la, -xon, -dor, -chi** qanday qo‘shimchalar deb nomlanadi?

**128- mashq.** Berilgan qo‘shimchalar yordamida o‘zakdosh so‘zlar hosil qiling va yozing.



**129- mashq.** Maqol va hikmatlarni o‘qing. Ularning ma’nolarini izohlang.

1. Do‘st bilan sirdosh bo‘l,  
Ishiga doim qo‘ldosh bo‘l.
2. Odobli o‘g‘il — ko‘kdagi yulduz,  
Odobli qiz — yoqadagi qunduz.
3. Suvsiz hayot bo‘lmas,  
Mehnatsiz rohat bo‘lmas.
4. Hamisha chiroyli, ochiq va mazmundor so‘zlashga harakat qil.

So‘z yasovchi qo‘shimcha olgan so‘zlarni aniqlab, tarkibiy qismlarga ajrating va tegishlicha belgilang.



**Qanday so‘zlarning o‘zagi bir xil bo‘ladi?**  
**Qaysi qo‘shimchalar o‘zakdosh so‘zlarni hosil qiladi?**

**130- mashq.** O‘qing. Matnda nechta kishining gapi bor? Gaplar nimalardan tuzilgan?

— Nelarni yaxshi ko‘rursen? — **Humoyundan** so‘radi Bobur.

Humoyun bir lahza o‘ylanib qoldi. Uning yaxshi ko‘rgan narsalari ko‘p edi.



— **Safarda** yurishni, **sayohatni** yaxshi ko‘rurmen. Yaxshi kitob bo‘lsa, erta-yu kech o‘qigim kelur.

— **Humoyunning** bu jihati menga o‘xshabdi, — dedi ichida Bobur...

(*Pirimqul Qodirovdan*)

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qaysi so‘zlarga bog‘langan. Ular nimalar yordamida bog‘langan?

Humoyunning gaplarini ko‘chiring.

Siz nimani yaxshi ko‘rishingizni bir gap bilan ifodalang.

**131- mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping. Ajratilgan so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chiring.

1. Qora **uyning** ichida  
Qoplon guldiraydi.

2. Shakar kabi oppoq o‘zi,  
Eritadi hatto **muzni**.



3. **Osmonda** bor, yerda yo‘q,  
**Kampirda** bor, qizda yo‘q.

4. Ona-bola yemas, ichmas,  
**Dasturxondan** nari jilmas.

5. **Ko‘zga** ko‘rinmas,  
**Qo‘lga** tutilmas,  
**Burunga** kirmay qolmas.

So‘zlarni bir-biriga bog‘lagan qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.



**Gapda so‘zlarni bir-biriga qaysi qo‘shimchalar bog‘laydi?**



**132- mashq.** Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan qo‘shimchalarni qo‘yib, matnni o‘qing. Gapda so‘zlarni bog‘layotgan qo‘shimchalarni aniqlang.

Qadim zamonlar.. odamlar dasxatlari.. toshlar.. daraxt... po‘stloqlari.., sopol va mis... yasalgan ramkachalar.. yozishgan.

Hozir ishlatilayotgan qog‘oz ikki ming yil ilgari Xitoy..  
ixtiro qilingan. Xitoyliklar qog‘oz tayyorlashni sir saqlashgan.  
Keyinchalik Yaponiya va Osiyo mamlakatlari qog‘oz ishlab  
chiqarishga muvaffaq bo‘lishgan.

Hozirgi kunda qog‘oz... 600 dan ortiq turi bor.

*Oqila Karimova*

Matndagi birinchi xat boshini ko‘chiring. So‘zlarni bog‘layotgan  
qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

*Ixtiro qilingan* so‘zining ma‘nosini tushuntiring.

**133- mashq.** O‘qing. Har bir qatordagi ajratilgan so‘zlardan boshlab  
gap tuzib yozing. Hosil bo‘lgan gapning mazmunini  
tushuntiring.

|          |          |         |           |   |
|----------|----------|---------|-----------|---|
| yarashar | bulbul   | bog‘ga  | ,         |   |
| aql      | yarashar | odamga  | .         |   |
| xulq     | yaxshi   | ziynati | kishining | . |
| kiyim    | issiq    | ilitar  | tanni     | , |
| so‘z     | issiq    | ilitar  | jonni     | . |

O‘zak va qo‘shimchalarni tegishlicha belgilang.

*Xulq, issiq, bulbul* so‘zlarining yozilishini yodingizda tuting.

*Issiq* so‘z deganda nimani tushunasiz?

**134- mashq.** O‘qing. Nuqtalar o‘rniga so‘z o‘zgartuvchi qo‘shim-  
chalardan mosini qo‘yib yozing.

## BULOQCHA

Men oddiy mehnatsevar buloqchaman. Suvlarim.. dala-  
bog‘lar.. eltaman. Dehqonlar... yaxshi hosil olishlariga

yordamlashaman. Tegirmon toshi.. aylantiraman. Shuning uchun odamlar.. hurmatiga sazovor bo'ldim.

(Turg'unboy G'oyipovdan)



So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar qaysi turkumdagi so'zlarga qo'shilgan. So'roqlar yordamida aniqlang.

**135- mashq.** So'zlarni o'qing. Har bir so'zni tarkibi jihatidan tahlil qilib, jadvalga joylang. Jadvalning oxirgi qismini o'zingiz o'zakdosh so'zlar topib to'ldiring.

Baliqchi, baliqdan, mevali, so'zla, chorvador, boshla, nonning, bog'da, bog'bon, sinfdosh, sinfni, guldon, dasturxon, kitobxon, sayohat, jiydazor, zehnli.

| So'z   | O'zak | So'z yasovchi qo'shimcha | So'z o'z-gartuvchi qo'shimcha | O'zakdosh so'zlar |
|--------|-------|--------------------------|-------------------------------|-------------------|
| mevali | meva  | -li                      | —                             | mevasiz           |



Tilda so'z yasovchi qo'shimcha olgan hamma so'zlar o'zakdosh so'z hosil qila oladimi?



**136- mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini toping.



1. Soqolli bo'lib dunyoga kelur,  
O'zi kiyikdek yugurib yelur.
2. Chiziladi ko'kda qalamsiz,  
Har xil bo'yoq, rassomsiz.
3. Gulsiz bo'lar mevasi,  
Shirin-shakar donasi.

Ko'chiring. So'z yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimcha olgan so'zlarni aniqlang. O'zak va qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.

## *Bilimingizni tekshiring!*



- Soʻzning oʻzagi nimani ifodalaydi?
- Qoʻshimchalar nima uchun soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartuvchi deb, turlarga ajratiladi?
- Qaysi qoʻshimchalar yordamida oʻzakdosh soʻzlarni hosil qilasiz?
- Tildagi soʻzlar qanday koʻpayib borishini bilasizmi?

## **SOʻZ TURKUMLARI**

**137- mashq.** Sheʼrni ifodali oʻqing. Yod oling.

### **ONA TILIM**

**Ming** yillarkim bulbul kalomi,  
**Oʻzgarmaydi**, yaxlit hamisha.  
Ammo shoʻrlik toʻtining holi  
Oʻzgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan shaksiz,  
**Bulbul** kuyin **sheʼrga** solaman.  
Sen yoʻqolgan kuning, shubhasiz,  
Men ham **toʻti** boʻlib qolaman.

*Abdulla Oripov*

Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga soʻroq bering va qaysi soʻz turkumiga kirishini ayting.

**138- mashq.** Matnni oʻqing. Matn sizga kim haqida maʼlumot berdi? Zafar Diyorning qaysi sheʼrlarini yod ayta olasiz?

Zafar Diyor bolalarning sevimli shoiri edi. U quvnoq sheʼrlari, qoʻshiqlari bilan har bir bolaga oʻrtoq edi. Zafar Diyor 1912- yilda Chust tumanining Samsoqtepa qishlogʻida tugʻildi. **Shoir 38 yoshida ogʻir kasallikdan vafot etdi.**

*Shukur Saʼdulla*

Matnda nechta gap borligini aniqlang.

Ajratilgan gapni ko'chiring. Shu gapdagi har bir so'zning qaysi turkumga kirishini ayting va yozing.

N a m u n a : *og'ir* (sifat)

Gaplar nimalardan tuzilgan?



## So'zlar nimalar asosida turkumlarga ajratiladi?

**139- mashq.** So'zlarni o'qing. So'roqlar yordamida turkumlarga ajrating.

Giyoh, ergashyapti, pahlavon, hammom, chanqaydi, qovun, to'qqiz, pishibdi, dehqon, uchuvchi, sovuq, sug'ormoqchi, issiq, ziyrak, yetti, kitobxon, o'n ikki, uchqur, sakkizinchi, daraxt, yordamlashdi, ishlayapti, yaproq, qiziqarli.

| kim?,<br>nima? | qanday? | necha?,<br>nechanchi? | nima qilibdi?,<br>nima qilyapti?,<br>nima qilmoqchi? |
|----------------|---------|-----------------------|------------------------------------------------------|
|                |         |                       |                                                      |

Yozganingizni tekshiring.

So'zlarning yozilishini yodingizda tuting.



**140- mashq.** Matnni tinish belgilariga e'tibor berib, ifodali o'qing.  
Matn maqsadga ko'ra qanday gaplardan tuzilgan?

Shu payt olma daraxti ustidan Mittining yaqiniga bir nima tap etib tushibdi.

— Voy biqinim-ey, voy qovurg'am-ey!

Mitti egilib, Tillaqo'ng'izni ko'ribdi.

— Ha, tilla, nima bo'ldi senga?

— Olmadan yiqildim, shu yerga tiqildim.

Oyoqlarim uvushdi.

- Ish qilsang uvushmaydi.
- Ishlab nima qilamiz, yotib yeyishni bilamiz.
- Tekin tomoq — boshga to‘qmoq,  
Unutmagin buni, o‘rtoq.

*(Yoqubjon Shukurovdan)*

Shaxs va narsa nomlarini bildirgan so‘zlarni topib ko‘chiring. Ularning qaysi so‘z turkumiga tegishligini ayting.

**141- mashq.** O‘qing. Ajratilgan so‘zlarni ko‘chiring. Ularning nima uchun bosh harf bilan yozilganini ayting.

### PARVOZ

**O‘zbekiston**, parvozingni  
 Qiyos etgum uchqur toyga.  
 Ona yurtim rivoj topib,  
 Qo‘limiz ham yetar oyga.  
 Yo‘llaringda „**Tiko**“, „**Damas**“,  
 „**Neksiya**“lar qilar poyga.  
**Tohir** so‘rar **Jahongirdan**:  
 — Bu tulporlar chiqar qaydan?  
 — **Andijonga** yo‘ldosh shahar,  
**Asaka** degan joydan.

*Tursunboy Adashboyev*

*Tulporlar* deganda nimani tushunasiz?

**142- mashq.** Chiziqchalar o‘rniga gap mazmuniga mos so‘zlar qo‘ying. Shu so‘zlarning qaysi turkumga kirishini ayting.

1. \_\_\_\_\_ so‘z shakardan shirin. 2. Yetti o‘lchab, \_\_\_\_\_ kes!
3. Nonni katta tishlasang ham, gapni \_\_\_\_\_ gapirma.
4. \_\_\_\_\_ bola — elga manzur.

Qo‘yish uchun so‘zlar: *bir, katta, shirin, odobli.*

**143- mashq.** She'rni ifodali o'qing. Yoddan yozing.

### YAPROQ

Nur emishib quyoshdan,  
Yaproqchalar yayraydi.  
Bu quvonchga qo'shilib,  
Shoxda bulbul sayraydi.

*Qambar O'tayev*

Harakat bildirgan so'zlarni so'roqlar yordamida aniqlab, tagiga ikki chiziq chizing. Ular nimaning harakatini bildiradi?



**144- mashq.** O'qing. O'qiganingizga amal qiling.

Shayx Abdulxoliq G'ijduvoni o'g'liga nasihat qilib aytibdi:  
— Aziz o'g'lim, yomon odamlar bilan suhbatdosh bo'lma... O'rinsiz kulgidan, masxarabozlikdan hazar qil. Xushmuomala odam bo'l... Olim, fozil odamlarning suhbatlaridan bahramand bo'l.

Q a n d a y ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

**145- mashq.** O'qing. Matn nima haqida ekanini ayting. Sarlavha toping.

O'zbek xalqi qadimdan paxtachilik bilan shug'ullanib kelgan. Chunki undan hayotimiz uchun zarur bo'lgan narsalar olinadi.

Hozir paxtadan bir ming ikki yuz xil mahsulot ishlab chiqariladi. Paxta tolasidan yetmish xildan ortiq gazlamalar to'qiladi. G'o'za barglarida o'n yetti xil kislota va vitaminlar bor ekan.

*Nasriddin Aliyev*

Ko'chiring. N e c h a ? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing. Ular nimaning miqdorini bildiriyapti?



Matndan belgi, miqdor bildiradigan so‘zlar tushirib qoldirilsa, gap mazmunida qanday o‘zgarish bo‘ladi? Buni aniqlash uchun mashqlardagi belgi, miqdor bildiradigan so‘zlarni tushirib o‘qib ko‘ring.

**146- mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.



1. Ikki qo‘shni, ikki do‘st,  
Yonma-yon turishadi.  
Yig‘lashsa birga yig‘lab,  
Baravar kulishadi.
2. Donamiz bor qip-qizil,  
Ham nordon-u, ham shirin.  
Eshigim topsang sirin,  
Chiqamiz birin-birin.

Husnixat bilan ko‘chiring.

Ot, sifat, son va fe‘llarni aniqlab, ustiga yozing.



So‘z turkumlari nimalariga ko‘ra farqlanadi?



**147- mashq.** „Gulxan“ jurnalidan qiziqarli kichik matn topib ko‘chirib, ot, sifat va fe‘llarning tagiga chizing.

## OT — SO‘Z TURKUMI

**148- mashq.** O‘qing. Hikoyat kim va nima haqida ekanini ayting.

Sulton Ulug‘bek navbatdagi safardan Samarqandga qaytayotgan ekan. Ko‘chaning o‘rtasida yotgan bir burda nonni ko‘rib qolibdi. Shoshib otdan tushibdi. Nonni qo‘liga olibdi. Uni o‘pib, peshonasiga surtibdi.

Nonning nomi ulug‘, nomidan o‘zi ulug‘.

*(Hikoyatdan)*

Shaxs va narsalarning nomini bildirgan so‘zlarni aniqlang. Otlarning gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang.



**149- mashq.** O'qing. Matn nima haqida yozilgan?

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari juda qadim zamonlardan dunyoga mashhur bo'lgan. O'lis asrlarda bu shaharlar Xitoydan Ispaniyagacha, Yevropadan Hind okeanigacha aloqa bog'lagan.

*Islom Karimov*

Bosh harf bilan yozilgan so'zlarni ko'chiring. Ularning nima uchun bosh harf bilan yozilganini ayting.



**150- mashq.** O'qing. Bosh harf bilan yozilgan otlarni bir ustunga, kichik harf bilan yozilgan otlarni ikkinchi ustunga yozing. Otlarning yozilishini yodingizda tuting.

## TANGA BALIQ

Sirdaryo va Amudaryoda tanga baliq juda ko'p bo'ladi. Bu baliq Chirchiq va Bo'zsuvda ham ko'p. Tanga baliqning tanasi yaltiroq tangachalar bilan qoplangan. Bu baliq har xil qurtlarni, baliq va baqa tuxumlarini yeb yashaydi. U serqamish ko'llarda ham ko'p bo'ladi.

O'zingiz bilgan baliq nomlarini yozing.

**151- mashq.** Matnni o'qing.

O'tgan bahorda Davronjonlarning uyiga yigirmata bolgariyalik yigitlar kelishdi. Ular Davronjonning dadasidan paxta terish mashinasi sirlarini o'rganishdi. Ular ichida Mancho Jekov ismli yigit ham bor edi. U Bolgariyadan Davronjonga xat yozdi.

Davronjon katta-katta harflar bilan o'zbekcha yozilgan xatni o'qidi:

*Xaskovo yaxshi. Bahor yaxshi. Yer yaxshi. Traktor yaxshi. Chigit yaxshi. Mancho yaxshi. Do'stlik yaxshi.*

So‘ng Davronjon ham unga xat yozdi:

*Davron yaxshi. O‘qish yaxshi. Bahor yaxshi. May yaxshi. Oyi yaxshi. Dada yaxshi. Traktor yaxshi. Qishloq yaxshi. O‘rtoq yaxshi.*

*Xudoyberdi To‘xtaboyev*

Otlarni aniqlang. Ularni ma‘nosiga ko‘ra uch guruhga guruhlab yozing.

1. Shaxs nomlari.
2. Narsa nomlari.
3. Joy nomlari.

Siz birorta xorijiy tilni o‘rganyapsizmi va shu tilda xat yoza olasizmi?

**152- mashq.** Matnni o‘qing.

Katta Tagob qishlog‘ida Mahmudjon ismli uyatchan bola yashardi. Bir kuni u ammasinikiga mehmonga bordi. Ammasi uni uzum, anor, yangi yopilgan nonlar bilan mehmon qildi.

Mahmudjon uyalib dasturxonga qo‘l uzatmadi. Ichida esa „Qani endi o‘sha anorlardan bittasini yeb olsam“ deb o‘ylardi.

Mahmudjon o‘rniga yotdi. Qorni ochligi uchun hech uyqusi kelmadi. Yangi yopilgan nonning hidi dimog‘iga urilib, ishtahasini qitiqlar edi...

*Xudoyberdi To‘xtaboyev*

Otlarni aniqlang, ularni ma‘nosiga ko‘ra ajratib yozing.

Otlarning yozilishini yodingizda tuting.

Mahmudjon to‘g‘ri ish qildimi?

**153- mashq.** Matnni o‘qing. Sarlavha qo‘yib ko‘chiring.

Amudaryo qirg‘oqlarida qirg‘ovullar ko‘p. Faqat qirg‘ovul emas, yovvoyi o‘rdaklar, loyxo‘raklar, turnalar, to‘rg‘aylar va boshqa turli-tuman qushlar ham ko‘p. Ular bu yerda yashaydi, bola ochib ko‘payadi, dalalar ustida qanot qoqib uchishadi.

*Mirmuhsin*

So‘roqlar yordamida birlik va ko‘plikdagi otlarni aniqlang. Ko‘plikdagi otlarni bir so‘z bilan nomlang. *Amudaryo* oti ko‘plikda qo‘llanadimi?



**154- mashq.** She'ni ifodali o'qing. She'rdagi otlarni aniqlang. Qush nomlarini alohida, hayvon nomlarini alohida yozing. Otlarning yozilishini yodingizda tuting.

## BURGUT

Ikki metr kelar burgut  
Qanotini yozgan chog'.  
Unga maskan sahrolar-u  
Baland, tik qoyali tog'.  
Qish faslida bu o'troq qush  
Pastliklarga yo'l olar.  
Qizilqumda tipratikan,  
Toshbaqaga chov solar.  
Qumsichqon-u yumronqoziq,  
Jayronlarni ovlar u.  
O'laksani payqab qolsa,  
Axlatlarni kavlar u.  
Goh tuvaloq, kakliklarga  
Hujum boshlar bu yirtqich,  
Xonaki qush avlodlari —  
Jo'jalarga bermas tinch...  
Bo'rilarni ovlashda u  
Qo'l keladi ovchiga.  
O'qrayib qarab qolar  
Miltiqli yo'lovchiga.

*Obid Rasul*

**155- mashq.** Matnni o'qing. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

## QUYOSH NEGA NUR SOCHADI?

Kechasi nur sochadigan yulduzlar bilan kunduzi olamni munavvar etadigan Quyosh bir xil.

Quyosh Yerga eng yaqin yulduzdir. Yerdagi hayot Quyoshga bog‘liq. Quyosh nuri, tafti bo‘lmasa Yerdagi hayot vujudga kelmas edi. Quyosh nuri, taftisiz o‘simliklar o‘smaydi, odamlar hayot kechira olmaydi.

So‘roqlar yordamida birlik va ko‘plikdagi otlarni aniqlang.



*Quyosh, Yer* otlari nima uchun bosh harf bilan yozilgan?

**156- mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.



1. Koptok emas, dumaloq,  
Unda bor shahar, qishloq.  
Daryo, dengiz, tog‘-dovon,  
Qir-u adir va o‘rmon,  
U nima ayt-chi, Yunus?  
— Uning nomi\_\_\_\_\_.

2. Ko‘kda supra ochildi,  
Ichidan un sochildi.

So‘roqlar yordamida otlarni aniqlab ko‘chiring.  
Otlarning hammasini ko‘plikda qo‘llab bo‘ladimi?



**dovon** — tog‘ va tepalikning oshib o‘tsa bo‘ladigan qulay joyi



**157- mashq.** Bolalar shoiri Zafar Diyor she‘rlaridan keltirilgan parchani o‘qing.

Do‘stlar, mening yurtimni  
O‘zbekiston deydilar.  
Dong‘i tutgan dunyoni  
Bog‘-u bo‘ston deydilar.

Chaman erur bog‘lari,  
Tog‘liklari ulug‘dir.

## Qir-adir, o'tloqlari Gul-lolaga to'liqdir.

So'roqlar yordamida birlik va ko'plikdagi otlarni aniqlang.  
Ko'plik ma'nosini bildirgan otlarning tagiga chizing.



Otlar nimalarga nom bo'ladi? Kim?, nima?, qayer? so'roqlari qaysi otlarga beriladi? Otlarni ma'nosiga ko'ra qanday turlarga ajratish mumkin? Kimlar?, nimalar? so'roqlari qaysi otlarga beriladi?

Berilgan otlardagi harflarning o'rnini almashtiring. Hosil bo'lgan so'zlar qaysi turkumga oidligini ayting.

|               |         |         |
|---------------|---------|---------|
| hosil — sohil | nahor — | o'zak — |
| tizza —       | naqd —  | kalit — |

**158- mashq.** Hikoyani o'qing.

### CHUMCHUQ

Dadam har bahorda hovlimizga anvoyi gullar ektirar edilar. Ularning yashnab turishini yaxshi ko'rardilar. Ammo rayhonlarni kimdir uzib ketardi. Dadam rayhonlarni qo'riqlashni menga topshirdilar.

Dam olish kuni edi. Men hovlida ham dars qilib, ham rayhonlarni qo'riqlamoqchi bo'ldim.

Bir mahal rayhonlar yoniga bir chumchuq keldi. Tumshug'i bilan rayhonni shart uzib olib, uchib ketdi. Men chumchuq rayhon yer ekanmi, deb hayron bo'ldim.

O'rik pishdi. Men o'rik tergani daraxtgacha chiqdim. Qarasam, chumchuqning ini bor ekan. Inining atrofiga ilingan qora rayhonlarni ko'rdim. Bu voqeani dadamlarga aytib berdim.

Chumchuqlar o'z bolalarini qurt-qumursqa, chumolidan saqlashda rayhondan foydalanar ekan. Rayhon hidiga hasharot kelmas ekan.

*Olmos*

Hikoyadan nimalarni bilib oldingiz?  
Berilgan savollar asosida matnni qayta hikoyalang.

1. Dadasi qiziga rayhonlarni nima uchun qo‘riqlashni buyurdi?
2. Qizcha nimaga hayron bo‘ldi?
3. Qizcha nimani bilib oldi?

Reja tuzing va bayon yozing.  
Otlarni aniqlab, tagiga chizing.



**anvoysi** — turli-tuman, rang-barang

## OTLARNING EGALIK QO‘SHIMCHALARI BILAN O‘ZGARISHI

**159- mashq.** Otlarni o‘qing, o‘zagini aniqlang.

|          |            |
|----------|------------|
| kitobim  | kitobimiz  |
| kitobing | kitobingiz |
| kitobi   | kitoblari  |

So‘zlar qanday qismlardan tashkil topgan?  
So‘zlarni yozing. O‘zak va qo‘shimchalarni belgilang:

N a m u n a : *kitobim*.

**-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i** — egalik qo‘shimchalaridir.

Egalik qo‘shimchalari shaxs va narsa-buyumlarning qaysi shaxsga qarashlilikini bildiradi.



*Kitobim* so‘zidagi **-im** qo‘shimchasi kitobning qaysi shaxsga tegishlilikini bildiriyapti?  
**-ing, -i** qo‘shimchalari-chi?

Tilda 3 ta shaxs bor:

I shaxs — soʻzlovchi.

II shaxs — tinglovchi.

III shaxs — oʻzga.

-m, -im, -miz, -imiz — I shaxs; -ng, -ing, -ngiz, -ingiz — II shaxs; -i, -si, -(lar)i — III shaxs egalik qoʻshimchalaridir.

**160- mashq.** Oʻqing. Koʻchiring. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlardagi qoʻshimchalarni namunadagidek belgilang.

Namuna. *Gullarim*

**Gul**tojlarim boʻlmali,  
**Ildiz**larim burmali,  
Oʻrtagina **boʻyim** bor,  
Sogʻ boʻl, degan **oʻyim** bor.

*Kavsar Turdiyeva*

Margʻilonning **at**lasi,  
Kamalakning **nus**xasi.  
Omon boʻlsin toʻqigan  
Uning chevar **ust**asi.

*Habib Rahmat*

*Kamalakning nusxasi* iborasining maʼnosini qanday tushunasiz? Egalik qoʻshimchalari shaxs va narsa-buyumning qaysi shaxsga qarashlilikini bildirayotganini ayting.



**161- mashq.** Oʻqing. Egalik qoʻshimchalarini olgan otlarni aniqlang, ularni koʻchiring. Qavs ichida shaxsini koʻrsating.

1. Uzun dala yoʻlida keksa bobo ikki sevikli nevarasi bilan birga borardi. (*Mirmuhsin*) 2. Kapalak, kapalak, qanotlaring ipakday. (*Mirmuhsin*)

3. Miya kabi shaklim bor,  
Boshim toʻla aqlim bor.  
Meni yegan donishmand —  
Boʻlur degan naqlim bor.

*Erkin Vohidov*

**162- mashq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichida ko‘rsatilgan egalik qo‘shimchalarini qo‘yib, she‘rni ko‘chiring.

Jajjigina barmoqchalar..(II sh.),  
Harakatdan to‘xtamas bir zum.  
Sen chizgan gul, bayroqchalar..(II sh.),  
Bayram uchun sovg‘adir, qiz..(I sh.)

Ona..(II sh.) shunda ochar keng quchoq,  
Go‘yo ko‘kka yetgandek bosh..(III sh.).  
Sensan doim unga ovunchoq,  
Sen onangning kichik yo‘ldosh..(III sh.).

*Ilyos Muslim*

O‘qing. Egalik qo‘shimchalari narsa va shaxsning qaysi shaxsga tegishligini bildiriyapti?

*Jajji, ovunchoq* so‘zlarining yozilishini yodingizda tuting.

*Jajji* so‘ziga ma‘nodosh so‘z topib ayting.

**-im, -ng, -ing, -i, -si** — egalik qo‘shimchalari birlik ma‘nosini bildiradi.

**163- mashq.** Hikoyani o‘qing. Hikoya kim haqida ekan?

Shohistaning tug‘ilgan kuni edi. U Oqiljonni mehmonga taklif qildi.

Oila a‘zolari qanday sovg‘a olib chiqishni maslahatlashdilar. Oqiljonning buvisi, oyisi, akasi har xil narsalarni aytishdi.

Oqiljon o‘zi ekan gullarini avaylab qirqdi-da, Shohistaga olib chiqdi...

*Farhod Musajonov*

Matnni ko‘chiring. Otlarni aniqlab, tagiga chizing, egalik qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

*Mehmon, a‘zo, maslahat* so‘zlarining yozilishini yodda tuting.

Tug‘ilgan kunga nimalar sovg‘a qilish mumkin?





164- mashq. Topishmoqlarni o‘qing. Javobini toping.



1. Ul nadurkim, poyi yo‘q,  
Yursa boshi bilan yurar.  
Yurganda xok surtmay,  
Ancha ustalik qilar.

*Uvaysiy*

2. Bir suruv qo‘yim bor,  
Sanab bo‘lmaydi.
3. Mevasi dona-dona,  
Har biriga bir xona.

Ko‘chiring. Egalik qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang. Shaxsini qavs ichida ko‘rsating. N a m u n a : *poyi* (III shaxs)



**suruv** — qo‘y-echki podasi

165- mashq. She’rni ko‘chirib yozing.

1. Oq paxtaday sochingiz,  
Omon bo‘lsin boshingiz,  
Ayta qoling, buvijon,  
Hozir necha yoshingiz.

So‘zlaringiz ko‘p qiziq,  
Yuzingiz nega chiziq?  
Achomlasam, buvijon,  
Bag‘ringiz muncha issiq?

*Po‘lat Mo‘min*

2. O‘smirlar davlatimiz,  
Keksalar savlatimiz.

*Quddus Muhammadiy*

3. Echkichalarim, bolajonlarim,  
Eshikni oching, mehribonlarim.  
Onangiz sizga sut olib keldi.

*(Ertakdan)*

Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni aniqlang. O‘zak va qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang. Ikkinchi she’rning ma’nosini tushuntiring.

*Davlat* so‘zi qanday ma’noda qo‘llangan?

**-imiz, -miz, -ingiz, -ngiz, -(lar)i** — egalik qo‘shimchalarini ko‘plik ma’nosini bildiradi.

**166- mashq.** Matnni o‘qing. Egalik qo‘shimchalarining shaxs-sonini ayting.

Qobil boboning ikki nabirasi — Shavkatjon bilan Shuhratjon tortishib qolishdi. Ular bobosining yoniga borib, qaysi birimiz odobli bolamiz deb so‘rashdi.

— Oldin hassamni olib kelib bering. Keyin kim odobli bola ekanini aytdim, — dedi Qobil bobo.

—Yo‘q, avval aytdim, — dedi Shavkatjon oyoqlari bilan polni tepib.

Shuhratjon bobosining hassasini keltirib berdi. Bobosining qo‘lidan ushlab, turishiga yordamlashdi.

Qobil bobo Shuhratjonning peshonasidan o‘pib, minnatdorchilik bildirdi.

*Xudoyberdi To‘xtaboyev*

Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni ko‘chiring, ularning o‘zak va qo‘shimchalarini belgilang. Otlardagi egalik qo‘shimchalarining shaxs-sonini qavsda ko‘rsating. Kim odobli ekanini siz ayta olasizmi?



**167- mashq.** Nuqtalar o‘rniga zarur egalik qo‘shimchalarini qo‘yib o‘qing.

Bizning bobolar... kimlar bo‘lgan? Ular qanday zotlar bo‘lishgan?

Bizning bobolar... yulduzlar sirini topgan Mirzo Ulug‘bek bo‘lgan. Jahon matematika faniga asos solgan al Xorazmiy bo‘lgan. Dunyo xalqlarining boshini qovushtirgan buyuk Amir Temur bo‘lgan. Biz yosh avlod ota-bobolar...ga munosib bo‘lib yetishsak, ism. jismiga munosib bo‘libdi, degan nom olamiz.

*Shukrullo*

Ko‘chiring. Otlarning qaysi shaxs-son qo‘shimchalari bilan qo‘llanganini ayting.

*Jahon, al-Xorazmiy, jism* so‘zlarining yozilishini yodingizda tuting.

**168- mashq.** O‘qing. Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni aniqlang. Ularning o‘zagini belgilang. O‘zakning qaysi tovush bilan tugaganini ayting.

1. Mol-u davlatingiz bilan emas, ilm-u hunaringiz, go‘zal xulq-atvoringiz bilan iftixor qiling. (*Abuyazid Hakim*) 2. Odam bolasi — elning bolasi. 3. Ra‘noga buvisining boychechak haqidagi ashulasi yoqib qoldi:

Boychechakning bolasi,  
Qulog‘ida donasi.  
Donasini olay desak,  
Yugurib chiqdi onasi.

Ko‘chiring. Egalik qo‘shimchasi undoshdan so‘ng qo‘shilgan otlarning tagiga bir, unidan so‘ng qo‘shilgan otlarning tagiga ikki chiziq chizing. Undosh tovush bilan tugagan otlarga egalik qo‘shimchalari qanday shaklda qo‘shiladi? Unli tovushlar bilan tugagan so‘zlarga-chi?

Egalik qo‘shimchalari otlarga quyidagicha qo‘shiladi:  
unli tovushdan so‘ng **-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -(lar)i** shaklida;  
undosh tovushdan so‘ng: **-im, -ing, -i; -imiz, -ingiz, -(lar)i** shaklida.

**169- mashq.** O‘qing. Otlarni aniqlang.

1. Alisherning otasi G‘iyosiddin Kichkina adabiyotni sevardi. Ularning uyida she‘rxonlik kechalari o‘tkazilardi. Shular sababli Alisher kitob bilan qattiq do‘stlashdi. (*Oybek*) 2. Hidi, pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona-yurtim qovuni ekanligini angladim, otam bog‘idagi polizda shunaqa shakarpalak ko‘p bitardi. (*Xayriddin Sultonov*)

Ko‘chiring. Egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan otlarning o‘zak va qo‘shimchalarini belgilang.

Egalik qo‘shimchalari qaysi tovush bilan tugagan otlarga qo‘shilganini ayting.



**170- mashq.** Nuqtalar o‘rniga gapning mazmuniga mos egalik qo‘shimchalarini qo‘yib o‘qing va yozing.

Har yili kuz keldi deguncha ota.ning ish., yumush. ko‘payadi. Butun mahallaning bog‘-rog‘. ota.ning qo‘l.dan chiqar edi. Ota., ayniqsa, tok ish...ni mukammal bilardilar.

— Ota. har bir daraxt bilan gaplasha oladi. Ularning til. ni biladi, — derdi amakilar. .

*To‘lqin*

Egalik qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

**171- mashq.** Birikmalarni o‘qing. Egalik qo‘shimchalarini olgan otlarni aniqlang.

Bahodirning chizg‘ichi, maktabning kutubxonasi, ota-ning nasihati, eshikning qulfi.

Egalik qo‘shimchalarini tushirib o‘qing. So‘zlar o‘zaro bog‘landimi? Egalik qo‘shimchalari qanday vazifa bajaryapti?

**Egalik qo‘shimchalari** gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘laydi.

**Egalik qo‘shimchalari** so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalardir.

**172- mashq.** O‘qing. Misralardagi so‘zlar o‘zaro bog‘langanmi?

Kundaligim — yorug‘ yuz...,  
Davralarda biyron so‘z...,  
Yozuvlar.. chinniy-chiroq,  
Zavq bag‘ishlar har bir varaq.

*Obid Rasul*

Nuqtalar o‘rniga egalik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring. Egalik qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang. Shaxs-sonini ayting. Egalik qo‘shimchalari qanday vazifa bajargan?

**173- mashq.** *Vazifa, behi, kompyuter* soʻzlariga birlik va koʻplikdagi III shaxs egalik qoʻshimchalarini qoʻshib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.



**174- mashq.** Sheʼrni ifodali oʻqing. Egalik qoʻshimchasini olgan otlarni oʻzi bogʻlangan ot bilan koʻchiring. Ular oʻzaro qaysi qoʻshimchalar yordamida bogʻlangan?


Qodiriyning aytolmagan soʻzida,  
Dunyoga hech toʻyolmagan koʻzida,  
„Jonim mening millatim“, — deb  
Vidolashgan chogʻida  
Aytilmagan bir qoʻshiqsan, jon tilim!  
Haqiqatning qilichlari sinmagan kun bor ekan,  
Istiqlolning sharofati senga doim yor ekan.

*Halima Jumaniyozova*

Sheʼrni yod oling.

**1989- yilning 21- oktabrida Oʻzbekiston Respublikasining Davlat tili toʻgʻrisidagi Qonuni qabul qilindi.**

**175- mashq.** Soʻzlarni oʻqing. Soʻzlar oʻzagidagi oʻzgarishni kuzating. Chap tomondagi soʻzlar oʻzagidagi tovushlar sonini aniqlang. Soʻng oʻng tomondagi soʻzlar oʻzagidagi tovushlar sonini aniqlang. Qanday farqni sezdingiz?



Soʻz oʻzagida qaysi tovush tushib qolgan?  
Koʻchiring. Egalik qoʻshimchasini olgan otlarning oʻzagini tegishli belgilang.

Namuna: *burnim*


**176- mashq.** O‘qing. Egalik qo‘shimchasini olgan otlarni toping.  
O‘zakdagi tushib qolgan tovushlarni aniqlang.

1. Yigitlikda yig‘ ilmning mag‘zini,  
Qarilik chog‘i xarj qil oni. (*Navoiy*)
2. Dilni hasaddan, tilni yolg‘on va g‘iybatdan, qorningni  
harom-harishdan pok tut. (*Fariddin Attor*)
3. Shamol yuzni silar,  
Issiqni shilar.  
Qo‘yningda titragan  
Yozga qo‘l tiqar. (*Oybek*)

Ko‘chiring. Egalik qo‘shimchasi olgan otlarning yozilishini yodingizda tuting.

*Hasad* so‘zining ma‘nosini tushuntiring.

**177- mashq.** So‘zlarni o‘qing. So‘z o‘zagidagi o‘zgarishni kuzating.



So‘z o‘zagidagi tovush o‘zgarishini ayting. Qaysi tovush boshqa tovushga aylandi? Nima uchun?

Ko‘chiring. So‘zlarning yozilishini yodingizda tuting.

N a m u n a : *bilak+i = bilagi*

Ba‘zi otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda o‘zakda quyidagicha tovush o‘zgarishi yuz beradi:

- unli tovush tushib qoladi;
- undosh tovush almashadi.

**178- mashq.** So‘zlarga egalik qo‘shimchalaridan birini qo‘shib o‘qing.

Xalq, xulq, erk, ishtiyoq, ishtirok, nok.

So‘z o‘zagida o‘zgarish bo‘ldimi? So‘zlarga egalik qo‘shimchalaridan birini qo‘shib, so‘zlarni yozing.



Otlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda qanday tovush o'zgarishlari yuz beradi? Egalik qo'shimchalari qo'shilganda so'z o'zagida doim o'zgarish bo'ladimi?



**179- mashq.** So'zlarni o'qing. Ularga egalik qo'shimchalaridan birini qo'shib yozing. So'zlarning yozilishini tushuntiring.

Koptok, baliq, maktab, choynak, qo'shiq, ona, zirak, o'rik, tariq, iqtisod.

**180- mashq.** Nuqtalar o'rniga II shaxs birlikdagi egalik qo'shimchalarini qo'yib o'qing va yozing.

Turar boylikka kon tog'...,  
Quyosh erur chin o'rtoq... .  
O'ynab oqar sho'x buloq...  
Mening yurtim, O'zbekiston.

*Z. Ahmedova*

So'z o'zagida qanday tovush o'zgarishi yuz berganini ayting.

**181- mashq.** Nuqtalar o'rniga egalik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, topishmoqlarni o'qing, javobini toping.



1. Chaqolmaysan tezda, qattiq po'choq...  
Chaqsang mag'zi mazali, yog'dir o'choq...
2. Barmoq... bor-u, tirnoq... yo'q.
3. Oyoq... yo'q qochadi,  
Qanot... yo'q uchadi.

Ko'chiring. Tovush o'zgarishlarining sababini tushuntiring.

**182- mashq.** Nuqtalar o'rniga III shaxs birlikdagi egalik qo'shimchalarini qo'yib, maqollarni o'qing va yozing.

1. Bilak. zo'r birni yiqar,  
Bilim. zo'r mingni yiqar.

2. Daraxt yaproq. bilan ko'rkam,  
Odam mehnat. bilan ko'rkam.
3. Ilm aql buloq.,  
Aql yashash chiroq. .

So'z o'zagida qanday tovush o'zgarishi yuz berganini ayting.

**183- mashq.** She'rni ifodali o'qing.

Yosh ko'nglimda orzularim mo'l,  
Quyosh erir yurak taftimga.  
Men osmonga uzatganda qo'l,  
Sayyoralar qo'nar kaftimga.

*Erkin Vohidov*

Ko'chiring. Egalik qo'shimchalarini olgan otlarni aniqlang, shaxs-sonini ayting. Qaysi so'z o'zagida o'zgarish bo'ldi?



**taft** — harorat



**184- mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini ayting.



1. Shahari bor, odami yo'q,  
Daryosi bor, suvi yo'q.
2. Oppoq sochli boshlari,  
Daryo bo'lar yoshlari.
3. Ildizi yerda,  
Yulduzi ko'kda.
4. Otlari har xil,  
Yoshlari bir xil.

Ko'chiring. Egalik qo'shimchalarining shaxs-sonini va qanday tovush bilan tugagan otlarga qo'shilganini ayting.

***Bilimingizni tekshiring!***



- Otlar ma'nosiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
- Qanday otlarni bosh harf bilan yozasiz?
- Otlar qaysi qo'shimchalar bilan qo'llanadi?



- Egalik qo‘shimchalari qanday ma’no bildiradi?
- Egalik qo‘shimchalari nima uchun so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarga kiritiladi?
- Egalik qo‘shimchalarini quyidagi jadvalga joylay olasizmi?

| Shaxs | Birlik                  |                       | Ko‘plik                 |                       |
|-------|-------------------------|-----------------------|-------------------------|-----------------------|
|       | Undosh tovush-dan so‘ng | Unli tovush-dan so‘ng | Undosh to-vushdan so‘ng | Unli tovush-dan so‘ng |
| I     |                         |                       |                         |                       |
| II    |                         |                       |                         |                       |
| III   |                         |                       |                         |                       |

## OTLARNING KELISHIK QO‘SHIMCHALARI BILAN QO‘LLANILISHI

**185- mashq.** O‘qing. Har bir gapda takrorlanib kelayotgan bir xil otlarni aniqlang. Shu otlarni ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Mehnat insonni **tarbiyalaydi**. 2. Mehnatning **tagi** rohat. 3. Bolalar, mehnatni **seving**. 4. Bolalarni yoshlikdan mehnatga **o‘rgating**. 5. Odam mehnatda **sinaladi**. 6. Mehnatdan **kelsa** boylik, turmush bo‘lar chiroyli.

Otlar gapda boshqa so‘zlar bilan nima yordamida bog‘lanyapti? Otlardagi qo‘shimchalar qanday vazifa bajaryapti?



**Gapda otlar boshqa so‘zlarga qaysi qo‘shimchalar yordamida bog‘lanadi?**

Otlardagi qo‘shiladigan **-ning, -ni, -ga, -da, -dan** kelishik qo‘shimchalaridir.

Otlarda oltita kelishik bor.

| Tartibi | Kelishiklar          | So‘rog‘i                           | Qo‘shimchasi |
|---------|----------------------|------------------------------------|--------------|
| 1       | Bosh kelishik        | kim?, nima?, qayer?                | —            |
| 2       | Qaratqich kelishigi  | kimning?, nimaning?,<br>qayerning? | <b>-ning</b> |
| 3       | Tushum kelishigi     | kimni?, nimani?,<br>qayerni?       | <b>-ni</b>   |
| 4       | Jo‘nalish kelishigi  | kimga?, nimaga?,<br>qayerga?       | <b>-ga</b>   |
| 5       | O‘rin-payt kelishigi | kimda?, nimada?,<br>qayerda?       | <b>-da</b>   |
| 6       | Chiqish kelishigi    | kimdan?, nimadan?,<br>qayerdan?    | <b>-dan</b>  |

**186- mashq.** Kelishikning nomlarini, so‘roqlarini yoddan yozing. Yozganlaringizni darslikdan tekshiring.

**187- mashq.** Matnni o‘qing. Har bir gapda takrorlanib kelayotgan *kitob* so‘zining qaysi kelishikda ekanini ayting. Uni ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Kitob o‘z do‘stining dilini **og‘ritmaydi**. Kitobning **suhbatidan** inson foyda topadi. Bunday fayzli foydani boshqa hech qayerdan topib bo‘lmaydi. Kitobni **o‘qigan** inson o‘tmishdan va kelajakdan ogoh bo‘ladi. Ajdodlarimiz o‘z merosini kelajak avlodga kitoblarda **qoldiradi**. Inson uchun kitobdan **azizroq** va **yoqimliroq** suhbatdosh yo‘qdir. Shuning uchun ham: „Kitob aql qal‘asidir“, deganlar.

*Muhammad Jabulrudiy*

Kelishik qo‘shimchalari qanday vazifa bajaryapti?



**qal‘a** — qasr, qo‘rg‘on



**188- mashq.** *Vatan, kutubxona* soʻzlarini 6 ta kelishikda oʻzgartirib yozing. Qoʻshimchalarni tegishlicha belgilang.

N a m u n a :

B.k. *vatan, kutubxona.*

Q. k. *vatanning, kutubxonaning.*

*Kutubxona* soʻzining yozilishini yodingizda tuting.

**189- mashq.** Matnni oʻqing. Unga sarlavha toping.

Qargʻa — farosati oʻtkir qush. **Qargʻaning parvozini** kuzating. U uchib ketayotib **oʻljasini** tashlab yuboradi. Orqasidan shoʻngʻib uni yana tutib oladi. Mabodo oʻlja **suvga** tushib, suv bilan **quvurga** kirib ketsa, qargʻa **oʻljasini** quvurning quyi tomonida poylaydi. Oʻlja **quvurdan** chiqishi bilan **tumshugʻida** ilib oladi.

Ajratilgan otlarga soʻroq berib, qaysi kelishikda ekanini ayting va koʻchiring. Kelishik qoʻshimchalarini belgilang.

**190- mashq.** Oʻqing. Kelishiklarning soʻroqlari yordamida otlarni toping. Ularni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birga koʻchiring. Kelishik qoʻshimchalari qaysi qoʻshimchalardan soʻng qoʻshilgan?

Zagʻizgʻonlarning qiziq odati bor. Ular har yili kuzda qirqtacha yongʻoqni oʻgʻirlyaydi. Bu yongʻoqlarni yerga koʻmib qoʻyadi va xohlagan vaqtida olib yeydi. Koʻpincha bu yongʻoqlardan oʻttiz sakkiz-oʻttiz toʻqqiztasini yeb boʻlib, hisobidan adashib qoladi. Yerda qolib ketgan yongʻoq kelasi bahorda unib chiqadi.

( „Gʻuncha“ dan)

Otlar qanday soʻroqlarga javob boʻlyapti?

**191- mashq.** Berilgan soʻzlarga mazmunan mos boʻlgan otlar topib, birikma tarzida yozing. Birikmadagi soʻzlarning bogʻlanishini tushuntiring.

\_\_\_\_\_ keldi, \_\_\_\_\_ bargi, \_\_\_\_\_ to'kdi, \_\_\_\_\_  
ketdi, \_\_\_\_\_ ishlaydi, \_\_\_\_\_ qaytdi.

Otlarning qaysi kelishikda ekanini ayting.  
Otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?



**192- mashq.** Nuqtalar o'rniga zarur qo'shimchani qo'yib, topishmoqlarni o'qing, javobini toping.



1. Ship... bizga qarab turar,  
Nurlari.. tarab turar.
2. Dam oladi kunduzi  
Xonadon... . yulduzi.
3. Ikki yaproq bir tan..  
Kezar yoz.. chaman..
4. Bir parcha patir,  
Olam.. tatir.
5. Ot... baland  
It... past.

Ko'chiring. Otlarning qanday so'roqlarga javob bo'lishini ayting.  
Qaysi so'zlarning talaffuzi bilan yozilishi mos kelmaydi? Shu  
so'zlarning yozilishini yodingizda tuting.

**193- mashq.** Matnni o'qing. Turkiy til deganda qaysi tillarni tushunasiz?  
So'roqlar yordamida otlarni toping.

### TURKIY TIL O'LKASI

— Oftob, Quyosh, Kun, Shams degan nomlarim bor.  
Men oltin aravamda hamma **o'lkalarni** kezdim. Biroq turkiy  
til o'lkasi bo'lmish O'zbekiston meni o'ziga tortadi.

— Mening ham ismlarim Oftobbibinikidan kam emas.

**Kitoblarda** Koinot, Falak, Fazo, Ko'k deb qo'llaydilar.  
Suhbatlarda Osmon deb ishlatishadi.

Ularning suhbatiga **chepaklar, qushlar** aralashdi.  
Ular ham turkiy til o'lkasi O'zbekistonda yashayotgan-liklaridan quvonishardi.

(*Olloyor Begaliyevdan*)

Ajratilgan otlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

*Osmon, Quyosh* so'zlarining ma'nodoshlarini topib ko'chiring.

**194- mashq.** „Tulki va Turna“ ertagidan olingan parchani o'qing.

Tulkining boshiga musibat tushdi. Tomog'iga suyak qadaldi.  
Turna Tulkining tomog'idan suyakni olib tashladi. Tulki o'limdan qutuldi. Ular do'st bo'lishdi.

Ko'chiring. Otlarni aniqlab, qaysi kelishikda ekanini qavs ichida ko'rsating. Otlarning gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang.

Turna to'g'ri ish qildimi?



**195- mashq.** Matndagi otlarni qavsda berilgan kelishikda qo'llab o'qing. Shu otlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Kelishik qo'shimchalarini belgilang.

Singlim menga Orif bobo... . (q. k.) bog'idagi o'rikning turshagi... (ch. k.) yuboribdi.

Bir hovuch turshak.. (t. k.) qo'lim.. (j. k.) oldim-u, Orif bobo.. (t. k.) esladim.

Orif bobo erta bahor... (ch. k.) qishli-qirovli kungacha bog'.. (o'.-p. k.) g'imirlab yurardi.

Orif bobo allaqachon olamdan o'tgan. Undan „Orif bobo... . (q. k.) bog'i“ qoldi. Inson... . (q. k.) qo'li o'z egasi.. (j.k.) haykal yasab ketar ekan.

(*Xudoyberdi To'xtaboyevdan*)

*Turshagi, singlim* so'zlarida qanday tovush o'zgarishi yuz berdi? Nima uchun?

Matndagi ma'nodosh so'zlarni toping.



**haykal** — yodgorlik

### **Bosh kelishik**

**196- mashq.** She'mni ifodali o'qing va yoddan ko'chiring.

Har xil ko'chatni **Oyxon**

Jo'yakka ekib qo'ydi.

**Jambil, sada, oshrayhon**

Barg yozsin deb suv quydi.

*Ilyos Muslim*

Ajratilgan otlarga so'roq bering. Ular qaysi kelishikda qo'llangan?  
Bosh kelishikdagi otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

**197- mashq.** Matnni o'qing. Bosh kelishikning so'roqlari yordamida otlarni toping.

Buyuk bo'yoqchi qirqta qozonda bo'yoqlarini pishirar ekan. Bo'yoqlarga xaridor bo'lib Bahoroy kelibdi. U o'ziga yashil bo'yoqni tanlabdi.

Shu payt kunchiqar tomondan Yoz yetib kelibdi. Bo'yoqchi Yozga har xil bo'yoqlardan beribdi. So'ng bo'yoq bozoriga Kuz kelibdi. Kuz sariq, pushti, zarg'aldoq ranglardan olibdi. Hammadan keyin Qish kelibdi. Bu paytda qozonda faqat oq rang qolgan ekan. Qish boshqa fasllardan xafa bo'libdi. Shuning uchun odamlar Qish o'ksimasin deb Yangi yilda archaning shoxlariga turli rangdagi o'yinchoqlarni osib qo'yar ekanlar.

*(Olloyor Begaliyevdan)*

Bosh kelishikdagi otlarni unga bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Bosh kelishikdagi ot gapda qaysi bo'lak bo'lib kelgan? Shu otga bog'lanib kelgan so'z-chi?



**Gapda bosh kelishikdagi otni qanday aniqlaysiz?**



**198- mashq.** Chiziqchalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini bosh kelishikda qo‘llab qo‘ying va yozing.

Ilgari suvsiz qaqrab yotgan yerlarga \_\_\_\_\_ chiqarildi.  
Qaqroq \_\_\_\_\_ obod bo‘ldi. Bu yerlarga \_\_\_\_\_ o‘tqazildi.  
\_\_\_\_\_ ekildi, \_\_\_\_\_ qurildi. Qurilgan uylarga \_\_\_\_\_  
ko‘chib kirishdi.

Bosh kelishikdagi otning gapdagi vazifasini ayting, tagiga tegishlicha chizing. Bosh kelishikdagi ot tarkibida qaysi qo‘shimcha kelgan?

Qo‘yish uchun so‘zlar: *odamlarni, ekinlarga, yerlardan, daraxtlarda, uylarga, suvning.*

**199- mashq.** Matnni o‘qing. Bosh kelishikdagi otlarni toping.

Anor O‘zbekistonda ko‘p uchraydi. Anorning barglari mayda, nashtarsimon bo‘ladi. Shoxlari tikanli bo‘ladi: U iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevasi yirik, dumaloq, qizg‘ish yoki oqish bo‘ladi. Ta‘mi shirin, nordon, sersharbat. Anor sovuqqa chidamsiz mevali daraxtdir.

(„O‘zbek milliy ensiklopediyasi“dan)

Bosh kelishikdagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Otning gapdagi vazifasini ayting.



**nashtarsimon** — o‘tkir, sanchiladigan  
**sersharbat** — sharbati, shirasi ko‘p

**200- mashq.** Oybekning she‘rlaridan keltirilgan misralarni o‘qing. Bosh kelishikdagi otlarni so‘roqlar yordamida aniqlang.

1. Qushlar endi qochmangiz,  
Dil sirlarin ochmangiz.
2. Tog‘larga tushdi qor, vodiylarda quyosh!  
Bog‘larda bog‘bonlar ko‘madilar tok.

Mehnatning zavqida barcha keksa-yosh,  
Mo'l haddan tashqari olma, anor, nok.

Oxirgi to'rtlikni ko'chiring. Bosh kelishikdagi otlarning tagiga chizing.  
Bosh kelishikdagi ot tarkibida qanday qo'shimcha bor?

**201- mashq.** She'rni ifodali o'qing. Bosh kelishikdagi otlarni toping.

Ekkan tokim ko'chaga  
Fayz to'kdi bu yoz.  
G'uj-g'uj bo'lib mevasi  
Tovlanar qiyg'os.

Kuylasam sho'x ovozim,  
Jaranglab ketar sozim.  
Xush kuz, qish, bahor, yozim,  
Mustaqillik yashasin!

Bosh kelishikdagi otlar tarkibida qaysi qo'shimchalar bor?



Bosh kelishikdagi otning tarkibida qaysi qo'shimchalar ishtirok etishi mumkin?



**202- mashq.** „O'qish kitobi“dagi „Oltin kuz“ matnini o'qing. Bosh kelishikdagi ot qatnashgan ikkita gapni ko'chirib yozing. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga chizing.

### Qaratqich kelishigi

**203- mashq.** Matnni o'qing. Ajratilgan otlarga so'roq bering. Ular qaysi kelishikda qo'llangan?

Oftob bo'lsa qanday soz,  
**Qushlarning** to'yi qizir.  
O'ynoqi **ariqlarning**  
Yoqimli kuyi qizir.

*Habib Rahmat*

Qaratqich kelishigidagi otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?  
*To'yi, kuyi* so'zlari qanday ma'noda qo'llangan?



**204- mashq.** Matnni o'qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni aniqlang. Kelishik qo'shimchasi otni qaysi so'z bilan bog'lagan?

Barnoning lunjlari osildi. U buvisining oldiga keldi:

— Buvi, Munira yomon qiz ekan. Ko'chamizdagi gulni ko'chirib ketdi.

— Munira ko'chamizning fayzini buzibdi-da, — dedi buvisi. Shu kuni Barnoning chiroyi ochilmadi.

Kechga yaqin gulzorga kirdi. Gulsafsarning tagini yumshatdi, uni asta ko'chirib oldi. So'ng Munira ko'chirib ketgan gulning o'rniga o'tqazdi.

(*Latif Mahmudovdan*)



Qaratqich kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Qaratqich kelishigi qo'shimchasini tegishlicha belgilang.

Namuna: *Barnoning lunjlari*



**-ning** qo'shimchasi otni qaysi turkumdagi so'zlarga bog'laydi?

**205- mashq.** Berilgan otga mos otlar tanlab, birikma tarzida yozing.



Birikmalardagi qaysi so'zlar ko'chma ma'noda qo'llangan?



**206- mashq.** She'rni o'qing va ko'chiring. Qaratqich kelishigidagi otni aniqlab, o'zak va qo'shimchalarni tegishlicha belgilang.

SOVUQ

Kechalari bildirmay  
Qirov bo'lib yog'asan,

O'ynoqi ariqlarning  
Ovozini bo'g'asan.

*Habib Rahmat*

**207- mashq.** Topishmoqni o‘qing, javobini toping va yoddan yozing.



Olmaning akasiman,  
Behining ukasiman,  
Surxon tomon yursangiz  
Mezbonning kattasiman.

Qaratqich kelishigidagi otlarning tagiga chizing.



Qaratqich kelishigidagi otlar gapning qaysi bo‘lagi bo‘lib keladi?

**208- mashq.** Matnni o‘qing. Qaratqich kelishigidagi otlarni aniqlang.

Gulnozning o‘zi aqlli qiz. U xolasining uyiga borsa, jim o‘tirmaydi. Uylarni yig‘ishtiradi.

Bir kuni xolasi Gulnozni o‘zi ishlaydigan fabrikaga olib bordi. U yerda ayollar bolalarning ko‘ylaklarini tikishayotgan edi. Gulnoz chevarlarning ishini kuzatdi.

Tikuvchilardan biri ko‘ylakning yoqasini, ikkinchisi yonini tikardi. Gulnoz ko‘ylakni bir kishi tikadi deb o‘ylardi. Endi bilib oldi, bitta ko‘ylakni bir necha kishi tikar ekan.

Gulnoz ko‘ylagini kir qilmasdan kiyishga ahd qildi.

*Xayriddin Saloh*

Qaratqich kelishigidagi otni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chiring.

**209- mashq.** Qaratqich kelishigidagi otga mos otlar topib, birikma tuzing va yozing.





**210- mashq.** Qambar O'tayevning she'rlaridan keltirilgan misralarni o'qing.

1. Vatanning har farzandi  
Yurtga mehr qo'yadi.
2. O'zbekiston paxtasi  
Hamma tog'ning otasi.
3. Vatanning har bir qarich  
Yerini yashnataylik.
4. Avlodlarning sendan talabi —  
Ko'chat ek, ko'chat.  
Tabiatning bo'lib posboni,  
Ko'chat ek, ko'chat.

Ko'chiring. Qaratqich kelishigidagi otlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga tegishli chizing.

*Farzand, mehr* so'zlarining yozilishini yodingizda tuting.

### **Tushum kelishigi**

**211- mashq.** Matnni o'qing. Ajratilgan otlarga so'roq bering. Ular qaysi kelishikda qo'llangan?

### **KANAREYKA**

Rashid ayvonda **kanareykasini** tomosha qilib o'tirardi. O'rik tomondan boshqa kanareykaning ovozi eshitilardi. Qo'shnisi chap qo'lida bo'sh qafasni ushlagan u yoqdan bu yoqqa alaglardi. Rashid tezlik bilan **qafasini** hovliga olib chiqdi. Qo'lga **matrapni** oldi. Kanareyka qafasning ustiga qo'ndi. Rashid matrapni qushning ustiga tashladi. U qushni qo'lga oldi-da, uyiga qarab chopdi.

*Sh. Mamajonov*

Tushum kelishigidagi otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi? Tushum kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring.



**matrap** — bedana, kaptar tutish uchun ishlatiladigan asbob, to‘r

**212- mashq.** O‘qing. Tushum kelishigi so‘roqlariga javob bo‘lgan otlarni aniqlang.



Biz Kamalaktog‘ etaklariga o‘tovlarni tikdik. Bu yerda sayohatga chiqqan bolalarni uchratdik.

Men tunda safarda foydalaniladigan maxsus xalta-to‘shakni to‘shab yotdim. Ertalab nonushtadan so‘ng shifokor yigit bizlarga yigirma xil dorivor giyohlarni ko‘rsatdi. Fotohavaskor o‘qituvchi bu yerda yashaydigan turli hayvonlarning suratlarini olgani haqida so‘zladi. Men esa yon daftarimni bu yerlardan olgan taassurotlar bilan to‘ldirdim.

*A. Aminov*

Tushum kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma shaklida ko‘chiring. Tushum kelishigi qo‘shimchasini tegishlicha belgilang. Tushum kelishigi qanday vazifa bajaryapti?

**213- mashq.** Berilgan fe‘llarga mazmunan mos keladigan tushum kelishigidagi otni tanlab, birikma shaklida yozing.



1. Tushum kelishidagi otlar qanday so‘roqlarga javob bo‘lyapti? 2. Tushum kelishigi qo‘shimchasi otni qaysi so‘z turkumiga bog‘laydi? 3. Tushum kelishigidagi otlar gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi?



**214- mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping.

1. Ular ikki qirg‘oqni,  
Yaqin qilar yiroqni.



2. Ko‘rinmasdan oqadi,  
Chiroqlarni yoqadi.
3. Yerga tushsa loy qilar,  
Dehqonlarni boy qilar.

Tushum kelishigidagi otlarni so‘roqlar yordamida aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Tushum kelishigidagi otning gapdagi vazifasini aniqlab, tagiga chizing.

**215- mashq.** Matnni o‘qing. Matndan nimalarni bilib oldingiz?

Tabiatni va jonivorlarni asrash hamda ko‘paytirish maqsadida respublikamizda o‘nga yaqin qo‘riqxonalar tashkil etilgan. Bular orasida eng kattasi Hisor qo‘riqxonasidir.

Bu yerda qor va ko‘llarni, tiniq va loyqa oqimli asov soylarni, yilda bir bor inson qadami tegadigan so‘qmoqlarni, ulkan daraxtlarni, nodir o‘simliklarni, chuqur daralarni, sirli g‘orlarni, kamyob parrandalarni, zangori yaylovlarni uchratasiz.

*A. Aminov*

Tushum kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Uning gapdagi vazifasini ayting.

**216- mashq.** Matnni o‘qing. So‘roqlar yordamida tushum kelishigidagi otlarni toping. Ularni o‘zi bog‘langan fe‘l bilan alohida-alohida birikma tarzida ko‘chiring.

## HAYVONOT BOG‘IDA

Yakshanba kuni dadam bilan hayvonot bog‘iga bordik. U yerda turli hayvonlarni, xilma-xil qushlarni, baliqlarni va boshqa jonivorlarni ko‘rdik.

Hayvonot bog‘ida cho‘milayotgan oq ayiqni, chiroyli patli tovusni, sakrab, yugurib yurgan maymunni, uxlab yotgan sherni tomosha qildik.

(„G‘uncha“dan)

Matndan *chiroyli* soʻziga maʼnodosh boʻlgan soʻzlarni toping. Shu soʻzlarga qarama-qarshi maʼnoli soʻz keltiring.

**217- mashq.** Berilgan tushum kelishigidagi otga mos feʼllar topib, birikma tuzing va yozing.



**218- mashq.** Sheʼrni ifodali oʻqing. Husnixat bilan koʻchiring. Tushum kelishigidagi otlarni soʻroqlar yordamida aniqlang. Tushum kelishigi qoʻshimchasini belgilang.

Onam jaji ukamni  
Alla aytib uxlatar.  
— Koʻzingni yum, — der, — bolam,  
Yoʻq sira ham xavf-xatar.

*Yoʻldosh Sulaymon*

Tuni bilan bulut qorni  
Elab chiqdi.  
Toʻqayzorni oq choyshabga  
Belab chiqdi.

*Tursunboy Adashboyev*

Tushum kelishigi otni qaysi soʻz turkumiga bogʻlagan?  
*Oq choyshabga* birikmasi qanday maʼnoda qoʻllangan?



**219- mashq.** 4- sinf „Oʻqish kitobi“da berilgan birorta asar matnidan tushum kelishigidagi otlarni topib, ularni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birga koʻchiring.

**220- mashq.** Nuqtalar oʻrniga mos kelishik qoʻshimchasini qoʻyib koʻchiring.

Anvar bola chogʻidan gulzor... (-ning, -ni) yaxshi koʻrardi.  
Maxdum... (-ni, -ning) oilasiga kelgach, bogʻcha... (-ni, -ning)

gulzor qismiga o'zi qaray boshladi. Gulzor... (-ning, -ni) sug'orish, o'tlar... (-ning, -ni) yulish vazifalari... (-ning, -ni) o'zi bajardi. Bolalar... (-ning, -ni) uyidan gul ko'chat va urug' olib, gulzor (-ning, -ni) boyitdi.

Yoz kunlari bolalar... (-ning, -ni) kapalak va tillaqo'ng'iz tutishga buyurdi. U ozor bermay, zaxmsiz kapalak keltirgan bola...(-ning, -ni) sabog'i...(-ni, -ning) o'rgatdi. Kapalak va tillaqo'ng'izlar... (-ning, -ni) gulzorga uchirib yuborardi.

(Abdulla Qodiriydan)

Qaratqich va tushum kelishigidagi otlarni o'zi bog'langan so'z bilan o'qing.

Qaratqich kelishigi va tushum kelishigi qo'shimchalari otni qaysi so'z turkumiga bog'laganini ayting.

*Saboq* so'ziga ma'nodosh so'zlar toping.



**zaxmsiz** — ozorsiz, jarohatsiz.

**221- mashq.** Nuqtalar o'rniga qaratqich yoki tushum kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib o'qing.

Bir kuni Oqiljon... dadasi uch-to'rt tup gul ko'chati.. ko'tarib keldi.

— Qani, o'g'lim, qarashib yuboring, ko'chatlar.. eka-miz, — dedi dadasi.

— Xo'p bo'ladi, — javob berdi Oqiljon.

Oqiljon suyunib ketdi. Dadasi chuqurcha qazidi. Oqiljon suv quyib turdi. Har bir chuqurchaga gul ko'chati.. qo'yib, ustidan tuproq.. tortdi.

Oqiljon hovlida o'ynab yurib, ko'chatlar... barg yozganini ko'rib qoldi. U o'z ishidan quvonib ketdi.

(Hamza Imonberdiyevdan)

**222- mashq.** Berilgan so'zlarga mos otlar topib, ularni qaratqich yoki tushum kelishigida qo'llab, birikma tuzing.

\_\_\_\_\_ o'qidi, \_\_\_\_\_ bargi, \_\_\_\_\_ yozdi, \_\_\_\_\_ hov-  
lisi, \_\_\_\_\_ bog'i, \_\_\_\_\_ ko'rdi.



Otni qaratqich yoki tushum kelishigida qo'llaganingiz-  
da nimaga e'tibor berdingiz?

Qaratqich kelishigi otni otga bog'laydi. Tushum keli-  
shigi otni fe'lga bog'laydi.



**223- mashq.** Nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchasini qo'yib,  
tez aytishlarni yozing. Tez aytishni mashq qiling.

Tursun tog'am tovug'i... tuxumi.. tarozida tortmoqda.  
Toshkentlik Toshtemir... teshasi Toshloqlik Toshbolta...  
teshasidanmas.

Mashhura moshxo'rda..., Mastura moshuvra... pishirdi.

**224- mashq.** Matnni o'qing va reja tuzing. Reja asosida qayta hikoyalang  
va bayon yozing.

...Ibn Sino bir haftadan keyin saroyga keldi. Dori-darmonlar  
bemorga ta'sir qilganini ko'rdi. Binni Mansur ibn Sinoni  
ochiq chehra bilan qarshi oldi. Tabibga o'z minnatdorchiligini  
bildirdi. Ibn Sinoga nimani istasa, shuni bermoqchi bo'ldi.

Ibn Sino saroyning kutubxonasida mutolaa qilish uchun  
ijozat so'radi.

Podsho puldan ilmni afzal ko'rgan olimga kutubxonadan  
foydalanishga ruxsat berdi.

*Mirkarim Osim*

### Jo'nalish kelishigi

**225- mashq.** She'rni ifodali o'qing. Ajratilgan otlarga so'roq bering.  
Ular qaysi kelishikda qo'llanganini ayting.



Chaman-chaman **gullarga**,  
Sayroqi **bulbullarga**,  
Ko'kni quchgan **uylarga**,  
Baxt keltirgan **to'ylarga**,  
Quvnoq va sho'x **kuylarga**  
Joydir go'zal **Vatanim**,  
Boydir go'zal **Vatanim**.

*Po'lat Mo'min*

Ko'chiring. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasini belgilang.  
Jo'nalish kelishigidagi otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?  
*Ko'kni quchgan* birikmasi qanday ma'noda qo'llangan?  
*Baxt, sho'x* so'zlarining yozilishini yodingizda tuting.

**226- mashq.** Matnni o'qing. Jo'nalish kelishigi so'roqlariga javob bo'lgan otlarni toping. Ularni ko'chirib, o'zak va qo'shimchalarini belgilang.

## CHUMCHUQ BOLASI

Boboxon chumchuq bolasini rosa qiynadi. Suvga solib suzdirdi. Ikki qanotini yoyib hilpillatdi. Keyin ikki **oyog'iga** ip bog'lab, ko'chaga olib chiqdi. Boboxon chumchuqni Tal'atga yarimta o'chirg'ich bilan qizil qalamga almashdi.

Tal'at chumchuqchanning oyog'idagi ipni avaylab yechdi. Keyin osmonga qo'yib yubordi.

*(O'ktam Usmonovdan)*

Tal'atning o'rnida bo'lganingizda siz nima qilgan bo'lar edingiz?



**Jo'nalish kelishigidagi otni qanday aniqlaysiz?**



**227- mashq.** Tengdoshlaringiz ijodidan berilgan she'rni o'qing. Otlarni topib, qaysi kelishikda ekanini ayting.

## YOMG'IR

Yomg'ir yog'di dalaga,  
Qushlar qochdi panaga.

Qirdagi qizg'aldoqlar  
Qolib ketdi jalada.

*Shohruh Ubaydullayev*

Ko'chiring. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasini tegishlicha belgilang.  
O'zingiz ham she'r yozishni mashq qilib ko'ring.

**228- mashq.** She'rni ifodali o'qing. Ajratilgan otlarga so'roq berib,  
ularning qaysi kelishikda ekanini ayting.

### NODIR QISHLOQQA BORDI

Nodir borib **qishloqqa**  
Alanglaydi har yoqqa.  
Ma'raydi barcha **hayvon**,  
**Nodir** boqadi hayron.  
O'zini qo'lga oldi,  
Aqlini ishga soldi.  
Go'sht berdi **qo'zichoqqa**,  
Tuxum berdi **buzoqqa**.  
**Mushukka** tashladi o't,  
**Xo'rozboyga** berdi sut.  
Suyak tashladi **otga**,  
Po'choqni berdi **itga**.  
Hayvonlar yemas ovqat,  
Nodir-chi,  
Bo'lar diqqat.

*Rauf Tolib*

Jo'nalish kelishigi qo'shimchalari qo'shilgan otlarni ko'chiring.  
Kelishik qo'shimchalarini belgilang va ularning yozilishiga e'tibor bering.  
Nodir qanday xatolarga yo'l qo'ydi?



Jo'nalish kelishigi qo'shimchalari qanday shakllarga ega?  
-**ka** shakli qaysi tovush bilan tugagan otlarga qo'shiladi?  
-**qa** qo'shimchasi-chi?  
-**ga** qo'shimchasi-chi?

229- mashq. Berilgan otga mos soʻz topib, birikma tuzing.



230- mashq. Sheʼrni oʻqing va koʻchiring.

Rizvon xola qoʻshniga  
Chiqqanida elakka.  
Kamzulinig tugmasi  
Tushib qoldi yoʻlakka.  
Chumolilar toʻplanib,  
Majlis qurar shoshilib,  
— Bir, ikki, uch, koʻtardik  
Tegirmonning toshini.

*Tursunboy Adashboyev*

Joʻnalish kelishigidagi otlarni aniqlang.

Otlarga joʻnalish kelishigi qoʻshimchalarining **-ga, -ka, -qa** shaklida qoʻshilish sababini ayting.

Nima uchun chumolilar tugmani *tegirmonning toshi* deb oʻylashdi?



231- mashq. Matnni oʻqing.

### TUPROQQA SALOM

Oʻtqazilgan nihollar soʻlgʻinlashib, yerga bosh **egishdi**.  
Bu holni payqagan Oydin dadasidan soʻradi:

— Nihollarga **nima boʻldi**?

— Koʻchatlar yerga — tuproqqa **salom berishyapti**. Ular boshqa tuproqdan keltirildi. „Bizni bagʻringga **olganing** uchun rahmat“ deb taʼzim qilishyapti,— dedi dadasi.



Oydin keyingi kun o‘tqazilgan nihollarning ko‘kka **bo‘y cho‘zib** yashnab turganini ko‘rdi. Shunda u tuproqqa **salom bergan** nihollarga quvonch bilan boqdi.

(Oltmish O‘sarovdan)

Jo‘nalish kelishigidagi otlarni ajratilgan so‘zlar bilan birga ko‘chiring. Otlarga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi nima uchun **-ga, -ka, -qa** shaklida qo‘shilganini tushuntiring.

*Bag‘ringga* so‘zida qanday tovush o‘zgarishi yuz bergan?

**232- mashq.** Berilgan fe‘lga mos ot tanlab, birikma tuzing va yozing.



Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi otni qaysi turkumdagi so‘zga bog‘laydi?

**233- mashq.** Nuqtalar o‘rniga **-ga, -ka, -qa** qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib o‘qing. Jo‘nalish kelishigidagi otlarning aytilishi va yozilishidagi farqni tushuntiring.

Yangi yilda o‘yimiz,  
O‘ssa osmon bo‘yimiz,  
Ko‘k.. tegsa archamiz,  
Oy.. qo‘nsa sharchamiz,  
Oy aylansa saroy..  
Oyda o‘ynasak poy..  
Minishib yulduz toy..

*Quddus Muhammadiy*

Ilindi Cho‘rtan  
Qarmoq..  
Kimdir tortqilar  
Qirg‘oq..  
Bolalar turdi  
Oyoq..  
— Onajon, to‘xtang!  
Qayoq..?!

*Anvar Obidjon*

Jo‘nalish kelishigidagi otlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Jo‘nalish kelishigidagi otlarning tagiga tegishlicha chizing.

„Onajon, to‘xtang!“ nimaning gapi?



Jo'nalish kelishigidagi otlar gapda qaysi bo'lak vazifasida keladi?

**234- mashq.** O'qing. Berilgan otlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'shib, so'zlarni ko'chiring.

Qarmoq, terak, fazo, maktub, o'roq, tilak, taroq, quyosh, ohang, avlod, suhbat, ko'zgu, guruh, tog', jarroh.

Shu so'zlardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.



**235- mashq.** Nuqtalar o'rniga jo'nalish kelishigi qo'shimchalaridan mosini qo'yib, topishmoqlarni o'qing va javobini toping.



1. Bir parcha patir  
Olam.. tatir.
2. Ko'k ko'ylak.. qo'l yetmas.
3. Ko'k ko'ylak.. g'o'za yoydim.
4. Boshi o'xshar taroq..  
Dumi o'xshar o'roq.. .

Ko'chiring. Jo'nalish kelishigidagi otlarning tagiga chizing.

### O'rin-payt kelishigi

**236- mashq.** O'qing. Ajratilgan otlarga so'roq bering. Ular qaysi kelishikda qo'llangan?

**Anvarda** ertak kitoblar ko'p. Bir **kitobida** „O'rmonga nega o't ketdi?“ ertagi bor. Anvar uni o'rtoqlariga gapirib berdi:

— Qadim zamonda bepoyon **o'rmonda** turli jonzoqlar inoq yashar ekan. Sichqon **oftobda** erkalanib yotgan mushukning **bag'rida** o'ynarkan. Bo'ri qo'zichoqni o'z bolasidek yalab-yulqar ekan. Tulki jo'jalarni don-dun bilan siylarkan. Yo'lbars kiyik bolalarini yelkasiga mindirib, **qirlarda** sayr qildirar ekan...

Anvar shu yerga kelganda ertakni to'xtatdi.

Bolalar, ertakni siz og‘zaki davom ettiring.  
O‘rin-payt kelishigidagi ot qatnashgan gaplarni ko‘chiring. O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini belgilang.  
*Bepoyon* so‘ziga ma‘nodosh so‘z toping.



O‘rin-payt kelishigidagi otlarni qanday aniqlaysiz?

**237- mashq.** O‘qing. O‘rin-payt kelishigidagi otlarni aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.


## JO‘RCHI

Jo‘rchi respublikamizning sahrolarida va tog‘ etaklarida, Amudaryo sohillarida, Qarshi cho‘lida uchraydi. Tog‘larda 1600—1700 metrgacha balandlikda yashaydi. Afrika va Osiyoda qishlaydi. Jo‘rchilar O‘zbekiston janubiga mart oyi boshlarida uchib keladi. Yerdan yaxshi yuradi. U respublikamizdan sentabrda uchib ketadi.

*A. Madrahimov*



**238- mashq.** Berilgan fe‘lga mos ot tanlab, birikma tuzing.



O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi otni qaysi turkumdagi so‘zga bog‘laydi?

**239- mashq.** Maqollarni o‘qing. O‘rin-payt kelishigidagi otlarni so‘roqlar yordamida aniqlang, ularni o‘zi bog‘langan fe‘l bilan ko‘chiring.

Odob bozorda sotilmas.

Kattaga hurmatda bo‘l,  
Kichikka izzatda bo‘l.

O'tloqda bedana ko'p,  
Dangasada bahona ko'p.  
Oltin o'tda bilinadi,  
Odam mehnatda bilinadi.  
Hunar bo'lsa qo'lingda,  
Non topilar yo'lingda.

**240- mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini toping.



1. U bahorda unadi,  
Yozda kuchga to'ladi.  
Kuzda pishib yetilib,  
Tog'-tog' xirmon bo'ladi.
2. Tog'da, bog'da yashaydi,  
Qishda, yozda yashnaydi.

Ko'chiring. O'rin-payt kelishigidagi otlarni so'roqlar yordamida aniqlang, qo'shimchasini belgilang.



O'rin-payt kelishigidagi ot gapda qaysi gap bo'lagi bo'lib keladi?

**241- mashq.** Matnni o'qing. So'roqlar yordamida o'rin-payt kelishigidagi otlarni aniqlang. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring.

### SAYYOHLAR DARAXTI

Amerikada, Braziliyada sayyohlar daraxti deb nomlangan ajoyib daraxtni uchratish mumkin. Bu daraxtda shox bo'lmaydi, yo'g'on tanasidan katta-katta barglar chiqaradi. Barglarining tuzilishi yelpig'ichga o'xshaydi. Bargning tanaga tutashgan joyida chuqurcha bo'lib, bu yerda hamisha suv turadi. Chanqab kelgan sayyohlar ana shu suvdan ichib, yana yo'lda davom etaveradilar.

*N. Rahmatov*



**242- mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalarini qo'yib ko'chiring.

Bolarilar bog'lar..

**Quvnab qo'shiq aytishar.**

O'ynab bo'lishgach, uy..

Asal olib qaytishar.

Ko'chiring. Jo'nalish va o'rin-payt kelishigidagi otlarning gapdagi vazifasini belgilang.

Ajratilgan misra qanday ma'no bildiriyapti?



### Chiqish kelishigi

**243- mashq.** Maqollarni o'qing. So'roqlar yordamida chiqish kelishigidagi otlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Shirin so'z boldan shirin. 2. Kitobdan yaxshi do'st yo'q.
3. Yurtidan ayrilganni yov chopar. 4. O'z mehnatidan non yegan kishi, Hotam minnatidan ozod yoz-qishin. 5. Olamdan g'amsiz o'tay desang, ilm-u hunar o'rgan.

Otlardagi chiqish kelishigi qo'shimchasini tegishlicha belgilang.

**244- mashq.** Berilgan fe'lga mos otlar toping. Uni chiqish kelishigida qo'llab, birikma tuzing va yozing.



Chiqish kelishigi otni qaysi so'z turkumiga bog'layapti?



Chiqish kelishigidagi otlarni gapda qanday aniqlaysiz?  
Chiqish kelishigi qo'shimchasi otni qaysi so'z turkumiga bog'laydi?





**245- mashq.** Matnni o'qing. Chiqish kelishigidagi otlarni aniqlang.

Qadim zamonlarda hozirgiga o'xshash ruchkalar bo'lmagan. Qamishdan, daraxtlarning novdasidan, qushlarning patidan yasalgan ruchkalardan foydalanganlar. Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari bobolarimiz ham shunday ruchkalarda kitob yozganlar.

Qanaqa ruchkadan foydalanilmasin, faqat yaxshi narsani yozish kerak. Yaxshi so'zlarning umri boqiy bo'ladi.

*Oqiljon Husanov*

Ko'chiring. Chiqish kelishigi qo'shimchalarini tegishlicha belgilang.



**boqiy** — abadiy, mangu, o'lmas

**246- mashq.** O'qing. Chiqish kelishigi so'roqlariga javob bo'lgan otlarni aniqlang.

Sizga salom oyimdan,  
Bobom hamda dadamdan.  
Atrofimda chug'urlab,  
Salom aytmoqda Hamdam.

*Yo'ldosh Sulaymon*

Bobom derlar uqtirib:  
— Yerning tili bor, bolam,  
Hali yer-la so'zlashish,  
Yoshsan, kelmas qo'lingdan.  
Yer tilini o'rgansang,  
Chechak unar yo'lingdan.

*Tolib Yo'ldosh*

Ko'chiring.

Chiqish kelishigidagi otlarning so'rog'ini qavs ichida ko'rsating, qo'shimchasini belgilang.



## 14- yanvar — Vatan himoyachilari kuni

*Vatan, ardoqlading farzandlaringni,  
Farzandlar saqlaydi sarhadlaringni.*

*Jumaniyoz Jabborov*

**247- mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping. Chiqish kelishigida qo‘llangan otlarni so‘roqlar yordamida aniqlab, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ayting.



1. Olti oyoq-qo‘li bor,  
To‘r to‘qiydi ipakdan.  
Tanasi dum-dumaloq,  
Qolishmaydi pufakdan.

*M. Yunusaliyev*

2. Oyog'i yo'q, qo'li yo'q,  
So'zlamogga tili yo'q.  
Uni sevar el jondan,  
Xabar berar jahondan.

*Toshpo'lat Xolmatov*

Ko'chiring. Chiqish kelishigidagi otlarning talaffuzi va yozilishini taqqoslang, farqini ayting.



**Nima uchun ba'zi otlarda -dan qo'shimchasi -tan tarzida aytiladi?**



**248- mashq.** Po'lat Mo'min she'rlaridan keltirilgan misralarni o'qing. Ularning nima haqida ekanini ayting.

1. Kim hunarsiz, kim bekor,  
O'qish, ishdan qilsa or.  
Unga loyiq maqol bor:  
— Bekorchidan el bezor.
2. Donolar so'zi bor, unutmam,  
Mehnatdan—hunardan baxt unar.
3. Qaynab chiqqan dilimdan,  
Aytay burro tilimdan,  
So'zing to'lsin ma'noga  
Hunarlardan, bilimdan.

Avval aytilishi yozilishiga mos kelgan chiqish kelishigidagi otlarni, keyin aytilishi yozilishiga mos kelmaydigan chiqish kelishigidagi otlarni ko'chiring.

**249- mashq.** Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib o'qing. Ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

Ubaydullo bobo bugun ish... sal kech qaytdi.

— Buvajon!

Malika odatdagidek bobosining quchog'i.. otildi.

— Jon qizim, senga va'da qilgan narsani olib kelolmadim, — dedi buvasi.

— Nega, buvajon?

— Kassir bank.. bora olmabdi.

— Kassir? Kim u?

— Kassir bankdan pul keltirib, xizmatchilarga tarqatadi.

— Voy, kecha biz oyim bilan bankalar.. pomidor tuzladik-ku!

— Banka emas, bank! Bank daromadlar jam bo'ladigan joy. Pulning uyi desam ham bo'ladi.

*Nomoz Sa'dullayev*

Otlardagi jo'nalish, chiqish kelishigi qo'shimchalarining aytilishi bilan yozilishini taqqoslang. Yozilishini bilib oling.



**daromad** — sof foyda, mablag'

**maosh** — xizmat, ish uchun beriladigan pul

**250- mashq.** Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, she'rni o'qing.

Qora qushlar qo'narlar,  
Majnuntol.... shoxi...  
Boshin suv.. egarlar,  
Boqmay sira ohiga.  
Rahmi kelib bulut... .  
Yig'lab to'kar yoshi... .  
Qushlar qochar, majnuntol  
Ko'taradi boshi... .  
Bulut.... orasidan  
Quyosh kulib qaraydi.  
Majnuntol.... yuvilgan  
Sochlari.. taraydi.

*Erkin Vohidov*

Kelishik qo'shimchalarini olgan otlarni o'zi bog'langan so'z bilan kelishiklar tartibida yozing.



**251- mashq.** Matnni o‘qing. Otlarni aniqlab, qaysi kelishikda ekanini ayting. Ularni kelishiklar tartibida yozing.

Namuna. B. k. *podsho*, ...

Podsho Beruniyni sinamoqchi bo‘libdi.

— Qani ayting-chi, men shu boloxonadagi to‘rt eshikning qaysi biri orqali tashqariga chiqishim mumkin?

Abu Rayhon Beruniy qo‘liga bo‘r va taxtacha olib, boloxonani o‘lchabdi. Bir parcha qog‘ozga allanimalarni yozibdi.

Podsho xonadan boshqa eshik ochdirib, tashqariga chiqibdi. Qaytib kelib qog‘ozdagi yozuvni o‘qibdi. Unda Beruniy: „Podsho to‘rt eshikning birontasidan ham tashqariga chiqmaydilar. Yangi eshik ochdirib, o‘shandan chiqadilar,“ deb yozgan ekan.

Yozgan otlaringizning o‘zak va qo‘shimchalarini belgilang.

**252- mashq.** She‘rni ifodali o‘qing. Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

### XO‘RAK

Xo‘rak izlab baliq..,  
Bordik suvsiz ariq.. .  
Yer.. ursam belkurak,  
Ancha chiqdi deng xo‘rak.  
Boqmay orqa-o‘ng tomon,  
Otib turdim do‘ng tomon.  
— Qancha bo‘ldi? — so‘radim.  
Do‘ng.. turgan O‘roz...  
— So‘rang, — dedi, — xo‘rak..  
Terib yegan xo‘roz... .

*Nurilla Ostonov*

*Xo‘rak* so‘ziga ma‘nodosh so‘zlar toping.

**253- mashq.** Rasmni kuzating. Berilgan so‘zlardan foydalanib, „Men onamga yordamchi“ mavzusida hikoyacha tuzing.



Foydalanish uchun so‘zlar: *bog‘chaga, ukamni, onamning, uyda, maktabdan, piyolalarni, dasturxonni, tarelka, qoshiq, artmoq, faxrlanmoq, xursand bo‘lmoq.*



**254- mashq.** Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

### YALPIZ

Yalpiz — xushbo‘y o‘simlik. Bu ajoyib o‘simlik.... O‘zbekistonda bir qancha xillari bor. Yalpizlar respublikamiz.... barcha viloyatlarida o‘sadi.

Erta bahorda ko‘karib chiqqan yalpiz.. terib, somsa yopishadi, chuchvara tayyorlashadi. Barra barglari.. taomlarga solishadi. Mahalliy aholi yalpiz.... barglari.. quritib, turshakka aralashtirishadi. Natijada ularga qurt tushmaydi.

Tibbiyotda yalpiz.... hamma turlari qo‘llanadi. Yalpiz nafas yo‘llari va ovqat hazm qilish a‘zolari.... faoliyati.. yaxshilaydi.

*Xushbo‘y* so‘ziga qarama-qarshi ma‘noli so‘z toping.

## OT YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

**255- mashq.** Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan otlarni ko‘chirib, o‘zak-qo‘shimchalarga ajrating.

Baxtli kunlar, rangin **gullar**  
**Quchog‘ida** tug‘ilding sen.  
Seni o‘ylab uzoq tunlar,  
Mijja qoqmas **chegarachi**,  
Senga ravon asfalt yo‘llar  
Qurayotir minglab **ishchi**.  
Senga atab maktab solar,  
**Binokorlar marmarlardan...**

*Quddus Muhammadiy*

So‘zlar tarkibidagi qaysi qo‘shimchalar so‘z ma‘nosini o‘zgartiryapti?  
Bu qo‘shimchalar qanday nomlanadi?

**256- mashq.** O‘qing. So‘zlarga mos so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring.

|           |              |           |              |
|-----------|--------------|-----------|--------------|
| sinf...   | <b>-chi</b>  | tennis... | <b>-zor</b>  |
| futbol... | <b>-zor</b>  | gul...    | <b>-kor</b>  |
| soat...   | <b>-dosh</b> | bino...   | <b>-dosh</b> |
| uzum...   | <b>-soz</b>  | parta...  | <b>-chi</b>  |

Berilgan so‘zlar qaysi turkumga oid? Hosil bo‘lgan so‘zlar-chi?



**257- mashq.** Berilgan so‘zlarni qatnashtirib, kichik hikoya tuzing.

Gul, gulchi, gulzor, suv, suvchi.

**258- mashq.** O‘qing. So‘zlarga qo‘shimchalarni qo‘shib ko‘chiring.

|              |  |             |
|--------------|--|-------------|
| g‘alla       |  | <b>-kor</b> |
| paxta        |  | <b>-zor</b> |
| makkajo‘xori |  |             |

Shu qo‘shimchalar bilan qo‘llangan so‘zlarni yozishni davom ettiring.  
Hosil bo‘lgan so‘zlarning ma‘nosini ayting.

**259- mashq.** O'qing. So'zlarga ot yasovchi qo'shimchalarni qo'shib ko'chiring.

ela — elak

kura — ...

tila — ...

beza — ...

tara — taroq

so'ra — ...

buta — ...

bo'ya — ...

Berilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga xos? Hosil bo'lgan so'zlar-chi? Qaysi so'zlar tarkibida o'zgarish bo'ldi? Nima uchun?

**-chi, -zor, -dosh, -kor, -k, -q — ot yasovchi qo'shimchalardir.**

**260- mashq.** Berilgan otlardan ma'nodoshlarini tanlab yozing.

Tilak, sovg'a, odam, bahor, kishi, orzu, tortiq, inson, niyat, istak, hadya, ko'klam, armug'on.

Shu so'zlar ishtirokida ikkita gap tuzing.

**261- mashq. -chi, -zor, -dosh, -kor** qo'shimchalari bilan ot yasang.

Namuna: *suv — suvchi...*

Yozgan so'zlaringizning ma'nosini tushuntiring. **-chi, dosh, -kor** qo'shimchalari qanday ma'noli so'zlar yasadi? **-zor** qo'shimchasi-chi?



**Ot yasovchi qo'shimchalardan so'ng qanday qo'shimchalar qo'llanadi?**



**262- mashq.** Matni husnixat bilan ko'chiring. So'roqlar yordamida otlarni aniqlang. Tarkibida yasovchi qo'shimchasi bo'lgan otlarning tagiga chizing.

Oltin kuz nurin to'kib,  
Paxtazorda yuribdi.  
Hasharchi Erkin bilan  
Yayrab suhbat quribdi.

*Quddus Muhammadiy*

*Oltin kuz* deganda nimani tushunasiz?



**263- mashq.** Birikmalarni o‘qing.

ko‘m-ko‘k o‘t                      ariqdan o‘t  
minishli ot                        koptokni ot

Bir xil shakldagi so‘zlarning ma’nosini ayting.



Tilda *ot*, *o‘t* so‘zlari nechta? Ular qaysi tomoni bilan bir-biriga o‘xshaydi? Nimasi bilan farq qiladi?

**264- mashq.** Matnni o‘qing. Ot yasovchi qo‘shimchali otlarni ko‘chiring. O‘zak va qo‘shimchalarni belgilang.

Hovuz bo‘yidagi supada uxlab qolgan Yorqintoy soat ikkilarda uyg‘ondi. Bu vaqtda suvchilar, traktorchilar paxtazordan chiqib kelishardi. Yorqintoy hovuzdagi suvda apir-shapir yuzini yuvdi-da, shiypondagi kichik xonaga kirib ketdi. U hovuz bo‘yidagi supada dam olayotgan paxtakorlarni deraza orqali kuzatib o‘tirdi. Taxminan soat to‘rtlarda shiyponga kelganlarning hammasi birin-ketin tarqalib, yana paxtazor oralab ketishdi. Tolzordagi supada faqat Burhon bobo bilan oshpaz Qo‘chqor amaki qoldi. Yorqintoy qishloq odamlarining mehnatkashligini yoqtirib qoldi.

(*Oqiljon Husanovdan*)

**265- mashq.** Berilgan so‘zlardan ot yasovchi qo‘shimchalar yordamida otlar hosil qiling. Ularning ma’nosini taqqoslang.

Namuna: *sinf* — *sinf*dosh...

Sinf, olma, suva, ista, bino, tarbiya.



**266- mashq.** She’rni ifodali o‘qing va ko‘chiring. Ot yasovchi qo‘shimchani topib, tegishlicha belgilang.

Qishda ham ko‘m-ko‘k shoxing,  
So‘lmaydi hech yaprog‘ing,  
Uying — archazor bog‘ing,  
Yashna-yashna, jon archa.

*Shukur Sa’dulla*

Yasovchi qo‘shimchalar qanday otlarni hosil qilgan?

## *Bilimingizni tekshiring!*



- Otlar gapda boshqa soʻzlar bilan nimalar yordamida bogʻlanadi?
- Kelishiklarning nomi, soʻrogʻi va qoʻshimchasini tartib bilan ayta olasizmi?
- Qaysi kelishik qoʻshimchasi otni otga bogʻlaydi?
- Qaysi kelishik qoʻshimchasi soʻzni faqat feʻlga bogʻlaydi?
- Bosh kelishikdagi otlar gapda qaysi boʻlak vazifasida keladi?
- Bosh kelishikdan boshqa kelishikdagi otlar gapda qaysi boʻlak vazifasida keladi?
- Qaysi qoʻshimchalar yordamida yangi otlar hosil qilinadi?

## **SIFAT — SOʻZ TURKUMI**

**267- mashq.** Matnni oʻqing. Matndagi chiziqchalar oʻrniga berilgan soʻzlardan mosini qoʻyib, qayta oʻqing. Fikr mazmuni qaysi holatda toʻliqroq ifodalanadi?

Ertalabga yaqin \_\_\_\_\_ shamol atrofni larzaga keltirdi. Togʻ choʻqqilarini \_\_\_\_\_ bulutlar oʻrab olgan edi. Dam-badam togʻ boshida chaqmoq chaqilar, goʻyo allaqanday \_\_\_\_\_ kuch osmon gumbazida \_\_\_\_\_ toshlarni yumalatib oʻynardi. Dam oʻtmay selning ovozi, \_\_\_\_\_ toshlarning sharaqlab oqib kelayotgani barala eshitildi.

*R. Rahmonov*

Matn mazmunini aniq va toʻliq ifodalashga xizmat qilgan soʻzlarga soʻroq bering. Ularni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan koʻchiring.

Qoʻyish uchun soʻzlar: *qop-qora, kuchli, qudratli, katta-kichik, xarsang.*



**Q a n d a y ? , q a n a q a ?** soʻrogʻiga javob boʻlgan soʻzlar nimani bildiradi va qaysi soʻz turkumiga kiradi?

**268- mashq.** She'ni o'qing va ko'chiring. Qanday?, qanaqa?  
so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.

|                         |                         |
|-------------------------|-------------------------|
| Saxiy ona tabiat        | Ko'k maysalar nish urib |
| Quchog'ida havo sof.    | Yerning baland-pastida. |
| Onda-sonda ko'rinar     | Go'zal bahor selkillab, |
| Nursiz, qizg'ish oftob. | Yetilar qor ostida.     |

*Qudrat Hikmat*

Sifatlar nimaning belgisini bildirgan?

**269- mashq.** Matnni o'qing. Qanday?, qanaqa? so'roqlariga  
javob bo'lgan so'zlarni o'zi bog'langan ot bilan  
ko'chiring.

Qor yog'yapti. Bolalarning beg'ubor qalbi daryoday to'lib-  
toshyapti. Bahorda ko'm-ko'k o'tloqlardan oppoq kapalaklarni  
ushlamoqchi bo'lganday har bir zarrachaga talpinishadi.

Qorning bir parchasi qizchanning oppoq hovuchiga qo'ndi.  
Qor qizchanning qo'lida tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi.

Bir zumda hamma yoq oq choyshabga burkandi. Bolalar  
oppoq qorlarni dumaloqlab, qorbo'ron o'ynashdi.

*(Jabbor Razzoqovdan)*

Sifatlar nimaning (narsa yoki shaxsning) belgisini bildiriyapti?  
*Beg'ubor* so'ziga ma'nodosh so'zlar topib yozing.



**Sifatlar gapda qanday bo'lak vazifasida keladi? Ularning  
tagiga qanday chiziq chiziladi?**



**270- mashq.** She'ni ichingizda ifodali o'qishga tayyorlaning.

|                          |                             |
|--------------------------|-----------------------------|
| Mitti, barra qo'zilarim, | Jingalak jun ko'rinishda    |
| Go'zal, sara qo'zilarim. | Go'yo nafis ipak kashta.    |
| Badanlari tagdo'ziday,   | Gard yuqtirmay ustingizga,  |
| Tunda osmon yulduziday.  | O'zim cho'pon bo'lay sizga. |

*Qambar O'tayev*

So'roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan  
birga ko'chiring.

**271- mashq.** Matnni o‘qing.

## ARCHA

Ko‘m-ko‘k archa ona tuproq bag‘ridan unib chiqadi. Quyoshning zarrin nurlarini emib o‘sadi. Uning yam-yashil rangi hech o‘zgarmaydi.

Archa qishning qahraton sovuq havosiga bardosh beradi. Bahorda ham sevimli libosini o‘zgartirmaydi. Faqat yangi novdalar chiqaradi. Kuzda ham o‘zining yashil to‘nini tashlamaydi.

*(Jabbor Razzoqovdan)*

So‘roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, gapdagi vazifasini tegishli belgilang.

*Novda* so‘zlariga ma‘nodosh so‘z toping.



**zarrin** — yarqiroq

**272- mashq.** Matnni o‘qing. So‘roqlar yordamida sifatlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

## O‘JAR BARG

Barglarning umri qisqa ekan. Kuz kelishi bilan qo‘ng‘ir tusga kirib, daydi shamolning hamlasiga dosh berolmay to‘kilisharkan.

... Bir o‘jar barg novdaga mahkam yopishib olibdi.

— Biz ona yerga singib, unga madad beramiz. Sharofatimiz bilan kelgusi yil yangi barglar ko‘karadi, sen yolg‘iz qolma, qor-bo‘ronlarda holing ne kechadi? — deyishibdi sheriklari. O‘jar barg o‘ylanib qolibdi.

*(Latif Mahmudovdan)*



**Sifatlar otga qanday bog‘lanadi?**

**Sifatlar otga ohang yordamida bog‘lanadi.**

**273- mashq.** She'rni yoddan yozing.

Bir tomoni keng o'tloq,  
Bir tomoni qorli tog'.  
Go'zal va nurli makon,  
Mening aziz qishlog'im.

*Safar Barnoyev*

So'roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, tagiga chizing. Sifatlar nimalarning belgisini bildiriyapti?



**274- mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini toping.



1. Kichik bir maydonchada  
Pirpirar ikki chiroq.  
Uning qoq o'rtasidan  
Kesib o'tgan katta tog'.
2. Yorug' kunni boshlaydi,  
Undan borliq yashnaydi.

Ko'chiring. Sifatlarning qaysi so'zga bog'langanini aniqlab, gapdagi vazifasini belgilang.

Topishmoqdagi qarama-qarshi ma'noli sifatlarni toping.

**275- mashq.** Maqollarni o'qing, ma'nosini tushuntiring.

To'g'ri odam egri so'zdan or qiladi.

Befoyda so'zni ko'p aytma, foydali so'zni ko'p eshitishdan qaytma.

Chin so'zni yolg'onga chulg'ama, chin ayta oladigan tilni yolg'onga bulg'ama. (*Navoiy*)

Ko'chiring. Sifatlarning otga bog'lanishini chizmada ifodalang.

N a m u n a : to'g'ri odam 

**276- mashq.** Matnni o'qing va ko'chirib yozing.

Azamatning dadasi tuvakda gul olib keldi. U juda xursand bo'ldi. Yashil bargli, qizg'ish, tikansiz gulning atrofidan ketgisi kelmay qoldi. Qarasa, gulning kichkina tugmachasi ham bor

ekan. Azamat uni uzib olmoqchi bo'ldi-yu, lekin yuragi dov bermadi. Yomon bolalargina shunday qilishadi. Azamat esa yaxshi bola.

*Zamira Ibrohimova*

So'roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, gapdagi vazifasini belgilang.



**277- mashq.** Matnni o'qing. Siz ham turnalarning parvozini kuzatganmisiz? Siz ham tartib-intizomga rioya qilasizmi? Ota-onangizning gapiga quloq solasizmi?

### ZUHRA BILAN TURNA

Zuhra quruq butalar orasida uzun bo'yli Turnani ko'rib qoldi. Qush sarg'ish-ko'kish ko'zlari bilan Zuhraga xavotirlanib boqardi. Juda chiroyli qush ekan, deb o'yladi Zuhra turnaga tikilib.

Zuhra shu kuni tush ko'rdi. Tushida o'sha kulrang patli Turna bilan uchrashdi.

U Turnaga savollar berdi:

— Turnajon, arqondek tizilib uchishni qayerdan o'rgan-gansizlar?

— Arqondek tizilib, tartib-intizom bilan uchishni ota-onalarimizdan o'rganganmiz, — dedi Turna.

*Oqiljon Husanov*

Sifatlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring.


Sifat qaysi turkumdagi so'zga bog'langan?

U gapda qanday vazifa bajargan?

**278- mashq.** O'qing. Birikmalardan qatnashtirib gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan matn hosil bo'lsin. Matnga sarlavha qo'yib yozing.

Ayyor tulki, katta tulki, oppoq qor, qalin qor, chiroyli archa, ko'm-ko'k archa, musaffo havo, sovuq havo.

**279- mashq.** Berilgan otga mos sifatlar topib, birikma tuzing va yozing.



Sifatlar qaysi turkumdagi so'zga bog'lanib keladi?

**280- mashq.** Berilgan sifat va otlardan foydalanib, birikma tuzing.

buyuk, ulug', katta, yirik;

olim, yozuvchi, bino, inson, davlat;

chiroyli, go'zal, barno, suluv, dilbar;

qiz, bola, yigit, kelinchak, shahar, diyor.

Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting.



Ma'nodosh sifatlarning har biri bitta ot bilan bog'lana oladimi?



**281- mashq.** Berilgan sifatlarga mos gul nomlarini topib, birikma tuzing.

Qizil, sariq, qora, pushti, oq, ko'k.

Birikmalar ishtirokida to'tta gap yozing.

**282- mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan sifatlarga berilgan sifatlar ichidan yaqin ma'nolilarini topib, namunadagidek yozing.

Namuna: ko'rkam, chiroyli, ...

**Ko'rkam, sezgir, katta, chaqqon, chiroyli, epchil, ziy-rak, ulkan, shod, jasur, xursand, qahramon.**

Berilgan sifatlardan qatnashtirib gaplar tuzing.

**283- mashq.** Birikmalardagi sifatlarning ma'nosini taqqoslang.

Qalin kitob — qalin o'rtoq, chiroyli gul — chiroyli nutq;  
og'ir tosh — og'ir bola, yaqin yo'l — yaqin dugona; o'tkir  
pichoq — o'tkir til, shirin tarvuz — shirin uyqu.

Ko'chiring. O'z ma'nosida qo'llangan sifatlarning tagiga chizing.  
Ko'chma ma'noda qo'llangan sifatlardan qatnashtirib, ikkita gap  
tuzing.



**Sifatlar qanday ma'nolarda qo'llanadi?**

**284- mashq.** She'rni o'qing. Sifatlarni aniqlab, qanday ma'noda  
qo'llanganini ayting.

Bir kuni qish kechasi  
Qattiq sovuq bo'lgandi.  
Daraxtlarning gavdasi  
Qalin qorga burkandi...

*Zafar Diyor*

*Qattiq, sovuq* sifatlarini o'z va ko'chma ma'noda qo'llab, birikmalar  
tuzib yozing.



**285- mashq.** O'qing. Sifatlarning ma'nosiga e'tibor bering.

Shirin bola, achchiq gap, og'ir qiz.

Birikmalardagi sifatlarni o'z ma'nosida qo'llab, gap tuzib yozing.

## SIFATLARNING MA'NO TURLARI

**286- mashq.** Sifatlarni ma'nosiga ko'ra guruhlang.

Keng, taxir, oppoq, kichkina, bepoyon, egri, cheksiz,  
qiyshiq, botir, tor, shirin, jasur, dumaloq, yam-yashil,  
saxiy, sho'x, aqlli, qip-qizil, achchiq, yapaloq.



| Rang-tus bildiruvchi sifatlar | Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar | Hajm bildiruvchi sifatlar | Shakl bildiruvchi sifatlar | Xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar |
|-------------------------------|--------------------------------|---------------------------|----------------------------|------------------------------------|
|                               |                                |                           |                            |                                    |

Ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli sifatlarini ayting. Sifatlarining yozilishini yodingizda tuting.



Sifatlar narsa va shaxslarning qanday belgilarini bildiradi?

Sifatlar shaxs va narsalarning rangini, mazasini, shaklini, hajmini va xil-xususiyatini bildiradi.

**287- mashq.** Sifatlarining ma'no turlariga misol topib, qatorlarni davom ettiring.

Rang-tus: *moshrang*, ...

Maza-ta'm: *nordon*, ...

Shakl: *qiyshiq*, ...

Hajm: *baland*, ...

Xil-xususiyat: *muloyim*, ...

**288- mashq.** Berilgan otlarga mos rang bildiruvchi sifatlar topib, birikma tuzing va yozing.

\_\_\_\_\_ qalampir, \_\_\_\_\_ piyoz, \_\_\_\_\_ kartoshka,  
 \_\_\_\_\_ pomidor, \_\_\_\_\_ karam, \_\_\_\_\_ lavlagi, \_\_\_\_\_  
 turp, \_\_\_\_\_ rediska, \_\_\_\_\_ kashnich, \_\_\_\_\_ bug'doy.

Sifatlar otlarga nima yordamida bog'langan?



**289- mashq.** Topishmoqni o‘qing, javobini toping va yoddan yozing.



Marjon-marjon yumaloq,  
Yaproqlari shapaloq,  
Qora, qizil, sariq, oq,  
Yeb ko‘rmasdan o‘ylab boq.

*G‘afur G‘ulom*

Sifatlar qaysi narsaning belgisini bildiryapti? Sifatlarni toping. Rang bildirgan sifatlarning tagiga chizing.

**290- mashq.** Berilgan otlarga mos maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar topib, birikma tuzing va yozing.

\_\_\_\_\_ olma, \_\_\_\_\_ behi, \_\_\_\_\_ anor, \_\_\_\_\_ sarimsoq,  
\_\_\_\_\_ olcha, \_\_\_\_\_ gilos, \_\_\_\_\_ dovuchcha, \_\_\_\_\_ limon,  
\_\_\_\_\_ malina.

Qarama-qarshi ma‘noli sifatlarni ayting.  
Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting.

**291- mashq.** Ertakni o‘qing. So‘roqlar yordamida sifatlarni topib, o‘zi bog‘langan ot bilan ko‘chiring.

### ASALNING YARATILISHI

Ari avval duch kelgan narsalarni tamaddi qilar ekan. Shirin, bemaza, achchiq, chuchuk narsalarni yeyish uni bora-bora noziklashtiribdi. So‘ng u o‘ziga ma‘qul taomni topmoqchi bo‘libdi. Kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilibdi. Nihoyat xushta‘m taom tayyor bo‘libdi.

Ari chidam bilan mehnat qilib, shifobaxsh va lazzatli taom — asalni yaratibdi.

(„O‘zbek xalq ertaklari“dan)

Maza-ta‘m bildirgan sifatlarning tagiga chizing. Maza-ta‘m bildiruvchi sifatlarning yozilishini yodingizda tuting. Shu so‘zlarning qaysi birida qanday xatoga yo‘l qo‘yishingizni ayting.



**292- mashq.** Topishmoqni o'qing, javobini toping. Husnixat bilan ko'chiring, sifatlarni topib, maza-ta'm bildirgan so'zlarning tagiga chizing.

Mayda, yoqutday qizil,  
Shirin, nordon, xilma-xil,  
Qalin, taxir po'sti bor,  
Hamma yerda do'sti bor.

*G'afur G'ulom*

Sifatlar qaysi narsaning belgisini bildiriyapti?

**293- mashq.** Topishmoqni o'qing, javobini toping. Shakl bildirgan sifatlarning tagiga chizing.



1. Dum-dum dumaloq,  
Yum-yum yumaloq.  
Ichi to'la havo-yey!  
Tepsam, otar shataloq.

2. Yo'li bor to'ppa-to'g'ri,  
Yurib-yurib o'taman.  
Men unga o'ng va chapdan  
Ko'chat ekib ketaman.

*Habib Rahmat*

**294- mashq.** O'qing. Sifatlarning ma'no turini aniqlang. Hajm bildirgan sifatlarni qatnashtirib, 2 ta gap yozing.

Baland, nordon, yassi, ozoda, tor, achchiq, sap-sariq, past, uzun, qisqa.

**295- mashq.** Matnni o'qing. So'roqlar yordamida sifatlarni topib, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring. Shakl bildirgan sifatlarning tagiga chizing.

Tusi va ta'mi turlicha bo'lgan, qattiq po'choq bilan qoplangan mevalar yong'oq deb ataladi.

Ko'pchilik oddiy yong'oqni xush ko'rib iste'mol qiladi. Uning burushiq mag'zi silliq po'choq bilan qoplangan.

Qadim zamonlarda Sharq hukmdorlari yong'oqni u o'smaydigan yurtlarning podsholariga qimmatbaho sovg'a sifatida yuborishgan. („*Gulxan*“dan)

*Burushiq, och malla, qimmatbaho* sifatlarining yozilishini yodingizda tuting.



**296- mashq.** Matnni o'qing. So'roqlar yordamida sifatlarni aniqlab, o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring.

Bir kuni chittakka baxt kulib boqdi.

Qishning o'rtalarida chittak chumchuqning bo'sh inini topib oldi. Inga yumshoq momiq to'shalgan edi. U uchirma bo'lgandan beri birinchi marta iliq va bexavotir joyda uxladi. Erta tongda chumchuqlarning shodon ovozi chittakni uyg'otib yubordi. („*G'uncha*“dan)

Sifatlarning gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang.

**297- mashq.** O'qing. Avval shaxslarning xususiyatini, keyin narsalarning xususiyatini bildirgan sifatlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

## TEMUR BOBOM

Temur bobom —  
Buyuk bobom,  
Ellararo  
Suyuk bobom.  
Dono, a'lo,  
Oqil bobom,  
Adolatli  
Odil bobom.

*Mamajon Xoliqov*

## JAYRONLAR

O'rmonda ochko'z bo'ri  
Ko'rindi-yu nogahon,  
Shu ondayoq ekranda  
Bo'lib ketdi to'polon.  
Yuvosh jonivorlarni u  
Quva ketdi tish g'ajib.  
Eh, ishqilib jayronlar  
Qutulgan bo'lsin qochib.

*Ollobergan Po'lat*

Ikkala bo'g'inida ham u unlisi yoziladigan sifatlarni ayting.  
*Oqil va dono; adolat va odil* sifatlarining ma'nosini tushuntiring.



## Xususiyat bildirgan sifatlar nimalarning belgisini bildiradi?

**298- mashq.** O‘qing. So‘roqlar yordamida sifatlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring. Xususiyat bildirgan sifatlarning tagiga chizing.

Bir kishi ombor atrofida yotgan chigitlarni sigiriga beribdi. Ular ichidan bitta chigit qochib omborga boribdi. Inoq chigitlar orasiga kirib, uyquga ketibdi. Chigitlar bahorgacha uxlabdilar. Bahorda mehnatkash dehqonlar chigitlarni yuvintirib, cho‘miltirib dalaga ekibdilar. Hademay shosh-qaloq chigitlar ko‘m-ko‘k g‘o‘zalarga aylanishibdi. Ular oppoq paxta bo‘lib ochilishibdi.

Oxurdan qochgan chigit paxtalar orasida yotgan mitti chigitlarga nasihat qilibdi:

— Chigitlar, bir-biringizdan aslo ajralmanglar. Ajralganni sigir yeydi.

*(Aziz Abdurazzoqdan)*



**299- mashq.** 4- sinf „O‘qish kitobi“dagi Abdurahmon Jomiyning „Sodda qishloqi va uning eshagi qissasi“ asarini o‘qing. Dehqon va uning eshagiga xos bo‘lgan xususiyat bildirgan sifatlarni ko‘chiring. Eshagini sotmay qaytarib ketgan dehqon haqida qanday fikrdasiz?

**300- mashq.** Matnni o‘qing. Rassom shu matn mazmuniga mos rasm chizishda qaysi so‘zlarga alohida e‘tibor bergan bo‘lardi?

Mashina to‘xtashi bilan Vohidni yalangoyoq, yalangbosh bolalar qurshab oldilar.

Vohidni ota-bobolaridan qolgan kekxa tutning tagida onasi qarshi oldi. Onasi — Rizvon xola ko‘kimtir, guldor ko‘ylak kiygan. Boshiga oppoq ro‘mol o‘ragan, oyog‘iga chiroyli amirkon kavush kiygan edi. Chetroqda ayvonning ustuniga

suyanib singlisi turardi. U ilgarigi sho‘x, quvnoq, erka Zarifa emas. Oppoq, yumaloq yuzi uyatdan qizarib turgan chiroyli qiz edi.

*Odil Yoqubov*

Sifatlarni so‘roqlar yordamida aniqlang, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring va gapdagi vazifasini ayting.

**301- mashq.** Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlardan bittadan tanlab, ularga xos belgilarni bildirgan sifatlarni to‘plang va birikma tarzida yozing.

Qora, ola, ola-bula, beozor, muloyim, sezgir, semiz, ozg‘in, mo‘ylovdor mushuk, ...



**302- mashq.** Xudoyberdi To‘xtaboyevning „Xatosini tushungan bola“ hikoyasidagi Qosimjonga xos xususiyatlarni ayting. Qosimjonning qaysi xususiyatlari sizga yoqmaydi? Sinfingizda Qosimjonga o‘xshash o‘quvchilar bormi? Sinfingizdagi birorta do‘stingizning xususiyatlarini yorituvchi hikoyacha yozing. Sifatlarning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

## SIFAT YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

**303- mashq.** Bir xil o‘zakli so‘zlarni o‘qing. So‘roqlar yordamida so‘zlarning qaysi turkumga oidligini aniqlang.

Meva, mevali, mevazor, mevasiz; ish, ishchi, ishli, beish, ishsiz, ishchan, ishla; hosil, hosildor, hosilsiz, serhosil, hosilli.

Har bir so‘zdan nechtadan so‘z hosil bo‘lyapti?

Sifat turkumiga doir so‘zlarni ko‘chirib, tarkibiy qismlarini belgilang. Qo‘shimchani ayting.

Namuna: *mevali*, ...

**-ser, -be, -siz, -li, -chan, -dor, -q** — sifat yasovchi qo‘shimchalardir.

**304- mashq.** Soʻzlarni oʻqing. Ularga maʼnodosh soʻzlar tanlab yozing.

Ishchan, hosildor, aqlsiz, harakatchan.

Sifatlarning tarkibiy qismlarini belgilang. Ularning qaysi qismi bir xil? Ular qaysi soʻz turkumiga kiradi? Soʻz maʼnolarini qaysi qism oʻzgartiryapti?

Tanlash uchun soʻzlar: *serhosil, mehnatkash, aqlli, harakatchan.*



**Sifat turkumidagi soʻzlar qanday koʻpayib boradi?**

**305- mashq.** Berilgan sifatlarga qarama-qarshi maʼnoli sifatlar topib, juftlab yozing.

Gulli — \_\_\_\_\_, odobli — \_\_\_\_\_, unumli — \_\_\_\_\_,  
suvli — \_\_\_\_\_, ishli — \_\_\_\_\_.

Sifatlarni tarkibiy qismlarga ajrating. Qoʻshimchalar qanday vazifa bajaryapti? Sifat yasovchi qoʻshimchalarni tegishlicha belgilang.




**306- mashq.** Soʻzlarni oʻqing, ularning qaysi turkumga oidligini soʻroqlar yordamida aniqlang.

Koʻylak, hosil, aql, talab, rasm.

Berilgan soʻzlarga sifat yasovchi qoʻshimchalardan qoʻshib, yangi soʻzlar hosil qiling va yozing.

**307- mashq.** Soʻzlarning tarkibidagi oʻzgarishlarni bilib oling.



**308- mashq.** *Porla, chanqa* fe'llariga **-q** sifat yasovchi qo'shimcha qo'shib, sifatlar yasang. So'zlarda qanday tovush o'zgarishlari bo'ldi? Nima uchun?

**309- mashq.** Berilgan chizmadan foydalanib, sifatlar hosil qiling.

gul  $\begin{cases} -li \\ -dor \\ -siz \end{cases}$

ser-  $\begin{cases} \\ \end{cases}$  gul  
be-



So'z o'zagiga sifat yasovchi qo'shimchalar qanday qo'shilar ekan?



**310- mashq.** She'rni ifodali o'qing. So'roqlar yordamida sifatlarni topib, o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring.

Yashil archa ostida  
Yangi yilni qutlaymiz.  
Zo'r, zabardast qo'liga  
Guldastalar tutamiz.

Mana, jonli qo'shiqlar  
Qanotlandi dillardan,  
Hayajonli ohanglar  
Uchdi oltin qillardan.

*Zafar Diyor*

Sifat yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

**311- mashq.** O'qing. Sifatlarni toping. Avval yasovchi qo'shimchali sifatlarni, so'ng yasovchi qo'shimchasiz sifatlarni ko'chiring.

### TURG'UN BOBOM

Keng, bepoyon vodiylarni  
Ko'rkam yoz bezar.  
Tun qo'ynida Turg'un bobom  
Dalani kezar.

O'zi juda ishga chaqqon,  
Taniqli suvchi.



Uni sevar har dehqon,  
Har bir o'quvchi.

*J. Rahim*

Sifatlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chirib, ularning tagiga to'liqinli chiziq chizing.

**312- mashq.** Juftlab berilgan birikmalarni o'qing. Ma'nosidagi farqni ayting.

Katta bola — kap-katta bola.  
Yashil qir — yam-yashil qir.  
Oq ko'ylak — oppoq ko'ylak.  
Tiniq suv — ti-p-tiniq suv.  
Qizil mato — to'q qizil mato.  
Pushti gul — och pushti gul.



**Belgini kuchaytirib va ozaytirib ko'rsatadigan sifatlar qanday yoziladi?**

Sifatlar quyidagicha yoziladi:

chiziqcha bilan yoziladi: *to'ppa-to'g'ri, kap-katta;*

qo'shib yoziladi: *oppoq;*

ajratib yoziladi: *to'q qizil, och pushti.*

**313- mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini toping. Sifatlarni aniqlab, yozilishiga diqqat qiling.



1. Pak-pakana bo'yi bor,  
Yetti qavat to'ni bor.
2. Dum-dumaloq jajji oy,  
Chaqib yesang, g'ij-g'ij moy.
3. Yashil gumbaz ichida  
Qip-qizil xona.

Bir xil libos, teng bo‘yli  
Ming bir dugona.

Topishmoqlarni ko‘chiring.  
Sifatlarning tagiga chizing.



**314- mashq.** She‘rni ifodali o‘qing.

Ona-Vatanimizga  
Tip-tiniq osmon kerak.  
Biz yashagan zamonga  
Pokiza bog‘bon kerak.

Dum-dumaloq chigitcha  
O‘xshar jimit koptokka.  
Balki tug‘ma qarindosh  
Ona-yer-u oftobga.

*Qambar O‘tayev*

*Qudrat Hikmat*

Ko‘chiring.

Sifatlarni aniqlab, ularning qaysi so‘zga bog‘langanini chizmada tasvirlang.

Namuna: ko‘m-ko‘k osmon.

Sifatlarning yozilishini tushuntiring.

*Jimit, pokiza* so‘zlariga ma‘nodosh sifat toping.

**315- mashq.** Berilgan sifatlarni o‘qing. Yozilishini kuzating.

Qop-qora, bus-butun, bo‘m-bo‘sh, ko‘m-ko‘k, tip-tiniq, oppoq, top-toza, tim qora, to‘q qizil, eng kuchli.

Sifatlarga mos otlar tanlab, birikma tuzib yozing. Sifatlarning yozilishini yodingizda tuting.

**316- mashq.** Matnni o‘qing. Sifatlarni toping. Ularni o‘zi bog‘langan ot bilan ko‘chiring. Qavs ichida ma‘no turini yozing.

## BIR TUP QAYRAG‘OCH

Qishlog‘imizdagi anhor bo‘yida juda katta qayrag‘och bor. Uning qalin barglari yerga oftob tushirmaydi. Qayrag‘ochdagi qushlarning yoqimli ovozi sira tinmaydi.

Qishloqning bir tomoni — poyonsiz qir. U yerda bug‘-doylarning bo‘liq boshloqlari to‘lqinlanib turadi.

G‘allakorlar issiq kunlari shu qayrag‘och tagida hordiq chiqarishadi. Bu qayrag‘ochni qishlog‘imizning kekxa otaxoni Norbob o‘tqazgan ekan. Hamma Norboboning nomini hurmat bilan tilga oladi.

*Malik Murodov*

**317- mashq.** So‘zlarni o‘qing. So‘roqlar yordamida sifatlarni topib ko‘chiring.

Foydali, sersuv, guldon, aqlli, qaynoq, taroq, qanddon, o‘roq, qadrdon.

Sifat yasovchi qo‘shimchalarni tegishlixa belgilang.  
Sifatlari ishtirokida ikkita sodda gap yozing.

**318- mashq.** Matnni o‘qing. Savollar yordamida sifatlarni topib, o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Qoratosh ko‘m-ko‘k bargli o‘rik yonida yotardi. Uning ma‘yus ko‘zlari yig‘layotganga o‘xshardi. Qoratosh yonidan yaralangan edi. Juda baquvvat va chiroyli oyoqlari ancha ingichka tortib qolgan edi.

Qip-qizil lolaqizg‘aldoqlar ochilib tugagan kun eng yaqin do‘stimni yo‘qotdim.

*(Aziz Abdurazzoqdan)*

Belgi ma‘noni kuchaytirib ifodalayotgan sifatlarni ayting.  
Sifatlarning yozilishini tushuntiring.



**319- mashq.** 4- sinf „O‘qish kitobi“dagi Shukur Sa‘dullanning „Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she‘r“ asarini ifodali o‘qing. She‘rdan sifatlarni aniqlab, birikma tarzida ko‘chiring. Yozilishini yodingizda tuting. Oxirgi to‘rtlikni yod oling.

*Oq kaptar* nimaning ramzi ekanini ayting.

**320- mashq.** Rasmni kuzating. Rasm asosida insho yozing. Insho yozishda berilgan rejadan foydalaning.



Reja.

1. Qish faslida tabiatning ko‘rinishi.
2. Bolalar tabiat quchog‘ida.

***Bilimingizni tekshiring!***



- Sifatlar qanday ma’nolarni bildiradi?
- Sifat nimaning belgisini bildiradi?
- Sifat otga qanday bog‘lanadi?
- Sifat gapda qanday bo‘lak vazifasini bajaradi?
- *Yam-yashil, oppoq, kap-katta, tip-tiniq, to‘q qizil* sifatlari qanday yoziladi?

## SON – SO‘Z TURKUMI

**321- mashq.** Matnni o‘qing. So‘roqlar yordamida sonlarni toping.

### HISOBCHI

6, 8 va 10 yosh atrofidagi 3 bolakay baliq oviga chiqishdi. Qarmoqni suvga tashlashdi... Chelakni suvdan 30 qadam nariga qo‘yishdi. Tutgan baliqlarini chelakka olib borib solishdi.

— Qancha baliq tutdik? — so‘radi katta bola.

— Menimcha, 50 ta baliq tutdik, — dedi o‘rtanchasi.

Kenja bolani baliqni sanab kelishga yuborishdi.

Kenjatoy bor-yo‘g‘i 20 gacha sanashni bilardi.

(*Serik Boytuqayevdan*)

Sonlarni o‘zi bog‘langan ot bilan birga ko‘chiring. Raqamlarni harfiy ifodalar bilan yozing.

**322- mashq.** O‘qing. Sonlarni so‘roqlar yordamida aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

Italiyalik oshpazlar ulkan tort yaratishibdi. U dunyodagi eng katta tort sifatida „Ginnes rekordlari“ kitobiga kiritilgan. Tortning uzunligi 2 kilometr-u 396 metr. Uni tayyorlash uchun 500 kilogramm sariyog‘, 900 kilogramm shakar, 500 kilogramm olxo‘ri murabbosi, 14 000 ta tuxum ishlatilgan. Ulkan tortni tayyorlashda 200 kishi ter to‘kkan. (*„Gulxan“dan*)



**Necha?, qancha?, nechanchi?** so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar nimani bildiradi? Ular qaysi so‘z turkumiga kiradi?



**323- mashq.** Chiziqchalar o‘rniga sanalarni qo‘yib, matnni qayta o‘qing. Qaysi birida matn mazmuni to‘liq ifodalangan?

\_\_\_\_\_ - yil \_\_\_\_\_ - sentabr — Mustaqillik kuni.

\_\_\_\_\_ - yil \_\_\_\_\_ - noyabrda Davlat bayrog‘i haqidagi qonun tasdiqlandi.

\_\_\_\_\_ - yil \_\_\_\_\_ - iyulda O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi haqidagi qonun tasdiqlandi.

\_\_\_\_\_ - yil \_\_\_\_\_ - dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

\_\_\_\_\_ - yil \_\_\_\_\_ - dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilindi.

Sanalarni qo‘yib, matnni ko‘chiring. Ne ch an chi? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlarni ayting.

**324- mashq.** Topishmoq she‘mi ifodali o‘qing va ko‘chiring. Sonning gapdagi vazifasini ayting. Sonlarni aniqlab, tagiga chizing.



Bitta she‘rda sichqoncha  
To‘rt-besh harfni yeb qo‘ydi.  
Ma‘nosiga tushunmay  
Mazasi yo‘q, deb qo‘ydi.

*Qambar O‘tayev*

**325- mashq.** Ertakni o‘qing. So‘roqlar yordamida sonlarni toping.

Qadimda yurtimizga yog‘iylar hujum qilib, bo‘yi arava g‘ildiragidan baland yigitlarni o‘ldirar ekanlar. Shunday kunlarning birida aravasozning oldiga bir kishi kelib:

— Usta, mening 11 ta bolam bor. Kichigim 14 yoshga to‘ldi. Xalqimizda bunday farzandlar son-sanoqsiz... Yov odamlarni arava g‘ildiragi bilan o‘lchaydi. Farmon bering, yurt aravalarining g‘ildiragini 2 hissa kattalashtiraylik.

Usta rozi bo‘libdi.

Yurtda omon qolgan o‘smirlar 2—3 yilda voyaga yetibdilar. Ular vatanini dushmandan ozod qilibdilar.

*(Olloyor Begaliyevdan)*

Sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozing.



**yog‘iy** — dushman



Sonlar gapda qaysi turkumdagi soʻzga bogʻlanadi?  
Sonlar gapda qanday boʻlak vazifasida keladi?  
Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?



**326- mashq.** Matnni oʻqing. Soʻroqlar yordamida sonlarni topib, oʻzi bogʻlangan ot bilan birga koʻchiring. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozing.

## SHAXMAT TARIXIDAN

Shaxmat oʻyini bundan 1500 yil avval Hindistonda paydo boʻlgan. Uni dastlab „Chaturanga“ deb atashgan. Bu oʻyinda 4 kishi ishtirok etgan („chatur“ — toʻrt degani). Keyinchalik oʻyinda 2 kishi qatnashadigan boʻldi. Nomi „Shatranj“ deb oʻzgartirildi („shatr“ — ikki degani). Shaxmat nomi esa Eronda vujudga kelgan.

1986- yilda shaxmat oʻyini boʻyicha jahon birinchiligining 100 yilligi nishonlandi. („Gʻuncha“dan)

Sonlarning gapdagi vazifasini belgilang.

**327- mashq.** Matnni oʻqing. Matndan nimalarni bilib oldingiz? Soʻroqlar yordamida sonlarni toping.

Ilgari arablar va musulmon xalqlar hisob amallarini soʻzlar yordamida bajarar edilar.

Hindlar esa har bir sonni raqamlar bilan ifoda etadilar.

Hindlarda toʻqqizgacha sanoq tartibi bor edi.

...Mashhur olim al-Xorazmiy hind hisobiga yangilik kiritdi. U bir raqami yoniga bitta halqa qoʻydi. Olim oʻn raqamini yaratdi. (*Mirkarim Osimdan*)

Sonlarni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan koʻchiring. Sanoq bildirgan sonlarning tagiga chizing. Ularning yozilishini yodingizda tuting.



Sonlar yozuvda necha xil ifodalanadi?

Sonlar yozuvda uch xil ifodalanadi:

1. Harfiy ifoda bilan: *to'rtinchi sinf, oltinchi uy.*
2. Arab raqami bilan: *2003- yil 1- sentabr.*
3. Rim raqami bilan: *IV sinf, XXI asr.*

**328- mashq.** Matnni o'qing. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanagan?

Iroda To'laganova 1982- yilning 7- yanvarida Toshkentda tug'ilgan. Tennis bo'yicha Butunjahon o'smirlarining Bronza medali sovrindori bo'lgan. Tennischilarning musobaqalarida 3 marta zafar qozondi. 2001- yilning 5- noyabrda jahon turnirida 20- o'ringa ko'tarilgan. Iroda „Shuhrat“ medali, „O'zbekiston iftixori“, „O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi“ faxriy unvonlari bilan mukofotlangan.

*Asror Mo'minov*

Ko'chiring. Sonlarni harfiy ifodalar bilan yozib, tagiga chizing. Sanoq va tartibni bildirgan sonlarni ayting.



**329- mashq.** She'riy masalani o'qing. Yoddan yozing. Sonlarni harflar bilan ifodalang.

Bog'da o'sar 10 ta nok,  
5 ta olma, 5 ta tok.  
Ekdik 15 olxo'ri,  
Qancha bo'ladi bari?

(„Gulxan“dan)

Hammasi nechta daraxt bo'ladi? Sonlar qaysi so'z turkumiga bog'lanib kelgan va narsalarning nimasini bildiriyapti?

**330- mashq.** Maqollarni o'qing, ma'nosini tushuntiring.

1. So'zdan so'zning farqi bor, 32 narxi bor.
2. 1 yil tut ekan kishi 100 yil gavhar teradi.
3. Tovuq 7 xazinaning biri.
4. Yeridan ayrilgan 7 yil yig'lar, elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

Maqollarni ko'chiring. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozing. Maqollarda sonning qaysi turi berilgan?



**331- mashq.** Matni o‘qing. Siz ham hududingizdagi bog‘ga hasharga borganmisiz?

Yakshanba kuni edi. Uchinchi sinf o‘quvchilari ikkinchi bo‘limning olmaoriga borishdi. Olmazor yonidagi tokzorda Qudrat ota toklarni chilpib yurardi.

Bolalar odob bilan otaga salom berishdi. Ular qo‘llariga bittadan savatcha olishdi. So‘ng olma terishga tushib ketishdi. Qudrat ota bolalarning har biriga beshtadan olma berdi.

*Malik Murodov*

Sonlarni topib, o‘zi bog‘langan ot bilan birga ko‘chiring.  
Matnda sonlarning qaysi turi qo‘llangan?



**332- mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping. Sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring. Sonlar nimani bildiriyapti?



1. Yetmish otning kuchi bor,  
Oyog‘ida tishi bor.  
Charchash nima bilmaydi,  
Dalada yumushi bor.

2. O‘n barmoqli uzun qo‘l,  
Xashak to‘plar u nuqul.

3. Besh juft oshna  
Ishga tashna.

**333- mashq.** Matni o‘qing. Matn qaysi yozuvchi haqida ekan?

Oilamizda bir qiz, to‘rt o‘g‘il edik. Men uchinchi o‘g‘il edim. Birinchi she‘rimni beshinchi sinfda o‘qiyotganimda yozganman. Birinchi hikoyam 1963- yil 17- aprel kuni „Toshkent haqiqati“ gazetasida bosilgan.

Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga taqdim etardim. Unga „Birinchi ustozim — Oyimga“ deb yozib berardim. (*O‘tkir Hoshimovdan*)

Avval narsa va shaxslarning sanog‘ini bildirgan sonlarni, keyin tartib bildirgan sonlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.  
Tartib sonlarning o‘zak va qo‘shimchasini belgilang.

**334- mashq.** O'qing. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozib, matnni ko'chiring.

3 oy qish xalq tilida 90 deyiladi. Qish chillasi 40 kun davom etadi. Dekabrning 25- kunidan boshlanadi. 5- fevralda tamom bo'ladi. Bu davr qishning eng sovuq kunlari bo'ladi.

Sanoq va tartib sonlarning tagiga chizing.



**335- mashq.** Matnni o'qing. Chiziqchalar o'rniga qancha?, nechta? va nechanchi? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni qo'yib ko'chiring.

Namuna: 15- maktab, ...

Biz \_\_\_ sinfda o'qiyamiz. Sinfimiz keng va yorug'. Sinfimizda \_\_\_ parta, \_\_\_ stol va \_\_\_ ta stul bor. Sinfimizning burchagida \_\_\_ kitob javoni bor. Bu javonda kitob, daftar, ruchka va boshqa o'quv qurollari saqlanadi. Har partada \_\_\_ bola o'tiradi. Men o'rtog'im Habibulla bilan \_\_\_ partada o'tiraman. Biz sinfimizni doim ozoda tutamiz.

*Habibulla* so'zi o'rniga partadoshingizning nomini qo'yib yozing. Tartib bildirgan sonlarni raqam bilan yozing. Raqamlardan so'ng chiziqcha qo'yishni unutmang.

**336- mashq.** O'qing. Sonlarni aniqlang.

Olimlarning ma'lumotiga ko'ra, bir tup qora qayin bir soatda bir kilogramm yetti yuz gramm kislorod ishlab chiqarar ekan. Bu oltmish to'rt kishining kislorodga bo'lgan ehtiyojini qondiradi.

Sonlarni o'zi bog'langan ot bilan ko'chiring.



**Sonlar otga nima yordamida bog'lanadi?**

Sonlar otga ohang yordamida bog'lanadi.

**337- mashq.** Chiziqchalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, matnni ko‘chiring. Qo‘ygan so‘zlaringizning turkumini aniqlang.

Men \_\_\_\_\_ ko‘chasidagi \_\_\_\_\_ - uyda turaman. \_\_\_\_\_ - maktabning \_\_\_\_\_ - sinfida o‘qiyman.

Onam — \_\_\_\_\_. Otam — \_\_\_\_\_. Opam (akam) shu maktabning \_\_\_\_\_ - sinfida o‘qiydi. Singlim (ukam) \_\_\_\_\_ - sinf o‘quvchisi. Kichik ukam (singlim) \_\_\_\_\_ bolalar bog‘chasida tarbiyalanadi.

Sonlarning yozilishini yodingizda tuting.

Sonlarning otga nima yordamida bog‘langanini ayting.



**338- mashq.** Matnni o‘qing. Tartib bildirgan sonlarni o‘zi bog‘langan ot bilan ko‘chiring. Tartib sonlarni raqam bilan ifodalang.

O‘n uchinchi sayyorada o‘tayotgan sud jarayonini butun galaktika xalqi tomosha qildi. Ayblanuvchi eng kichik sayyoralaridan biri — Yer edi.

Ayblovchi yettinchi sayyoraning bosh olimi fikrini lo‘nda qilib bayon etdi:

— Hammangizga ma‘lumki, Yerga hayot o‘n beshinchi „Ezgulik“ sayyorasidan yuborilgan. Lekin bu sayyorada ekologik tanglik vujudga keldi.

Bosh hakam o‘z hukmini o‘qib eshittirdi:

— **Yerliklarning o‘zligiga qaytishi uchun yana o‘n yil muhlat berildi.** (*Hamza Imonberdiyevdan*)

Sonlarning gapdagi vazifasini tegishlicha belgilang.

Ajratilgan gapning ma‘nosini tushuntiring.

**339- mashq.** So‘zlarni o‘qing. Sanoq va tartib bildiradigan sonlar bilan qo‘llab, birikma tuzing. Sonlarni raqamlar bilan yozing.

Uy, qavat, sahifa, maktab, asr, qism.

**340- mashq.** Matnni o‘qing, sonlarning gapdagi vazifasini ayting. Ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

Uchinchi qorishmaga sement solib aralashtirayotganda:

— Sement kam bo‘ldi. Yana biroz sement solinglar. Poydevor bo‘sh bo‘lmasin, — dedi Choriyor aka.

— To‘g‘ri aytasiz. Qahhorga o‘xshab poydevori bo‘sh bo‘lib qolmasin, — dedi akasi Jabbor.

— Qanaqa poydevor? — yig‘lamsirab so‘radi Qahhor.

— Birinchi sinfda yomon o‘qigansan, demak, poydevoring bo‘sh!

Qahhor xo‘rligi kelgan ahvolda ikkita chelakni ko‘tarib borar ekan, birinchi sinfda o‘qigan paytlarini esladi. 4- sinfda yaxshi o‘qishga ahd qildi.

*Oqiljon Husanov*

*Poydevori bo‘sh* iborasi qanday ma‘noda qo‘llangan?



**341- mashq.** Topishmoqlarni o‘qing, javobini toping. Sonlarning turini ayting.



1. 40 o‘rtoqqa

1 ta uy,

1 qiyofa,

1 xil bo‘y.

Ketma-ket

Chiqishar.

Chars-churs

Olov yoqishar.

2. 1 otasi,

1 bolasi,

Necha 100 000

Bolasi.

3. Supacha,

Supachada

5 bola.

Raqamlarni harflar bilan ifodalab, topishmoqlarni ko‘chiring. Sonlar otga qanday bog‘langan?

**342- mashq.** O‘qing. So‘roqlar yordamida sonlarni topib, ma‘no turini ayting. Tartib son nima uchun chiziqcha bilan yozilgan?

## BOYLIKDAN ILM AFZAL

Bir cholning sakkiz o'g'li bor ekan. Chol o'g'illaridan: „Ilm afzalmi yoki boylik afzalmi?“ deb so'rabdi.

7 ta o'g'li: — Ota, siz ham o'qimagsiz. Lekin mulkingiz haddan ziyoda. Biz ham sizday yashayveramiz, — debdi.

8- o'g'li: — Davlat emas, ilm afzal, — debdi-yu, ilmning afzalligini tushuntira olmabdi.

Cholning bitta aqlli qizi bor ekan. U ilmning afzalligini tushuntirib beribdi:

— Odamning boshidagi ilmni hech kim o'g'iray olmaydi. Olim odam ilmi bilan barcha jumboqni yecha oladi.

(„O'zbek xalq ertaklari“dan)

Sonlarni o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiring. Raqamlarni harfiy ifodalar bilan yozing. Bolalar, siz qaysi farzandning javobini ma'qullaysiz?

### 8- MART — XALQARO XOTIN-QIZLAR BAYRAMI!

She'rni ifodali o'qing.

„Ona“ so'zi jaranglar  
Har yurakda, har tilda.  
Ona mehri dunyoni  
Saqlab turar bir xilda.

*D. Bahriddinova*



**343- mashq.** Raqamlarni o'qing va harfiy ifodalar bilan yozing.

2, 4, 7, 8, 9, 20, 30, 40, 50, 60, 1000, 1 000 000.

Sonlarni otlar bilan qo'llab birikma tuzing va yozing. Sonning otga bog'lanishini namunadagidek chizma yordamida ko'rsating.

Namuna:  $\overbrace{\text{ikki o'quvchi}}$



**344- mashq.** She'ni ifodali o'qing. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozib, she'ni ko'chiring.

Shimimda 4 ta cho'ntak,  
Paltomda 4 ta cho'ntak.  
Birma-bir kirib chiqar  
Bariga 2 qo'lim.

Kuhkuhlab qo'llarimga  
Oyimlar koyir andak:  
— Shunaqa, chatoq bo'lar  
Qo'lqop yo'qotish, o'g'lim!

*Abdurahmon Akbar*

Sonlarning gapdagi vazifasini va qaysi so'zga bog'langanini namunadagidek ko'rsating. Son otga nima yordamida bog'langan?

Namuna: to'rtta cho'ntak

*Andak* so'zining ma'nosini ma'nodosh so'z keltirib tushuntiring.

**345- mashq.** Matnni o'qing. Matn nima uchun „Halollik“ deb nomlangan?

## HALOLLIK

Qadim zamonda boy dehqon yerining bir chekkasini sotibdi. Yerni sotib olgan dehqon onasi bilan 9 **joni** boqar ekan. U yerni 2 **marta** haydabdi. 2- **marta** haydayotganda bir xumcha tilla topib olibdi. Tillani boy dehqonga olib boribdi.

Boy dehqon 2- **dehqonga** shunday debdi:



— Yerni sizga sotganman. U yerdan nima chiqsa sizniki.

Ular uzoq tortishishibdi. Oxiri 2 **dehqon** tillalarni beva-bechoralarga bo'lib berishga qaror qilishibdi.

(„O'zbek xalq ertaklari“dan)

Sonlarni harfiy ifodalar bilan yozing. Ularni ajratilgan so'zlar bilan ko'chirib, gapdagi vazifasini belgilang.

**346- mashq.** Katakcha o'rniga ertaklarda ko'p qo'llanadigan sonlarni topib, birikma tuzing va yozing.





**347- mashq.** 4- sinf „O‘qish kitobi“dagi Abdulla Oripovning „Dehqon bobo va o‘n ikki bolakay qissasi“ asaridagi son ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring. Ma‘no turini ayting, gapdagi vazifasini belgilang.

### *Bilimingizni tekshiring!*



- Sonlarni boshqa so‘z turkumlaridan qanday ajratasiz?
- Qaysi sonlarda bir xil undoshlar yonma-yon keladi?
- Sanoq bildirgan sonlar bilan tartib bildirgan sonlarning yozilishini tushuntiring.
- Sanoq bildiruvchi sonlar birdan ortiq so‘z bilan ifodalanganda qanday yoziladi?
- Nutqimizda sonning qanday ahamiyati bor?

## KISHILIK OLMOSHLARI

**348- mashq.** Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga diqqat qiling. Ularga so‘roq bering.

Qishki ta‘tilda **men**, Murod oromgohda bo‘ldik. **Biz** tabiat qo‘ynida maza qilib dam oldik.

— Ahmad, **sen** ta‘tilda qayerda dam olding?

— Ahmad shaxmatni sevadi. **U** shaxmat to‘garagiga qatnadi, — dedi Shuhrat.

Dilshod, Temur, Gulnoralar maktab oromgohida bo‘lishdi. **Ular** oromgohda sport musobaqasida ishtirok etdilar.

**Siz** qishki ta‘tilda qayerlarda bo‘ldingiz? („Gulxan“ dan)

**U, ular** so‘zlari qaysi so‘zlarning o‘rnida qo‘llangan?



**Men, sen, u, biz, siz, ular** so‘zlari kimlarni ko‘rsatish uchun qo‘llanadi?

**Men, sen, u, biz, siz, ular** so‘zlari kishilik olmoshlaridir. Kishilik olmoshlari kim?, kimlar? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

**349- mashq.** O'qing. Husnixat bilan ko'chiring. Kishilik olmoshlarini topib, tagiga bir to'g'ri chiziq chizing.

1. Biz bugun bobomiz Alisher Navoiy nomisiz o'zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. (*Erkin Vohidov*) 2. Siz o'zbek tilining benihoya boy, go'zal, nazokatli til ekanini bilishingiz kerak. (*Erkin Vohidov*) 3. Men hayotdan juda ko'p narsalarni o'rgandim. (*To'lqin*)



**Kishilik olmoshlarini otlardan qanday farqlaysiz? Kishilik olmoshlari biror shaxsning nomi bo'la oladimi? Otlar-chi?**



**350- mashq.** She'rni o'qing. Yoddan yozing.

Men to'g'ri so'z,  
Sen to'g'ri so'z,  
Ichimizda  
Yo'q egri so'z.

Siz mening quyoshim,  
Mehribon onam.  
Siz bilan munavvar  
Hovli-yu xonam.

*Obid Rasul*

Kishilik olmoshlarining tagiga chizing.

*Munavvar* so'ziga ma'nodosh so'zlar toping.

**351- mashq.** Matnni ko'chiring. Kishilik olmoshlarini toping.

Qosim bobo to'p tepayotgan bolalardan birining non yeyayotganini ko'rdi. Uning oppoq o'siq qoshlari chimirildi. Bobo yerdagi ushoqlarni tera boshladi. Zokir uyalib ketdi:

— Meni kechiring, bobo. Siz egilmang, ushoqlarni o'zim teraman, — dedi u.

— Bo'tam, men egilganim yo'q, non ushoqlariga ta'zim qilyapman, — dedi bobo. (*To'lqin Rasulovdan*)



**Kishilik olmoshlari qaysi otlar o'rnida qo'llangan?**

**Men, biz — I shaxs, sen, siz — II shaxs, u, ular — III shaxs olmoshlaridir.**



**352- mashq.** O‘qing. Kishilik olmoshlarini aniqlang. Ularni o‘zi bog‘langan fe‘l bilan ko‘chiring.

1. O‘zbek tili so‘zga boy,  
Men shu tilda so‘zlayman.
2. Ulg‘ayarsan bir kun sen,  
Bo‘lursan yetuk, bardam.  
*G‘afur G‘ulom*

3. Biz so‘radik turnadan:  
— Qaysi o‘lka soz ekan?  
*Qudrat Hikmat*

Qaysi kishilik olmoshlari she‘rlarda ishtirok etmagan?  
*Yetuk* so‘zining ma‘nosini tushuntiring.



Qaysi kishilik olmoshlari bitta kishini, qaysilari ko‘p kishini bildiradi?

**Men, sen, u** olmoshlari bitta shaxsni, **biz, siz, ular** olmoshlari ko‘p shaxsni bildiradi.

**353- mashq.** She‘rni o‘qing. Uni yoddan yozing.

- Uzoq ketma, quyosh,  
Sen borsan, men bor.
- O‘lkamni yashartmoq  
Bizga iftixor.  
*Obid Rasul*

She‘rda ishtirok etmagan kishilik olmoshlari ishtirokida gaplar tuzing.



**iftixor** — faxr



**354- mashq.** O‘qing. So‘roqlar yordamida kishilik olmoshlarini toping.

1. Agar sen osmonni quchmoqchi bo‘lsang,  
Men nega yelkamni tutib bermayin. (*G‘afur G‘ulom*)
2. Elga baxt, tilga bol  
Keltirdi istiqlol  
Siz uchun — biz uchun. (*Po‘lat Mo‘min*)

3. Ulug‘bek buyuk olim edi. U Ali Qushchidek ko‘plab shogirdlarni yetishtirdi. Ular Ulug‘bekning ishlarini davom ettirdilar.



**Men, biz** kishilik olmoshlari qaysi shaxsni bildiradi?  
**Sen, siz** kishilik olmoshlari qaysi shaxsni bildiradi?  
**U, ular** kishilik olmoshlari-chi?

**355- mashq.** „Mening tengdoshlarim“ mavzusida hikoya tuzib yozing.  
Hikoyangizda kishilik olmoshlaridan foydalaning.

**356- mashq.** O‘qing va ko‘chiring. Kishilik olmoshlarini toping.  
Qanday ma‘no bildirayotganini ayting.

### DO‘ST

Rustam menga do‘st edi,  
Har bir so‘zi rost edi.  
Orzumiz bir, bir tilak,  
Ko‘plar derdi egizak.  
Bizlar shunday do‘st edik,

Mayizni bo‘lib yerdik.  
Bo‘lib qoldim men kasal,  
Undan bo‘lmadi xabar.  
So‘ng eshitsam Suyundan,  
Bo‘shamabdi o‘yindan.

*Toshpo‘lat Hamdamov*

## KISHILIK OLMOSHLARINING KELISHIK QO‘SHIMCHALARI BILAN QO‘LLANISHI

**357- mashq.** Kishilik olmoshlarini topib, ko‘chiring. Ularning o‘zak va qo‘shimchalarini belgilang.

Umid ko‘zin senga tikkan  
Ona xalqing, ona-yurt.  
Senda g‘ayrat, senda sur‘at,  
Senda orzu, matonat.

Bahor va kuz chog‘ida  
Men ham ko‘chat ekaman.  
Meva pishgach, bog‘imga  
Sizni taklif etaman.

*Shuhrat*

*Ilyos Muslim*



Kishilik olmoshlari qaysi qo‘shimchalar bilan qo‘llanadi?

Kishilik olmoshlari kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi.

**358- mashq.** O'qing. Kishilik olmoshlarini o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

1. Men bo'sh vaqtimda qayiqcha yasayman. Bolalar qayiqcha yasashni mendan o'rganishdi. 2. Bizda kuch-g'ayrat bor. Kuchni bilim olishga, hunar o'rganishga sarflashimiz lozim. 3. Oyi, bo'lsa nima yumush, menga ayting. 4. Sizni sog'indim, mehribon akajonim.

Kishilik olmoshlarining qaysi kelishikda ekanini qavs ichida yozing.



**359- mashq.** O'qing va ko'chiring.

1. Agar do'sting senga aybingni aytib, nasihat qilsa, sen undan minnatdor bo'l. 2. Do'stlarning soni bilan emas, ularning halolligi va sodiqligi bilan faxrlan.

3. Oq terakmi, ko'k terak,  
Bizdan sizga kim kerak?  
— Bizga kerak maktabda  
Eng a'lochi Alisher. (*Qudrat Hikmat*)

4. El senga cho'zsa qo'l,  
Unga doim sodiq bo'l.

Kishilik olmoshlarining qaysi kelishikda ekanini ayting.

**360- mashq.** Kishilik olmoshlarini o'qing va kuzating.

men + ning → mening                      sen + ning → sening

men + ni → meni                              sen + ni → seni

Ko'chiring. Kishilik olmoshlarining o'zaklarini belgilang.



**Men, sen** olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda, o'zakda qanday tovush o'zgarishi ro'y berdi?

**Men, sen** olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo‘shimchalari qo‘shilganda **mening, sening** shaklida yoziladi.

**361- mashq.** Matnni o‘qing va ko‘chiring. Olmoshlarni topib shaxs-sonini ayting.



## TABRIKNOMA



Dugonam, Halima! Men Sizni tug‘ilgan kunningiz bilan tabriklayman. Sizga uzoq umr, o‘qishlaringizda muvaffaqiyatlar tilayman.

Dugonangiz Dilafro‘z.



**Siz olmoshi nima uchun bosh harf bilan yozilgan?**



**362- mashq.** O‘qing. Kishilik olmoshlarini topib, kelishik qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

Demang meni hunarsiz,  
Menda ham bir hunar bor.  
Hunarim zo‘r, ko‘rarsiz,  
Mening kasbim duradgor.  
Xursand bo‘lib ishimdan

Dersiz meni qo‘li gul.  
O‘rganganman hunarni  
Yon qo‘shnimiz Rustamdan.  
Rostini aytsam, men juda  
Minnatdorman ustamdan.

*Nusrat Abdulalomov*

Qaysi kishilik olmoshlarida tovush tushishi yuz bergan?

**363- mashq.** So‘roqlar yordamida kishilik olmoshlarini topib, qaysi kelishikda qo‘llanganini ayting.

Bitta orzum bor mening,  
Do‘stlarim, sizga aytsam.

Uyga kelsam, menga ish  
Buyurmasa hech oyim.

Istardimki, sehrli  
Bo'lib qolsa xotiram.

Sher bilan ham olishsam,  
Mendan qochsa zirillab.

*Olim Mahkamov*

Siz nimalarni orzu qilasiz?

**364- mashq.** Kishilik olmoshini o'qing va kuzating.

u  $\begin{cases} \text{-ga} \rightarrow \text{unga} \\ \text{-da} \rightarrow \text{unda} \\ \text{-dan} \rightarrow \text{undan} \end{cases}$

Ko'chiring. O'ng tomondagi kishilik olmoshlarining o'zagini belgilang.



U kishilik olmoshiga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda qanday tovush o'zgarishi bo'ldi?

U olmoshiga jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari qo'shimchasi qo'shilganda **unga, unda, undan** shaklida yoziladi.

**365- mashq.** Kishilik olmoshlarini kelishiklar bilan qo'llab yozing.

Namuna. b. k. *men*, ...



**366- mashq.** O'qing. She'rni husnixat bilan ko'chiring. Yozganingizni tekshiring.

### QALAM BILAN SUHBAT

- Qalam jajji toychoq,  
Qayga boshlayin seni?
- Daftar beti — oq maydon,  
Unga yetakla meni.
- Sehrli bo'lib qolsang

Sendan qilardim faxr.  
— O‘zingning mo‘jizakor  
Qo‘llaring bor-ku axir.

*To‘lqin Ilhomov*

Kishilik olmoshlarini topib, o‘zak va qo‘shimchalarini belgilang. Uning qaysi kelishikda ekanini qavs ichida ko‘rsating. Olmoshlarda qanday tovush o‘zgarishlari bo‘lganini ayting.



Qaysi so‘zlarda xatoga yo‘l qo‘yishingiz mumkin?  
Shu so‘zlarning tagiga chizing.

**367- mashq.** O‘qing. Kishilik olmoshlarini toping.

Kexsa otalarimiz Fitrat bobomiz nomlarini tez-tez tilga olishadi. Ba‘zan ular haqida so‘zlab turib o‘yga tolishadi va yurak-yuraklaridan ularning hayotlari bevaqt so‘nganiga achinib ketishadi. Bu inson O‘zbekistonni mustaqil ko‘rishni orzu qilgan edi. U yetisholmagan orzuga biz yetishdik.

Biz Vatanni sevishni, uni asrab-avaylashni Fitrat kabi bobolarimizdan o‘rganaylik. („G‘uncha“dan)

Oxirgi gapdagi kishilik olmoshlarining vazifasini belgilang.



Kishilik olmoshlari qanday gap bo‘lagi vazifasida kelgan?

**368- mashq.** O‘qing. Kishilik olmoshlarini o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring. Ularning gapdagi vazifasini belgilang.

Mening aziz Vatanim tong kabi musaffodir. Tong mening yuragimda ajib hislar uyg‘otadi.

Biz qudratli gul Vatanning baxtiyor farzandimiz.

Men ertaning ko‘zqusida Vatanimni ko‘raman.

(„G‘uncha“dan)

Qaysi kishilik olmoshlarida tovush o‘zgarishi yuz bergan?



**369- mashq.** 4- sinf „O‘qish kitobi“dan kishilik olmoshlari qatnashgan gaplar topib yozing. Ularning gapdagi vazifasini belgilang.

**370- mashq.** Quyida berilgan xat namunasini o‘qing.

### HURMATLI DŌ‘STIM KOMIL!

Sen yozgan xatni oldim. Sog‘ligingning, o‘qishlaringning yaxshiligini bilib xursand bo‘ldim.

Men senga Yangi yil bayramini qanday o‘tkazganimiz haqida yozmoqchiman. Biz Yangi yil uchun o‘yinchoqlar yasadik. Archani bezatishda uchinchi sinf o‘quvchilari bizga yordamlashishdi. Biz bayramimizga tashrif buyurgan mehmonlarni qo‘shiq va o‘yinlarimiz bilan xushnud qildik. Ular bizdan mamnun bo‘lishdi.

Siz Yangi yil bayramini qanday o‘tkazdingiz? Menga shular haqida yozib yubor.

*Salom bilan Shuhrat.*

Matndagi kishilik olmoshlarini topib, ularning shaxs va sonini hamda qaysi kelishikda qo‘llanganini ayting. Siz ham yaqin kishingizga yoki o‘rtog‘ingizga xat yozing.



**371- mashq.** Chiziqchalar o‘rniga kishilik olmoshlarini qo‘yib, gaplarni o‘qing va yozing.

**N a m u n a:** *Yaxshilik tilayman odamga,  
U meni (I sh., birl., t.k.) tanitgan olamga.*

1. Yaxshilik tilayman odamga,

U \_\_\_\_\_ (I sh., birl., t.k.) tanitgan olamga.

Parvarish, xizmatin oqlay deb.

Imlayman huzurbaxsh soyamga. (*E. Majidov*)

2. Ana shu qishloqda Shoir, Mohir va O‘roq ismli tengqur bolalar yashar ekanlar. \_\_\_\_\_ (III sh., ko‘p., b.k.) faqat tengqurgina emas, oralaridan qil ham o‘tmaydigan qalin do‘st ekanlar. (*O. Husanov*)

3. Beshta o‘g‘il-qizlarim bor. \_\_\_\_\_ (II sh. birl., b. k.) oltinchisi bo‘lasan. (*P. Tursun*)

## ASSALOM, NAVRO‘Z!



Rasm asosida Navro‘z haqida hikoya qilib bering.  
Navro‘z haqida bilgan she‘rlaringizni yod ayting.

**372- mashq.** O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan otlarning o‘rniga shu otlarni ko‘rsatadigan olmoshlarni qo‘yib ko‘chiring. Yana qanday olmoshlar borligini ayting.

1. — Rahimjon, otingiz judayam chiroyli ekan, — dedim men. **Rahimjon** yalt etib menga qaradi. **Rahimjonning** ko‘zlarida sevinch, g‘urur bor edi. 2. **Rahimjon** ikkimiz o‘zimizni oftobga solib yotdik. Men **Rahimjonga** tikilib yotardim. Rahimjonning oftobda kuygan, tog‘ shamoli yalagan badani qizg‘ish cho‘yanga o‘xshardi, hozir unga juda-juda havasim keldi. (*Y. Shamsharov*)

*Otingiz* so‘ziga ma‘nodosh so‘z toping.  
Matnda qaysi so‘z ko‘chma ma‘noda qo‘llangan?



**373- mashq.** Matnni o‘qing. Undagi ot, sifat, son va olmoshlarni aniqlang. Ularni alohida guruhlab yozing.

Yunus Rajabiy kuy va qo‘shiqlari bilan xalqqa tanildi. Uning hayoti va ijodi O‘zbekiston radiosi bilan bog‘liq. Bastakor



radioda maqomchilar ansamblini tuzgan. Yigirma yil davomida to‘plagan asarlarini tartibga keltirib, ajoyib kitob qilgan.

Yunus Rajabiyning 5 jildli „O‘zbek xalq musiqasi“, 6 jildli „Shashmaqom“ kitoblari xalqimizga o‘lmas meros bo‘lib qoldi.

**374- mashq.** 4- sinf „O‘qish kitobi“dagi Hakim Nazimning „Shoira“ hikoyasidan ot, sifat, son, olmoshlari qatnashgan gaplar topib ko‘chiring. So‘zlarning ustiga turkumini yozing.

### *Bilimingizni tekshiring!*



- Kishilik olmoshlarini ayting.
- Kishilik olmoshlari qanday qo‘shimchalar bilan qo‘llanadi?
- Kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llangan kishilik olmoshlarida bo‘ladigan tovush o‘zgarishlarini ayting.
- Kishilik olmoshlari gapda qaysi bo‘lak vazifasida keladi?

## FE‘L — SO‘Z TURKUMI

**375- mashq.** Matnni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarga so‘roq bering.

Ota etik, ona etik va bola etik poygakda ahil **yashashardi**.

Bir kuni bola etik **yig‘ladi**:

— Hamma yog‘im **og‘riyapti**. Beshafqat bola men bilan suv **kechdi**. Katta-kichik toshlarni **tepd**i.

Ota etik bilan ona etik bola etikka **achindi**. O‘yingaroq bola bemor etikchani yana **qiynayverdi**. Qish kunlarining birida bola etikning jag‘i **yirtildi**.

Yomon bolaning tuzalmasligini bilib, etiklar uy egalaridan **qochishdi...** (*Zulfiya Mo‘minovadan*)

Ertakni o‘zingiz davom ettiring.

Ajratilgan so‘zlarni ko‘chiring. Qavs ichida har birining so‘rog‘ini yozing.



Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilm o q c h i? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar ni-mani bildiradi? Ular qaysi so'z turkumiga kiradi?

**376- mashq.** Matnni o'qing. So'roqlar yordamida fe'llarni toping. Ular kimning harakatini bildirgan?

Kechqurun Mannon akamning oldiga bordim. Uyimizning buzilishini aytdim.

— Sen xafa bo'lma, hammamizning uyimiz buziladi. Bu yerga kattakon teatr quriladi, — dedi Mannon akam...

Uyimiz buzildi. Biz boshqa yoqqa, Mannon akam boshqa yoqqa ko'chib ketdi.

Bir kuni akam menga surati bor bir kitob berdi.

Bir mahal menga tanish odamning suratini ko'rib qoldim.

Suratning tagiga teatrning bosh rejissori Mannon Uyg'ur-ning nomi yozilgandi.

O'sha kuni men yo'qotgan odamimni topdim.

*(Aziz Abdurazzoqdan)*

Ko'chiring. Fe'llarning tagiga chizing.



Harakat bildirgan so'zlar gapda qanday bo'lak vazifasi-da keladi? Ularning tagiga qanday chiziq chiziladi?



**377- mashq.** She'rni ifodali o'qing.

### O'YIN BO'LSA

O'yin bo'lsa, o'ynaymiz,  
Bo'lmasa-chi, topamiz.  
Topolmasak zir yelib,  
To'rt tomonga chopamiz.

Yiqilamiz, turamiz —  
Shu ham o'yin atalar.  
Bizday necha yiqilib,  
Katta bo'lgan otalar.

*Tolib Yo'ldosh*

She'rni ko'chiring. So'roqlar yordamida fe'llarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing.

**378- mashq.** Matnni o'qing. Matn mazmunini tushuntiring.

Uquv-idrok kishini pokizalaydi. Bilim yuksaltiradi. Inson boshqa mavjudotlardan o'z bilimi bilan farqlanadi. Dunyodagi turli-tuman hunarlar o'quv va bilimga tayanadi...

Zakovat ont ichishib do'stlashgan kishilarga o'xshaydi. Bilim yaqin qarindoshlarga o'xshaydi, inson do'stlari, qarindoshlari davrasida o'zini kuchli sezadi.

Bilimsizlar-chi? (*Yusuf xos Hojibdan*)

So'roqlar yordamida fe'llarni aniqlang. Gapdagi bosh bo'laklarning tagiga chizing.



**uquv-idrok** — fahm, did  
**zakovat** — o'tkir aql-idrok, zehn

**379- mashq.** She'rni ifodali o'qing.

### SINFXONA ILTIMOSI

Yorug' berar derazam,  
Oynalari sinmasin.  
Ozoda turay har dam,  
Chang va to'zon inmasin.

O'z partangda o'tir jim,  
Pichoq bilan o'ymagin.  
Menda olasan ilm,  
Buni yaxshi o'ylagin.

*Rustam Dolimov*

She'rni ko'chiring. Fe'llarning tagiga chizing.

Harakatning bajarilmaganini bildiradigan qo'shimchanning tagiga to'liqlik chiziq chizing.

*Ozoda, jim* so'zlariga ma'nodosh so'zlar toping. Ularni she'rda almashtirib qo'llash mumkinmi?



**inmasin** — qo'nmasin, o'tirmasin



Fe'llarga qo'shiladigan **-ma** qo'shimchasi qaysi ma'nodagi harakatni bildiradi?

**380- mashq.** O'qing. Fe'llarni aniqlab tagiga chizing.

Yaxshilikni bilmasang,  
Borib yaxshilarga qo'shil.

*Navoiy*

Xom suvni ichma,  
Sog'liqdan kechma.

Yeb bo'lib ovqat,  
Yugurma faqat.

*Po'lat Mo'min*

Fe'llarning ustiga bo'lishli yoki bo'lishsizligini yozing.



**381- mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini toping.



1. Tilla sandiq ochildi,  
Ichidan zar sochildi.
2. Ustida yashil to'ni,  
Yoz-u qish yechmas uni.

Topishmoqlarni yoddan yozing. Fe'llarni topib, tagiga chizing.

## FE'L ZAMONLARI

**382- mashq.** O'qing. So'roqlar yordamida fe'llarni aniqlang.

Maktabimiz ba-  
diiy havaskorlari  
tuman ko'rigida bi-  
rinchi o'rinni egal-  
lashdi.

Biz bilimlarni puxta  
egallamoqdamiz.  
Dehqonlar ariqlar-  
ni tozalayaptilar.

Sayyora kelajakda  
shifokorlik kasbini  
egallamoqchi.

Fe'llardan anglashilgan harakatning bajarilish paytini aniqlang.  
*Vaqt* so'ziga ma'nodosh so'zlar toping.

Fe'lda uchta zamon bor: 1) o'tgan zamon; 2) hozirgi zamon; 3) kelasi zamon.

Fe'l zamonlari nutq so'zlab turgan vaqt (payt)ga nisbatan belgilanadi.

**-di, -gan, -yap, -moqda, -moqchi** — zamon bildiruvchi qo'shimchalardir.

**383- mashq.** O‘qing. So‘roqlar yordamida fe‘llarni aniqlang.

### SOVUQ

Maysa, nihol dastingdan      Yashamagur bizlarni  
Tarashadek qotdilar,          O‘qishdan qoldirmoqchi.  
Sendan bezib qushlar ham      Yana u irodamiz  
Uzoqlarga ketdilar.              Qandayligin bilmogchi.

Sendan qo‘rqib uy-uyda  
O‘tirmaymiz siniqib,  
Chunki bizlar kundan kun  
O‘smoqdamiz chiniqib.

*Habib Rahmat*

Fe‘llarni zamonlariga ko‘ra guruhlab yozing.

Fe‘l zamonlarini ifodalovchi qo‘shimchalarning tagiga to‘liqinli chiziq chizing.



**siniqmoq** — so‘lmoq, sarg‘aymoq



**384- mashq.** *Ishla, o‘qi, yoz* fe‘llarini uch zamonda qo‘llab, gaplar tuzing. Harakatning bajarilish paytini bildirgan qo‘shimchani belgilang.

**385- mashq.** Matnni o‘qing. Fe‘llarni aniqlab, zamonini ayting.

Alisher Navoiy 1441- yilning 9- fevralida Hirot shahrida tug‘ilgan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad o‘g‘lining tarbiyasiga jiddiy qaragan. Alisherga tog‘alari Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G‘aribiylar she‘riyatda ustozlik qilgan.

Alisher o‘z zamonasining iste‘dodli kishisi bo‘lib yetishdi.

*(M. Imomnazarovdan)*

Alisher Navoiy haqida nimalarni bilasiz?  
Buyuk bobomizning hikmatlaridan ayting.

**386- mashq.** O'qing. Chiziqlar o'rniga berilgan fe'llardan mosini qo'yib yozing.

Mart oylarida ko'kda qora bulutlar \_\_\_\_\_ . Yomg'ir

Bahor \_\_\_\_\_ . Quyosh iliq nurlarini \_\_\_\_\_ .

— Salom, Quyosh bobo! — dedi Qor va sevinganidan \_\_\_\_\_ .  
Soylar uni bag'riga \_\_\_\_\_ . (*Rauf Tolib*)

Fe'llarning zamonini va gapdagi vazifasini ayting.

Qo'yish uchun fe'llar: *oldi, yog'a boshladi, quyuqlashdi, sochdi, erib ketdi, keldi.*



**387- mashq.** She'ni ifodali o'qing va ko'chiring.

Lolalar kuldi,  
Gullar ochildi.  
Zarrin quyoshdan  
Nurlar sochildi.

Har yoq to'la gul,  
Ochildi sumbul.  
Qo'shiq boshladi  
Daraxtda bulbul.

*N. Xolmurodov*

Fe'llarni topib, zamonini ayting.



**zarrin** — tovlanib turgan, yarqiroq  
**sumbul** — gulning nomi

*Kuldi* fe'li qanday ma'noda qo'llangan?

**388- mashq.** She'ni ifodali o'qing. Ajratilgan gaplarda shoir nima demoqchi?

Tug'ilganmiz quyosh bo'lib  
Tong quchog'ida.

O'smoqdamiz quloch yoyib  
Vatan bog'ida.

**Yaxshilikka tug'ilganmiz,**  
Ardoqlar zamon.

**Nur — ipakka yo'g'rilganmiz,**  
Tinch bo'lsin jahon.

Bu kelajak — keng jahon,  
Qo'lingni ber, o'rtoqjon!

*Obid Rasul*

She'rni ko'chiring.

Fe'llarni topib, zamon qo'shimchalarini belgilang.

Namuna: *kelganmiz.*

She'rdagi qaysi so'zlarni yozishda xato qilishingiz  
mumkin? Nima uchun?

### O'tgan zamon fe'li

**389- mashq.** O'qing. Fe'llarni topib, o'zak va qo'shimchalarga ajrating.  
Fe'llardan anglashilgan harakat qachon bajarilgan?

Beysbol Amerikada juda taraqqiy etgan. U sportning bir turi. 1999- yili O'zbekistonda beysbol federatsiyasi tuzildi. O'zbekiston jahon va Osiyo federatsiyasiga a'zo bo'ldi. Beysbolchilarimiz 2001- yil xalqaro maydonga chiqishdi. Ular 2001- yil Indoneziyaning Jakarta shahrida o'tkazilgan beysbolchilar musobaqasida qatnashdilar.

Toshkent shahrining Rohat ko'li bo'yida beysbolchilar shaharchasi qurilgan. („*Gulxan*“dan)

Fe'llardagi **-di, -gan** qo'shimchalari qanday ma'noni bildiriyapti?

O'tgan zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan (yoki bajarilmagan) harakatni bildiradi.  
**-di, -gan** — o'tgan zamon qo'shimchalaridir.

**390- mashq.** Matnni o'qing va ko'chiring. Fe'llarni aniqlab, qavs ichida zamonini ko'rsating.

Dilnozaning uyiga Sarvi xola chiqdi. Dilnoza Sarvi xolaga odob bilan salom berdi. U darrov ichkaridan ko'rpacha olib chiqdi.

Dilnoza tezda dasturxon yozdi. Noz-ne'matlarni keltirdi. Sarvi xola ko'p o'tirmadi, lekin Dilnozani maqtadi.

(*Nasiba Ziyovuddinovadan*)

Matnda qaysi fe'lining aytilishi bilan yozilishi mos kelmaydi?



**391- mashq.** She'rni yoddan yozing. So'roqlar yordamida fe'llarni topib, zamonini ko'rsating.

Kuldi lolaqizg'aldoq,  
Bahor keldiyo.  
Yashnab ketdi hammayoq,  
Qirlar kuldiyo.

*Safo Ochil*

Gapning bosh bo'laklari tagiga chizing. Bosh bo'laklardan tuzilgan gaplarga ikkinchi darajali bo'laklar qo'shib yozing.

**392- mashq.** O'qing. O'tgan zamon fe'llarini aniqlang. Ularning aytilishi va yozilishini taqqoslang.

1. **Maktab** so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan. 2. Bu nihollarni bobom bilan kech kuzda ekkanmiz. (*Safar Barnoyev*)  
3. Bobur „Boburnoma“ asarida O'shning binafshasi, lolalari, oqar suvlari, qizil toshlari haqida yozgan. (*Pirimqul Qodirov*)

Fe'l o'zaklarining qaysi tovush bilan tugaganiga diqqat qiling. Fe'llarga o'tgan zamon qo'shimchasi qaysi shaklda qo'shilgan?

**393- mashq.** O'qing. O'tgan zamon fe'llarini aniqlang. Ularning gapdagi vazifasini ayting.

## RAHMDILNING DARAXTI

Rahmdil onasi bergan pulga etik va yegulik olish uchun bozorga bordi. U bozorda ochlikdan madori qurigan kampirni uchratdi. Rahmdil kampirga achindi va undan terak ko'chatlarini sotib oldi. Rahmdil ko'chatni tomorqaga o'tqazdi, tagiga



suv quydi. U tongda hovliga chiqdi. Teraklarni ko'rib, hayratdan turgan joyida qotib qoldi...

(*Olloyor Begaliyevdan*)

Rasm asosida ertakni davom ettiring.

Rahmdil to'g'ri ish qildimi? Uning o'rnida siz nima qilgan bo'lardingiz?

O'tgan zamon qo'shimchasi **k** tovushi bilan tugagan fe'llarga **-kan**; **q** tovushi bilan tugagan fe'llarga **-qan**; boshqa fe'llarga **-gan** shaklida qo'shiladi.



**394- mashq.** Berilgan fe'llarga o'tgan zamon qo'shimchalarini qo'shib yozing va yozilishini izohlang.

Qirq, qo'rq, bich, cho'k, chop.

Shu fe'llardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing va yozing.



**395- mashq.** O'qing va ko'chiring. So'roqlar yordamida fe'llarni toping.

Yurtimizda yog'och o'ymakorligi san'ati qadimdan rivojlangan. Xiva shahri o'zining yog'och o'ymakorligi bilan butun dunyoga tanilgan.

1937- yil xivalik ustalar ishlagan naqshinkor ustun Parijda oltin medal bilan taqdirlangan.

Xivalik ustalar Alisher Navoiy teatrini bezashda ham qatnashganlar.

(*„Gulxan“dan*)

O'tgan zamon qo'shimchasining tagiga to'lqinli chiziq chizing. Ularning aytilishi va yozilishini qiyoslang. Yozilishini tushuntiring.

**396- mashq.** Berilgan fe'llarga o'tgan zamon qo'shimchalarini qo'shib yozing.

Ayt, ko'r, ek, chaq, chiq, eg, ich, tik.

Fe'llarning aytilishi va yozilishini tushuntiring.  
Shu fe'llardan qatnashtirib, ikkita gap tuzing.

**397- mashq.** Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan qo'shimchalardan mosini qo'yib o'qing. Shu fe'llarni ko'chirib, aytilishi va yozilishini tushuntiring. O'tgan zamon qo'shimchalarining tagiga chizing.

Suvi qurigan ariqlarning bo'yiga 22- maktab o'quvchilari 200 tacha chinor ekib ketish... (-di, -ti). Chinorlar ham gaplashar ekan:

— Hammalaring eson-omon joylashib oldilaringmi? — dedi novcha nihol.

— Bolalar ekishayotganda mening bitta shoximni sindirib qo'yish... (-ti, -di), — deb zorlan... (-di, -ti) singan niholcha.

Ertasiga quyosh nurini soch... (-di, -ti).

Bir necha kundan so'ng niholchalar: Suv! Suv! Suv! — deb baqirish... (-di, -ti). Ularning ovozi hech kim eshitmadi. Nihollar tik turganча qotib qoldilar.

Maktab o'quvchilarining qilgan ishlariga o'z munosabatingizni bildiring.

*(Xudoyberdi To'xtaboyevdan)*

**398- mashq.** Katakchalar o'rniga berilgan qo'shimcha bilan o'tgan zamon fe'lini hosil qiling va yozing.

→ **-gan**

→ **-kan**

→ **-qan**

Yozgan fe'llaringizning aytilishi va yozilishini yodingizda tuting.  
**-gan, -kan, -qan** qo'shimchalari qanday tovush bilan tugagan fe'llarga qo'shilishini tushuntiring.



399- **mashq.** O‘qing va ko‘chiring.

**Bahor** keldi. Giloslar **g‘arq** pishdi. Ali gilos daraxtiga chiqdi. Shox uchlaridagi giloslar unga kattaroq, shirinroq tuyuldi.

Ali sekin-sekin daraxtning uchiga chiqdi. Shox **qarsillab** sindi. **Daraxtning** shoxi ham, Ali ham yerga yiqilib tushdi.

( „Gulxan“dan)

O‘tgan zamon fe‘llarini aniqlab, zamon qo‘shimchasining tagiga chizing. Ajratilgan so‘zlarni yozishda qanday xatoga yo‘l qo‘yishingiz mumkin?

### Hozirgi zamon fe‘li

400- **mashq.** O‘qing. Fe‘llarni toping. Qaysi gaplardagi harakat siz so‘zlab turgan vaqtda bajarilyapti?

Derazamning oldida bir tup o‘rik o‘sgan. U erta bahorda oppoq bo‘lib gullaydi. Shu o‘rik gullaganda jonimni hovuchlab turaman.

Mana, qor aralash yomg‘ir yog‘yapti. O‘rik bechora oppoq, nozik gullarini qayoqqa yashirishni bilmayapti. Buni ko‘rib mening yuragim ezilmoqda...

(Muxtor Xudoyqulovdan)

Hozirgi zamon fe‘li nutq so‘zlab turgan paytda bajarilayotgan (yoki bajarilmayotgan) harakatni bildiradi.  
**-yap, -moqda** hozirgi zamon qo‘shimchalaridir.

401- **mashq.** Matnni o‘qing. Fe‘llarni topib, zamonini ayting.

Ikki daryo — **Sirdaryo** va **Amudaryo** oralig‘idagi o‘lka insonlarning yashashi uchun qulay makon bo‘lgan.

Amudaryo qirg‘oqlarida katta-kichik qo‘rg‘onlarning

qoldiqlari topilyapti. Arxeologlar qadimgi madaniyatimiz haqida ma'lumot beruvchi ashyolarni izlashmoqda.

(M. Xayrullayevdan)

Ko'chiring. Fe'llarning tagiga chizing, ustiga qaysi zamonda ekanini (o't.z., hoz. z.) yozing.

Ajratilgan so'zlar nima uchun bosh harf bilan yozilgan?



**402- mashq.** *Izla, gapir* fe'llariga hozirgi zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shib yozing. Zamon qo'shimchalarini belgilang.

**403- mashq.** O'qing. Matnga ikki-uchta gap qo'shib yozing.

Bahor. Quyosh charaqlab nurini sochmoqda. Uning nuri shunday yoqimlik, undan dov-daraxtlar yayramoqda. Daraxtlar qizg'ish tusga kiriyapti. Maysalar nish uryapti. Hamma yoqqa o't-o'lanlarning yoqimli hidi taralmoqda. Osmonda yakka-yakka oppoq bulutlar quvlashmashoq o'ynashmoqda.

(M. Tursunovdan)

Fe'llarni topib, qaysi zamonda ekanini ayting. Hozirgi zamon qo'shimchasining tagiga chizing.

**404- mashq.** O'qing. Fe'llarni topib, zamonini, bo'lishli yoki bo'lishsizligini ayting.

## BULBUL

Qo'shni tomondan bir qushning yoqimli ovozi keldi. Qobiljon devorga tirmashdi, lekin chiqolmadi.

— Dada, nega bizning bog'imizga bulbul kelmaydi? — dedi Qobiljon.

— Bulbul sendan qo'rqadi. Axir sen qushlarga kesak otib, mayib qilyapsan, — dedi dadasi.

Qobiljon o'ylanib qoldi.

— Rostdan ham bulbul bizning bog‘imizga hech kelmaydimi-a?

O‘sha kundan buyon Qobiljon qushlarga kesak otmayapti.

(*Hakim Nazirdan*)

Hozirgi zamon fe‘li qatnashgan gaplarni ko‘chiring. Zamon qo‘shimchasining tagiga chizing.

**405- mashq.** Ko‘rganlaringiz, o‘qiganlaringizdan foydalanib, „O‘lkamizda bahor“ mavzusida hikoyacha tuzing. Tuzgan hikoyangizdagi o‘tgan zamon va hozirgi zamon fe‘llaridan foydalaning. Fe‘llarning tagiga chizing.



**496- mashq.** Ertakni o‘qing. So‘roqlar yordamida fe‘llarni topib, zamonini ayting.

### ENG YAXSHI DORI

Safe degan kichkina qizcha o‘rmonga bordi. U o‘rmonda adashib qoldi. Adashgan Safega bir qushcha yordamlashdi. Qizcha esa qushchani qafasga solib qo‘ydi. Qushcha qafasda sayramay qo‘ydi.

— Nima uchun sayramayapsan? — so‘radi Safe qushchadan.

— Og‘ir kasal bo‘lib qoldim, meni ozodlik davolaydi. U quvvatimni ham, baxtimni ham qaytib beradi, — deb javob berdi qushcha.

Safe qushcha uchun ozodlik hamma narsadan afzal ekani-ni tushundi va uni uchirib yubordi.

(*„Arab xalq ertagi“dan*)

Matnni ko‘chirib, zamon qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

### Kelasi zamon fe‘li

**407- mashq.** O‘qing. So‘roqlar yordamida fe‘llarni topib ayting.

Biz yaqinda „Tengdoshlaring hayotidan“ nomli kecha o‘tkazmoqchimiz. Kechaning birinchi qismida Nodira

tengdoshlarimizning darsdan tashqari vaqtlardagi mashg'ulotlari haqida so'zlamochi. Sarvar o'zi yozgan she'rini o'qib bermoqchi.



Shu fe'llardan anglashilgan harakat qachon bajariladi?

Kelasi zamon fe'li nutq so'zlab turgan paytdan keyin bajariladigan (yoki bajarilmaydigan) harakatni bildiradi. **-moqchi** kelasi zamon qo'shimchasidir.

**408- mashq.** *Yumshat, ek* fe'llariga kelasi zamon qo'shimchalarini qo'shib tustlang va yozing. Kelasi zamon va shaxs-son qo'shimchalarini belgilang.



**409- mashq.** „Mening orzuyim“ mavzusida hikoyacha tuzing. Hikoya tuzishda quyidagi savollardan foydalaning.

1. Siz nimalarni orzu qilib yashayapsiz? 2. Bu orzu sizda qanday paydo bo'ldi? 3. Orzuyingizning ushalishi uchun nima qilmoqchisiz? 4. Siz hozir qaysi fanlarni qunt bilan o'rganyapsiz?

Tuzgan hikoyangizdagi fe'llarning tagiga chizing. Shu fe'llarning ustiga qaysi zamonda ekanini yozing.

**410- mashq.** Matnni o'qing. Unga sarlavha toping.

Azimning otasi cho'pon. U Qizilqumning „Yulg'unli“ degan joyida qo'y boqadi.

Bir kuni otasi Azimga yaylovdan ikkita kiyik bolasini keltirdi. Azim ularni ko'rib sevindi.

— Ota, bitta kiyikchani o'zim boqmoqchiman, ikkinchisini Azizga bermoqchiman. Lekin kiyikchalar mendan hurkib qochyapti, — dedi Azim.

— Sen ularga sut ber, boshini sila. Shunda kiyikchalar senga asta-sekin o'rganadi, — dedi otasi.

(Safar Barnoyevdan)

Fe'llarni toping. Kelasi zamon fe'li qatnashgan gaplarni ko'chiring. Fe'llardagi zamon qo'shimchalarini belgilang.



Qaysi so'zlar imlosida xatoga yo'l qo'yishingiz mumkin? Ularning yozilishini yodingizda tuting.

**411- mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarga yaqin ma'noli fe'llarni tanlab, ularni namunadagidek yozing.

Namuna: *gapirmoq — so'zlamoq*

**Gapirmoq**, yanglishmoq, **eslamoq**, tayyorlamoq, takrorlamoq, **istamoq**, chanqamoq, **hozirlamoq**, so'zlamoq, qaytarmoq, adashmoq, xotirlamoq, **suv samoq**, eshitmoq, bajarmoq, **tinglamoq**, **ijro qilmoq**, xohlamoq.



**412- mashq.** Fe'llarni o'qing va ko'chiring. Ulardagi bo'lishsizlik, zamon qo'shimchalarini belgilang.

Namuna: *chaqirdim*

Chaqirdim, sinamoqchiman, aytmading, ko'rgansan, quvmayapti, to'plamaganman, kuzatyapti, tanlamoqdasiz.

Shu fe'llardan qatnashtirib, ikkita gap tuzib yozing.

## FE'LLARNING SHAXS-SON QO'SHIMCHALARI BILAN QO'LLANISHI

**413- mashq.** Har bir ustunchadagi gaplarni o'qing. Harakatni bildirgan so'zlarni toping. Ularni ega bilan birga ko'chiring.

|                                       |                                       |                                  |
|---------------------------------------|---------------------------------------|----------------------------------|
| Men qushlarga don berdim.             | Sen kelgusida qaysi kasbni tanlaysan? | U kattalar mehnatini qadrlaydi.  |
| Biz ozod va obod Vatanda yashayapmiz. | Siz qaysi kitoblarni o'qigansiz?      | Ular qishloq tongini kuzatdilar. |

Ega orqali harakatni qaysi shaxs bajarayotganini aniqlang. Gapning egasi bilan kesimini birga ko'chiring.



## Fe'llardagi oxirgi qo'shimchalar nimani bildiriyapti?

Jadvalni kuzating. Shaxs-son qo'shimchalarini bilib oling.

| Shaxslar | Sonlar                                  |                                            |
|----------|-----------------------------------------|--------------------------------------------|
|          | Birlik qo'shimchalari                   | Ko'plik qo'shimchalari                     |
| I        | o'qidim, ishlayapman,<br>o'qimoqchiman  | o'qidik, ishlayapmiz,<br>o'qimoqchimiz     |
| II       | o'qiding, ishlayapsan,<br>o'qimoqchisan | o'qidingiz, ishlayapsiz,<br>o'qimoqchisiz  |
| III      | o'qidi, ishlayapti,<br>o'qimoqchi       | o'qidilar, ishlayaptilar,<br>o'qimoqchilar |

Fe'llardagi **-m, -man, -ng, -san, -di(-ti), -k, -miz, -ngiz, -siz, -di(lar)** shaxs-son qo'shimchalaridir.

Shaxs-son qo'shimchalari harakatning uch shaxsdan biri tomonidan birlik va ko'plikda bajarilgan yoki bajarilmaganini bildiradi.

**414- mashq.** Harakatni bildirgan so'zlar oldiga kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib, gaplar tuzing. Fe'ning qaysi shaxs-sonda ekanini ayting.

Aytdi, yozmoqchi, arralayapti.

Jadvaldan foydalangan holda shu fe'llarni I va II shaxs birlik va ko'plik qo'shimchalari bilan qo'llab yozing.

**415- mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarga so'roq bering.

### TIL VA TISH

Til tishlarga dedi:

— \_\_\_\_\_ qachon o'z holimga **qo'yasiz**. Siz doim yo'limni to'sasiz. Men o'zim xohlaganimdek sizning manfaatingizga xizmat qilishni **istayman**.



— \_\_\_\_\_ aqlning yo‘l-yo‘rig‘i bilan ish tutamiz. Arzingni aqlga ayt, — chug‘urlashdi tishlar.

Til bu javobdan o‘ng‘aysizlandi va Aqlga yorildi. Aql **uqdirdi**:

— \_\_\_\_\_ seni o‘z vaqtida tiyib turmasak, sen egamizning yuzini shuvit qilasan, uni elning nazaridan qoldirasan.

*(G‘ani Abdullayevdan)*

Shaxs-son qo‘shimchalari yordamida harakatning qaysi shaxs tomonidan bajarilganini aniqlang va namunadagidek yozing.

Namuna: Siz qo‘yasiz.



**416- mashq.** O‘qing. Matndagi fe’llarning shaxs-sonini ayting.

Dam olish kuni men do‘stim Rahmatilla bilan Parkentga bordim. Biz u yerda har xil dorivor o‘tlarni terib yurgan bolalarni uchratdik. Ular bilan tanishdik.

— Sen nima teryapsan? — deb so‘radim Rustamdan. U momaqaymoq — qoqi o‘t terayotganini aytdi.

— Sen nima teryapsan? — so‘radi Rahmatilla To‘lqindan.

— Men qora o‘t teryapman, — deb javob berdi u.

Fe’llarni ko‘chirib, shaxs-son qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang. Siz qanday dorivor o‘simliklarni bilasiz?

**417- mashq.** She’rni o‘qing va yoddan yozing.

**Gullarga suv tashiyman,  
Qo‘lda jajji chelagim.  
Charchamayman sira ham,  
Juda kuchli bilagim.**

*Ollobergan Po‘lat*

So‘roqlar yordamida ajratilgan so‘zlarning turkumini aniqlang. Shaxs-son qo‘shimchalarini belgilang va qavs ichida shaxs-sonini yozing.

Shaxs-son qo‘shimchalari tuslovchi qo‘shimchalaridir. Fe’llarning tuslovchi qo‘shimchalar bilan qo‘llanishi **tuslanish** deyiladi.

**418- mashq.** She'ni ifodali o'qing. Uning nima haqida ekanini ayting.

Tog'laringda **kezganman**,  
Bog'laringda kezganman,  
Ona diyor, mehringni  
Har qadamda **sezganman**.

**Sevdik** seni umrbod,  
Sen borsanki ko'ngil shod.  
Ne **buyursang** biz tayyor,  
Biz — baxtiyor yosh avlod!

*Sh. Sa'dulla*

Ajratilgan so'zlarga so'roq berib, turkumini aniqlang. Ularga mos kishilik olmoshlari topib, birga yozing. Zamon, shaxs-son qo'shimchalarini tegishlicha belgilang.



**419- mashq.** Nuqtalar o'rniga shaxs-son qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Men xalqimga nafim tegmagan kunni umrimning hisobiga qo'sholmay... (*M. S. Salmon*). 2. Sizlar ilmlar uyini boshqarishni o'z zimmangizga ol... . Avlodlar sizning nomingizni sharaf bilan yodga ola... . 3. Fozil va komil odamlari bo'lgan mamlakat to'g'ri yo'ldan adashmay... . 4. Siz bilimni mukammal egallamoq uchun mehnat qil... .

**420- mashq.** She'ni o'qing. Nuqtalar o'rniga shaxs-son qo'shimchalaridan mosini qo'yib yozing.

Ey Vatanim bahori,  
Ifor sochib kula...

Sen pushti va zangori  
Gullar bilan to'la...

*Yo'ldosh Eshbek*

*Zangori* so'zining ma'nosini ayting.



**ifor sochib** — hid taratib

**421- mashq.** Matnni o'qing. Bolalar, Bahorgul, Yozbek, Kuzbeka qanday qilib topildi?

Yil bobo to'rt farzand ko'ribdi. Ularni Bahorgul, Yozbek, Kuzbeka va Qishjon deb nomlabdi.

Bir kuni Yil bobo sovg'a-salom olish uchun shaharga ketibdi. Bolalari esa bekinmashoq o'ynashibdi.

Bahorgul Qishjonning oq po'stinining tagiga bekinibdi. Yozbek Quyosh nuriga osilib, oppoq bulutning ustiga chiqibdi. Kuzbeka qovunning urug'i ichiga yashirinibdi. Qishjon sanoqni tugatib atrofga qarabdi. Hamma yoq jimjit emish.

Qishjon ularni qidira-qidira terlab, oq po'stinini yechibdi.

*(Olloyor Begaliyevdan)*

Nima qilibdi? so'rog'iga javob bo'lgan fe'llarni topib ko'chiring. Shaxs-son qo'shimchasining aytilishi va yozilishini taqqoslang. Fe'llarning yozilishini yodingizda tuting.



**422- mashq.** Gaplarni o'qing va ko'chiring. Fe'llarni topib, tagiga chizing. Shaxs-son qo'shimchalarini belgilang.

1. Biz mustaqilligimizni mustahkamlashga bor kuchimizni sarflaymiz. 2. Men quyosh botishini ko'p kuzatganman. Quyosh botayotganda alvon tusga kiradi. Siz quyoshning botishini kuzatganmisiz? 3. Biz yerni sabzavot ekish uchun tayyorladik. Yerni chopdik, kesaklarni maydaladik.

**423- mashq.** Nuqtalar o'rniga shaxs-son qo'shimchalaridan mosini qo'yib, matnni o'qing.

Laylak odamga o'xshab so'zlab...:

— Meni qo'yib yubor. Nima tilasa..., shuni bera... .

Laylak cholga qaynarxumcha, ochildasturxon, urto'q-moqni berib... .

Chol qaynarxumchadagi tillalarni beva-bechoralarga ulashib... .



Rasm asosida ertakni davom ettiring va unga sarlavha toping.



Shaxs-son qo‘shimchalari qanday vazifa bajaradi?

Fe‘llardagi shaxs-son qo‘shimchalari gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘laydi. Shaxs-son qo‘shimchalari so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalardir.

**424- mashq.** She’rni ifodali o‘qing. She’r nimaning tilidan aytilgan?

### BAHOR SO‘ZI

Tog‘lar bag‘ri — adirlarda  
**Lolaman, lovullayman.**  
**Ko‘piraman, guvullayman,**  
**Sho‘x soyday shovullayman.**  
**Uyg‘onaman, ko‘z ochaman,**  
 Go‘zal, sirli tong bo‘lib.

**Tovlanaman** kamalakday,  
Turfa-turfa rang bo'lib.

*Rauf Tolib*

Ajratilgan fe'llarni II shaxs birlikda tuslab, she'rni qayta o'qing va yozing.



She'r endi kimning tilidan aytildi? Unga qanday sarlavha qo'yish kerak?



**425- mashq.** Gaplarni o'qing va ko'chiring.

1. Men bolalarimni, nabiralarimni sog'indim. (*Mirmuhsin*)
2. Biz tekis yo'ldan so'lim Yakkabog' qishlog'iga bordik. (*A. Aminov*)
3. Qirda suruv-suruv qo'ylar barra o'tlardan boshini ko'tarmaydi. (*N. Fozilov*)
4. Sen qachon darslaringni tayyorlaysan?

Fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.

Shaxs-son qo'shimchalarini belgilang.

Shaxs-son qo'shimchalari qanday vazifa bajaryapti?

**426- mashq.** Topishmoqlarni o'qing, javobini toping.



1. Qora sichqon o'rada,  
Dumi qoldi dalada.
2. Emaklagan toshni ko'rdim,  
Toshdan chiqqan boshni ko'rdim.

Ko'chiring.

So'roqlar yordamida fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.

Shaxs-son qo'shimchalarini belgilang.

**427- mashq.** Rasmni kuzating. Rasm asosida „Chorrahada“ mavzusida hikoya tuzib yozing.



Hikoyangizda *to'xtang, ogoh bo'ling, yordamlashing, o'ting, qarang* fe'llaridan foydalaning. Shu fe'llarni o'z maqsadingizga muvofiq shaxs-sonda qo'llang.

**428- mashq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga shaxs-son qo'shimchalaridan mosini qo'yib, topishmoqlarni ko'chiring, javobini toping. Qavs ichida fe'lning shaxs-sonini ko'rsating.



1. Birlashtirib kiyimni  
Issiq tuta... sizni.

2. Osmonda tosh yumalar, lekin ko'rmadi...  
Gumburlab to'p otilar, undan qo'rqmadi... .

3. Tunda ko‘rib cho‘g‘ dey...  
Tongda ko‘rib yo‘q dey... .

4. Vujudimda tura...  
Duk-duk qilib yura... .



**429- mashq.** 4- sinf „O‘qish kitobi“dan to‘rtta gap ko‘chirib yozing. Fe‘llarni topib, shaxs-sonini aniqlang va tagiga chizing.

## FE‘L YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

**430- mashq.** O‘qing. Fe‘llarni aniqlab, ularning bo‘lishli-bo‘lishsizligini, zamoni, shaxs-sonini ayting.

1. Ayni yoz — saraton chog‘,  
**Suluvlangan** dala, bog‘.

2. **Yiltillagan** husayniga boq,  
Donasidan go‘yo bol tomar.

*Obid Rasul*

Ajratib ko‘rsatilgan fe‘llarni ko‘chiring. Ularning o‘zak va fe‘l yasovchi qo‘shimchalarini tegishlicha belgilang.

**431- mashq.** Matnni o‘qing. So‘roqlar yordamida fe‘llarni topib ayting.

1. Buyuk bobolarning ulug‘vor ishlari bilan faxrlan. 2. Sizga muhtojlik sezgan kishilarga yordamlashing. 3. Agar joningni Vatanga fido qilolmasang, o‘zingni vatanparvar hisoblama. 4. Yagona yaxshi maqsad yo‘lida birlashing. Shunda sizni hech kim yengolmaydi.

Fe‘l yasovchi qo‘shimchalarni olgan fe‘llarni ko‘chiring. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.



Tilimizda fe‘llar qanday boyib boradi?

**-la, -lan, -sira, -illa, (-ulla) -lash** fe'l yasovchi qo'shimchalardir.

**432- mashq.** Nuqtalar o'rniga fe'l yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring. Fe'l yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

Shar..., soz..., shod..., o't..., oq..., tinch..., zavq..., chir..., viz..., bir..., ov... .



**433- mashq.** **-la, -illa, -lan, -lash** fe'l yasovchi qo'shimchalari bilan nechtagacha fe'l yasay olasiz? O'zingizni sinang. Topgan fe'llaringizni yozing.

Namuna: *yordamlash* — *ko'maklash*, ...

**434- mashq.** Chiziqalar o'rniga mos fe'l qo'yib o'qing. Ularning gapdagi vazifasini ayting. Kesim orqali so'roq berib, gapning egasini toping.

Necha yuz yillar davomida yaratilgan bog'larimiz \_\_\_\_\_ .  
Buning oqibatida bozorlarda yong'oq, mayiz, turshaklar \_\_\_\_\_ va \_\_\_\_\_ .

Aziz bolajonlarim! „Sharq jannati“ deb atalgan bog'larimiz o'z qadrini \_\_\_\_\_ . Siz ham yangi bog' yaratishga o'z hissangizni \_\_\_\_\_ .

Ega va kesimni birga ko'chiring. Fe'llardagi yasovchi qo'shimchani belgilang.

Qo'yish uchun fe'llar: *kamaydi, buzildi, qimmatlashdi, qo'shing, topsin.*

**435- mashq.** Nuqtalar o'rniga fe'l yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib o'qing.

Iqtisodiy bilimga ega bo'lgan odam hamyonidan ayrilmaydi. Har kim iqtisodni o'z xonadonidan bosh...mog'i kerak. Elektr quvvatidan, suvdan, gazdan tejab foyda...ishni




odat qiling. Ovqat...ish uchun ortiqcha narsa xarid qilmang, oshqozon buziladi. Shularga amal qilgan bolakaydan yaxshigina iqtisodchi chiqadi.

(*Namoz Sa'dullayevdan*)

Fe'l yasovchi qo'shimchalarni belgilang.

**436- mashq.** Chizmalarni kuzating. Bir xil fe'l yasovchi qo'shimchali so'zlar guruhini tuzib yozing.



Fe'lning o'zak va qo'shimchalarini belgilang.

Qaysi fe'llarning yozilishida xato qilishingiz mumkin? Ularning yozilishini yodingizda tuting.

**437- mashq.** Berilgan so'zlarga fe'l yasovchi qo'shimchalar qo'shib, juftlab yozing. Ularning ma'nosini qiyoslang.

Iz, toza, yaxshi, bosh, qo'l, es, bir, ikki.

N a m u n a : *iz — izla, ...*



Fe'llar qaysi so'z turkumlaridan yasaladi? Tilimizda so'zlar qay tarzda ko'payib boradi?

**438- mashq.** O'qing. Har bir so'zga so'roq bering.

guldor, guldon, gulli, gulla, gulchi, gulzor, suvsira, suvchi, qalamdon, suvsiz, suvli, suvla.

Avval sifatlarni, keyin otlarni, so'ng fe'llarni ko'chiring. So'zlarning o'zak va qo'shimchalarini belgilang.



**439- mashq.** Matnni o‘qing. Undan nimalarni bilib oldingiz?

21- mart kuni qishning kenja o‘g‘li Hut o‘z o‘rnini Bahorning to‘ng‘ich o‘g‘li Hamalga bo‘shatadi. Hamal boshlanishi bilan dehqon yerga don sepadi. Shuning uchun xalqimiz „Hamal kirdi — amal kirdi“ deydi.

21- martda kun va tun tenglashadi. Xalqimiz orasida bu kun Yangi kun — Navro‘z deb nomlanadi.

(„Gulxan“dan)

Ko‘chiring. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalarni begilang. Ular qaysi so‘z turkumidan yasalgan?

**440- mashq.** She‘rni o‘qing va ko‘chiring. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

Salomlashib sizlashamiz,  
Bir-birimiz izlashamiz.

*Obid Rasul*

**441- mashq.** O‘qing. Fe‘llarni toping. Ularning bo‘lishli-bo‘lishsizligini, zamoni va shaxs-sonini ayting.

Yer yuzida tinchlik, xavfsizlik, osoyishtalikni saqlash uchun 1945- yilning 24- iyunida xalqaro tashkilot tuzildi. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti deb nomlandi. U xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlikni o‘rnatadi.

(„Gulxan“dan)

*Osoyishtalik* so‘ziga ma‘nodosh so‘z toping.



**442- mashq.** 4- sinf „O‘qish kitobi“dagi biror asardan parcha o‘qing. Bo‘lishli fe‘llar bilan bo‘lishsiz fe‘llarni topib yozing. Shu fe‘llarning zamoni va shaxs-sonini belgilang.

**443- mashq.** Matnni o‘qing. Matn nima haqida ekanini ayting.

1999- yil „Ayollar yili“ deb nomlandi. Shu yilda Zulfiya nomidagi mukofot ta‘sis etildi. Mukofot 14 yoshdan 25 yoshga-

cha bo‘lgan iqtidorli, bilimdon, ijodkor qizlarga beriladi. Nomzodlar adabiyot, san‘at, madaniyat, fan va ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlanadi.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti har yili Xalqaro xotin-qizlar bayrami kunida topshiriladi. („*Gulxan*“ dan)

Fe‘llarni ko‘chiring. Ularning bo‘lishli-bo‘lishsizligini, zamoni va shaxs-sonini qavsda yozing. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.

## 9- MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI!



**444- mashq.** O‘qing va ko‘chiring. Ajratilgan fe‘llarning bo‘lishli-bo‘lishsizligi, zamoni va shaxs-sonini qavs ichida yozing.

Sizning bobolaringiz Alpomishlar avlodi **bo‘lgan**. Ularni arslon kelbatli, sher yurakli deb **ta‘riflashgan**. Chavandozlik, merganlikda ular bilan tenglashadigan odamlar **bo‘lmagan**. Aql, tafakkurda ham dunyoni lol **qoldirishgan**. Siz ularga munosib voris **bo‘ling**.

*Muhabbat Hamidova*

Matnda uchragan fe‘llardagi fe‘l yasovchi qo‘shimchalarni belgilang.



**voris** — ota-bobolar ishini davom ettiruvchi

**445- mashq.** Quyidagi rasmni kuzating. „Maktabimiz bog‘ida hashar“ mavzusida insho yozing. Mavzuni yoritishda qaysi turkumdagi so‘zlardan ko‘proq foydalandingiz? Qaysi turkumdagi fe‘llar gapingizni tugallashingizga yordam berdi?



### ***Bilimingizni tekshiring!***



- Fe‘l nimani bildiradi va qaysi so‘roqlarga javob bo‘ladi?
- Tuslanish nima? Shaxs-son qo‘shimchalarini egalik qo‘shimchalaridan qanday farqlaysiz?
- Fe‘lda nechta zamon bor? Ular qaysilar?
- O‘tgan zamon qo‘shimchalarining aytilishi va yozilishini misollar bilan tushuntiring.
- Hozirgi zamon fe‘li qaysi qo‘shimchalar bilan hosil qilinadi?
- Kelasi zamon fe‘li-chi?

## O'QUV YILI OXIRIDAGI TAKRORLASH

**446- mashq.** Matnni o'qing. Matnga sarlavha toping.

Men shohdan kutubxonasiga kirishga va u yerdagi tibga oid kitoblarni mutolaa qilishga ruxsat so'radim. Shoh ruxsat berdi.

Kutubxonaning har bir xonasidagi kitoblarni o'qidim. Yoshim o'n sakkizga borganda bu ilmlarning hammasini egallab bo'ldim.

*(Ibn Sino esdaliklaridan)*

Matnni qismlarga ajrating. Har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlang. Matnning mazmunini qayta hikoyalang.

**Ruxsat bermoq** so'ziga qarama-qarshi ma'noli so'z toping.

**447- mashq.** Hikoyani o'qing. Hikoyada maqsadga ko'ra qanday gaplar qo'llanilgan?

Men Baroq degan mushugimni yaxshi ko'raman. Uning chiroyli, uzun, qalin va momiq yunglari bor.

Baroq ovqatli idishlarga tumshug'ini tiqmaydi. Oldiga qo'ygan ovqatlarnigina yeydi. U yozda gilos va uzumlarni chug'urchuqlardan qo'riqlaydi.

*(Hakim Nazirdan)*

Matndan uyushiq bo'lakli gaplarni ko'chiring.

Shu gaplarning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini belgilang.

Gapda qaysi bo'laklar uyushib kelgan?



**448- mashq.** Matnni gaplarga ajratib o'qing. Gaplarni qanday ohang bilan o'qingiz?

Bahorning har bir kuni insonlarda xush kayfiyat uyg'otadi borliq zumrad yashillikka burkanadi dov-daraxtlarda kurtak nish uradi tollar bargak chiqaradi qizlar undan sochpopuk taqadilar mevali daraxtlar oq, pushti rangga kiradi

Har bir gapning oxiriga tinish belgilarini qo'yib, matnni ko'chiring.

**449- mashq.** Matni o'qing. Unga sarlavha qo'yib ko'chiring. Matn maqsadga ko'ra qanday gaplardan tuzilgan?

Hashar Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Hashar yo'li bilan uylar qurilgan. Ko'chalar tozalangan. Ko'chatlar o'tqazilgan. Ariqlar qazilgan. Yo'llar, ko'priklar, shifoxonalar qurilgan.

*Mahmud Sattorov*

Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing. Ega va kesimning qaysi so'z turkumiga kirishini ustiga yozing.

**450- mashq.** Matni o'qing.

### BOBUR MIRZO TUG'ILGANDA

Yunusxon beshik ustidan bir hovuch tanga sochdi. Kanizaklar tangalarni terib olishdi.

— Nabiram bahodir sarkarda bo'lsin! — deb duo qildi buvasi Yunusxon.

— O'g'lim olamgir podsho bo'lsin! — deb tilak bildirdi otasi Umarshayx Mirzo.

— Nuri diydam olim bo'lsin! — deb niyat qildi buvisi Eson Davlatbegim.

— Bolaginam shoir bo'lsin! — deb orzu qildi onasi Qutlug'nigorxonim.

*(Xayriddin Sultonovdan)*

Boburning buvasi, buvisi, otasi va onasining gaplarini ko'chiring. Qavs ichida gaplarning maqsadga ko'ra turini yozing. Gap bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing.



**451- mashq.** O'qing. Matnning maqsadga ko'ra qanday gaplardan tuzilganini ayting.

Non qachon paydo bo'lgan?

Olimlar non bundan o'n besh ming yil ilgari paydo bo'lgan deyishadi. Ular nonni ona sutiga tenglashtiradilar.

Inson bolasi uchun shu ikki ne'matdan qimmatli narsa yo'q.  
Bolalar, nonni isrof qilmangiz!

Ko'chiring. Uchinchi va to'rtinchi gapdagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning tagiga chizing.

**452- mashq.** Topishmoqni o'qing, javobini toping.



Qish, bahor, yozda turadi,  
Faqat kuzda yuradi.  
Paxtazorda gurullab,  
Ishda javlon uradi.

Topishmoqni ko'chiring. Otlarni topib qaysi kelishikda qo'llanganini ayting. Ular gapda qaysi bo'lak vazifasini bajargan?

**453- mashq.** Matnni o'qing va ko'chiring.

Eng yirik suv havzasi Aydar-Arnasoy, Dengizko'l, Qoraqir, Shofirko'l, Tozako'l, Tolimarjon, Chimqo'rg'on kabi suv omborlaridir.

Jizzax va Navoiy viloyatida Aydar-Arnasoy ko'li joylashgan. Ko'lning suvi sho'r bo'ladi. Lekin ular jamiyat va tabiat uchun foydalidir. („Gulxan“dan)

Otlarning tagiga chizing. Ularning qaysi kelishikda ekanini ayting. Otlar nima uchun kichik va bosh harflar bilan yozilgan.



**454- mashq.** 4- sinf „O'qish kitobi“dan ikkita gap tanlab yozing. Otlarni aniqlab, tagiga chizing.

**455- mashq.** Matnni o'qing. Matn kim haqida ekanini ayting.

Maktabdan qaytganimdan keyin hamisha guzarga shoshaman. Miskarlar, tunukasozlar, kosiblar oldida o'tiraman. Ulardan burungi zamonda bo'lgan voqealarni eshitishni yaxshi ko'raman. Miskarlar, chegachilar, tunukasozlar ko'p antiqa gaplarni gapirardilar. (Oybekdan)

Otlarni topib ko'chiring. Ularning o'zak va qo'shimchalarini belgilang. Qo'shimchalarning turini ayting.

**456- mashq.** Matnni o'qing. Sifatlarni topib, ma'no turini, gapdagi vazifasini ayting.

Bolalar o'tloqqa chiqishdi. O'tloq yam-yashil o'tlar, oq, sariq, qizil gullarga boy joy edi.

Cho'qqidan oqib tushgan tip-tiniq suvlar qum-toshlar orasida ariqchalar hosil qilgan. Bu ariqchalar bo'yida o'tkir hidli qoramtir yalpizlar, sershox jambillar o'sib yotardi. O'tloqning sof va xushbo'y havosi kishiga orom bag'ishlaydi.

*(Hakim Nazirdan)*

Sifatlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring. Sifatlar otlarga nima yordamida bog'langan?



**457- mashq.** -li, -siz, -dor, -chan sifat yasovchi qo'shimchalar bilan so'zlar tuzing va yozing. Yozgan so'zlaringizning o'zak va qo'shimchalarini belgilang.

**458- mashq.** O'qing. Gaplarning maqsadga ko'ra turini ayting.

1. Qirqoyoqning ayrim turlarida 270 juft oyoqlilari ham uchraydi.

2. Siz chivinining tishi nechtaligini bilasizmi? Uning rop-pa-rosa 22 ta tishi bor.

Ko'chiring. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozing.  
Fe'llarni topib, tagiga chizing.

**459- mashq.** Matnni o'qing. Abu Rayhon Beruniy ilm olishni va til o'rganishni qachon boshlagan ekan?

Men bolaligimda ko'proq bilim olishga intildim. Biz yashaydigan joyga bir yunon ko'chib keldi. Men har xil donlarni, urug'larni, mevalarni olib borib unga ko'rsatardim. Bu narsalarning uning tilida qanday nomlanishini so'rardim. Qog'ozga nomini yozib qo'yardim. Men shunday qilib yunon tilini o'rgandim.

*Hamidjon Homidiy*

Matnni ko'chiring. Kishilik olmoshlari va fe'llarning tagiga chizing.





**460- mashq.** -la, -illa yasovchi qo'shimchali fe'llardan yozing. Yozgan so'zlaringizning o'zak va qo'shimchalarini belgilang. Qavs ichida qaysi turkumga kirishini ko'rsating.

**461- mashq.** She'rni ifodali o'qing. She'r qanday gaplardan tuzilgan?

Shoxdan shoxga qo'nib,  
O'ynaydi qushlar.  
Sira o'z holimga  
Qo'ymaydi qushlar.

*Safo Ochil*

Ko'chiring. So'zlarning ustiga qaysi turkumga kirishini yozing.

**462- mashq.** O'qing va ko'chiring. So'roqlar yordamida ot, sifat va sonlarni topib, tagiga chizing.

Dunyoda eng katta hayvon ko'k kitdir. Uning uzunligi o'ttiz metrdan oshadi. Bu ketma-ket qo'yilgan oltita fildan uzunroqdir.

Bitta ko'k kit yettita vagonga yuk bo'ladi. („G'uncha“dan)

Siz yana qaysi katta hayvonlarning nomini bilasiz?

**463- mashq.** *Besaranjom* so'zidan 60 dan ortiq so'z tuzish mumkin. O'zingizni sinang. Siz qancha so'z tuza olasiz? Tuzgan so'zlaringizni so'z turkumlari bo'yicha guruhlab, ustuncha shaklida yozing.



**464- mashq.** Gaplarni o'qing. Ajratilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan ko'chiring.

1. Bahor **yashil ko'ylagini** kiydi. 2. Bolalar **ko'chalarni** tozaladilar.

So'zlar o'zaro nima yordamida bog'langan?

**465- mashq.** Nuqtalar o'miga zarur unli harf qo'yib yozing. Ularning aytilishi va yozilishidagi farqni izohlang.

Sam.lyot, avtom.bil, k.mandir, mug'mbir, no'x.t, t.rozi, m.tor, agr.nom, uyq., huq.q, tumsh.q, buyr.q, bur.n.

Yozganlaringizni lug'atchadan tekshiring.

**466- mashq.** Nuqtalar o‘rniga zarur unli harfni qo‘yib ko‘chiring.

Ko‘pr.k, to‘l.q, bo‘l.m, bo‘y.n, to‘s.q, bo‘l.q, bo‘rs.q,  
avg.st, ah.l, ul.g‘, ad.r, cho‘z.q.

Bir satrdan ikkinchi satrga bo‘g‘inlab ko‘chirilmaydigan so‘zlarning tagiga chizing. Nima uchun ular bo‘g‘inlab ko‘chirilmaydi?

**467- mashq.** O‘qing. So‘zlarni alifbo tartibida juftlab yozing. Juftlab berilgan so‘zlar ma‘nosini farqlayotgan harflarning tagiga chizing.

Yod—yot, eg—ek, sut—sud, darz—dars, o‘zdi—o‘sdi,  
yoriq—yorug‘, chalg‘i—cholg‘u.

Ajratilgan so‘zlar ishtirokida ikkita gap tuzing. So‘z ma‘nosini farqlayotgan undoshlarning jarangsiz yoki jarangli ekanini ayting.

**468- mashq.** Nuqtalar o‘rniga zarur harflarni qo‘yib ko‘chiring. Aytilishi va yozilishidagi farqni aniqlang.

Mad.iya, a.oli, .alol, .ashar, ra.mdil, mu.bir, ru.sat, ta.ir,  
.arsang.

Yozganlaringizni lug‘atchadan tekshiring.



**469- mashq.** Ismlarni o‘qing. Tutuq belgisi shu so‘zlarda qanday talaffuz uchun xizmat qilyapti?

A‘zamxon, E‘tiborxon, Ja‘far, Jur‘at, Ra‘no, Ma‘suma,  
Ne‘matjon, La‘lixon, Sa‘dulla, Tal‘at, Mas‘uda.

Ismlarni alifbo tartibida yozing. Shu ismlarning ma‘nosini bilasizmi?

**470- mashq.** O‘qing. Bir xil undoshli so‘zlarning yozilishini yodingizda tuting.

Tashakkur, pilla, minnatdor, muvaffaqiyat, chaqqon,  
hammom, g‘ijjak, metall, tanaffus, tabassum, kasseta.

Oldin jarangli bir xil undoshli, keyin jarangsiz bir xil undoshli so‘zlarni ko‘chiring. Aytilishi va yozilishida farq qilgan so‘zlarni aniqlang.

**471- mashq.** O'zingiz bir xil unli va undoshlar yonma-yon kelgan so'zlardan topib yozing.

**472- mashq.** Nuqtalar o'rniga zarur harflarni qo'yib yozing. So'zlarning aytilishi bilan yozilishidagi farqni ayting.

1. Boshqa odamlarning senga ko'rsat.an ozgina ya.shiligini bir dunyo deb tan olsanggina, sen oq ko'ngil odamsan.
2. ..yotda sening aqlli bo'lishingga bemin.at .izmat qiladigan ul.g' ustoz kito.dir.

*(Yoqubjon Shukurov)*

**473- mashq.** Ikkinchi bo'g'inida **u** harfi yoziladigan so'zlar guruhini tuzib yozing.

**474- mashq.** Talaffuzda so'z oxiridagi **t** va **d** tovushi tushib qoladigan so'zlar guruhini tuzib yozing.

**475- mashq.** She'rni ifodali o'qing.

Tong ketidan tong otar,  
nurafshon kun muborak.  
Yillar o'tar, ong oshar,  
ezgu zamondan darak.  
Shaxdam qadamlar tashlang,  
bo'lingiz otash yurak,  
Ming tomirli elatmiz  
buyuk Turon mushtarak.

*Yo'ldosh Muqim o'g'li Otash*

Shoir she'r orqali nimalar demoqchiligini tushuntiring.

# LUG‘AT

## A

agronom  
akvarium  
andaza  
anhor  
antenna  
arslon  
avtomobil  
achchiq  
a‘lo  
an‘ana

## B

baho  
bahor  
baland  
behi  
binafsha  
bodring  
boychechak

## D

daftar  
daraxt  
daromad  
daryo  
dastlab  
davlat  
dasht  
dehqon  
diktant  
dorixona

## E

ehtiyoj  
ehtiyot  
ekskavator  
eskalator  
erk  
e‘zoz

## F

familiya  
farzand

farrosh  
fasl  
faxr

## G

garmdori  
gavjum  
giyoh  
gramm  
gulsapsar

## H

hadya  
hammom  
hamroh  
handalak  
harbiy  
harorat  
havas  
havo  
hayot  
hayvonot  
hazil  
hasharot  
himoya  
hissa  
hosil  
hovli  
hovuz  
hunar  
husn

## I

ilm-ma‘rifat  
insof  
in‘om  
iste‘dod  
istirohat bog‘i

## J

jahon  
jamoat  
jarroh

javon  
jayron  
jeton  
jonivor  
juft

## K

kakao  
karam  
kasseta  
kilogramm  
konki  
kosmonavt  
kulrang  
kungaboqar  
ko‘hna

## L

lavlagi  
loviya  
lug‘at

## M

madhiya  
makkajo‘xori  
manfaat  
mavsum  
mashaqqat  
ma‘no  
ma‘ramoq  
ma‘yus  
mehribon  
metall  
me‘mor  
minnatdor  
mudofaa  
muhandis  
mukofot  
muqaddas  
muvaffaqiyat

mug'ambir  
mo'jiza

## N

naqsh  
navbat  
na'matak  
ne'mat  
nihol  
no'xat

## O

ob-havo  
oltinrang  
omad  
oromgoh

## P

palapon  
parashut  
payvand  
poytaxt  
po'stloq

## Q

qahramon  
qandil (lustra)  
qasd  
qimmatbaho  
quduq  
qulupnay  
qumursqa

## R

radio  
rahm  
rahmdil  
rasm  
rassom (musavvir)  
respublika  
rostgo'y

## S

sahifa  
samolyot

sayyoh  
sirk  
supurgi  
so'qmoq

## T

tabiat  
tanaffus  
tashakkur  
taassurot  
ta'm (maza)  
ta'til  
ta'zim  
tennis  
timsoh  
tomorqa  
tomosha  
trolleybus

## U

ufq  
ulug'  
urf-odat

## V

vagon  
varrak  
va'da  
velosi ped

## X

xabar  
xarsang  
xayol  
xayr  
xavf  
xazon  
xashak  
xirmon  
xiyobon  
xohlamoq  
xokkey  
xursand  
xo'roz

## Y

yantoq  
yassi  
yax (muz)  
yaxmalak  
yong'oq  
yorug'  
yop-yorug'  
yovvoyi

## Z

zahar  
zavod  
zangor//zangori  
zehn  
ziyrak  
zog'ora  
zog'orabaliq  
zog'cha

## O'

o'troq  
o'chirg'ich

## G'

g'alvir  
g'amxo'r  
g'ijjak

## Sh

shabada  
shaftoli  
shamol  
shaxmat  
she'r

## Ch

chiyabo'ri  
choyshab  
chumchuq  
chug'urchuq

## MUNDARIJA

---

|                                                                         |     |
|-------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Takrorlash</b> .....                                                 | 5   |
| Gap .....                                                               | 5   |
| Gap bo'laklari .....                                                    | 12  |
| Gapda so'zlarning bog'lanishi .....                                     | 16  |
| Uyushiq bo'lakli gaplar .....                                           | 20  |
| Uyushiq bo'laklarning bog'lanishi .....                                 | 26  |
| Undalma .....                                                           | 29  |
| Nutq. Matn .....                                                        | 36  |
| Tovushlar va harflar .....                                              | 41  |
| Bo'g'in .....                                                           | 47  |
| Alifbo .....                                                            | 54  |
| So'z tarkibi .....                                                      | 55  |
| <b>So'z turkumlari</b> .....                                            | 60  |
| <b>Ot — so'z turkumi</b> .....                                          | 64  |
| Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi .....                 | 70  |
| Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi .....               | 81  |
| Ot yasovchi qo'shimchalar .....                                         | 111 |
| <b>Sifat — so'z turkumi</b> .....                                       | 114 |
| Sifatning ma'no turlari .....                                           | 120 |
| Sifat yasovchi qo'shimchalar .....                                      | 126 |
| <b>Son — so'z turkumi</b> .....                                         | 133 |
| <b>Kishilik olmoshlari</b> .....                                        | 144 |
| Kishilik olmoshlarining kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi ..... | 146 |
| <b>Fe'l — so'z turkumi</b> .....                                        | 153 |
| Fe'l zamonlari .....                                                    | 156 |
| Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanishi .....            | 167 |
| Fe'l yasovchi qo'shimchalar .....                                       | 175 |
| <b>O'quv yili oxiridagi takrorlash</b> .....                            | 181 |
| <b>Lug'at</b> .....                                                     | 188 |

**RA'NO IKROMOVA, XOLIDA G'ULOMOVA,  
SHAROFAT YO'LDOSHEVA,  
DILOROM SHODMONQULOVA**

## **ONA TILI**

**4- sinf**

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2005*

Muharrir *H. Yusupova*  
Badiiy muharrir *F. Nekqadamboyev*  
Texn. muharrir *S. Tursunova*  
Musahhah *M. Ibrohimova*  
Kompyuterda sahifalovchi *S. Musajonova*

IB 8654

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 23.08.2005. Bichimi 70x90<sup>1/16</sup>.  
Kegli 12, 14 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma t. 12,0.  
Shartli b. t. 14,04. Nashr t. 12,0. 15000 nusxada bosildi. Buyurtma №187  
Bahosi 1600 so'm

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1- uy. 2005. Shartnoma № 12—213—05.

0—56

Ona tili: 4- sinf (R. Ikromova, X. G'ulomova,  
Sh. Yo'ldosheva va boshq.)— T.: „O'qituvchi“  
NMIU, 2005. — 192 b.

I. Ikromova R. va boshq.

BBK 81. 2O'zb—922